

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA MA‘NAVIYAT ASOSLARI

8-SINF

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 7-nashri

*Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
nashrga tavsiya etgan*

TOSHKENT «MA‘NAVIYAT» 2015

UO‘K 32.019.5(075)
KBK 66.3(5O‘)ya 721+74.200.50
M 70

**R. QO‘CHQOROV, S. NISHONOVA,
O. MUSURMONOVA, M. QARSHIBOYEV**

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinflari uchun mo‘ljallangan ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch», «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitoblari asosida qayta ishlangan. Unda milliy istiqloq g‘oyasi va ma‘naviyat asoslarini tashkil etadigan asosiy bilim va tushunchalar zamonaviy metodik usullar va talablar asosida yoritib berilgan.

UO‘K 32.019.5(075)
KBK 66.3(5O‘)ya 721+74.200.50

Taqrizchilar:







Sotsiologiya fanlari doktori **A. Xolbekov**
Filologiya fanlari nomzodi **S. Olimov**

M 70 Milliy istiqloq g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari: 8-sinf / R. Qo‘chqorov [va boshq.] – 7-qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: «Ma‘naviyat», 2015. – 128 b.

I. R. Qo‘chqorov [va boshq.]

ISBN 978-9943-04-150-9

SHARTLI BELGILAR:

	– esda tuting		– ijodiy fikrlang
	– bilib oling		– savol va topshiriqlar
	– kalit so‘z		– diqqat bilan o‘qing

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-04-150-9

© R. Qo‘chqorov va boshq., 2015
© «Ma‘naviyat», 2015

BUNYODKOR XALQ

Aziz o‘quvchi, Yer yuzidagi har bir xalq o‘z tarixi, bugungi va kelajak hayotini o‘zi yaratadi. Shuning uchun ham ularni bunyodkor kuch deb ataymiz.



Bu dunyo bunyodkorlik bilan obod va go‘zaldir.

Agar bunyodkorlik va uning asosida shakllangan qadriyat va an‘analar bo‘lmasa, o‘zingiz tasavvur qiling, bu olam qanday xarob ahvolga tushib qolgan bo‘lar edi: faqat buzg‘unchilik, shahar va qishloqlar qurish, bog‘-rog‘lar yaratish, yerdan ne‘mat undirish o‘rniga ularni talash va vayron qilishdek vahshiy hissiyotlar avj olib ketardi. Insonning bu dunyoda erkin yashashi, oila qurib, bola o‘stirishi, ezgu orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun mutlaqo imkon qolmagan bo‘lardir. Bunday hayotni esa dunyodagi hech bir xalq istamaydi.



«Bunyodkorlik» so‘zi yaratish, qurish, yo‘qdan bor qilish degan ma‘nolarni anglatadi.

O‘ylab ko‘rganmisiz, jahon avvalo kimni tan oladi? Bu savolga Prezidentimiz Islom Karimovning mana bu so‘zlari javob bo‘ladi:



«O‘z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o‘zini o‘zi boqadigan, o‘zini himoya qilishga, kelajagini o‘z qo‘li bilan qurishga qodir bo‘lgan xalqni jahon ahli e‘tirof etadi»¹.

Haqiqatan ham, bizning qadimiy shaharlarimizni dunyo ahli katta hayrat va hayajon bilan tomosha qiladi, buyuk ajdodlarimizning aql-zakovati va mahoratiga qoyil qoladi. Yoki bugungi kunda mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan

¹ **Islom Karimov.** Vatan va xalq mangu qoladi. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 15-bet.



keng ko‘lamli islohotlar, yurt-doshlarimizning ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, san‘at va sport bo‘yicha erishayotgan ulkan yutuqlari ham jahon jamoatchiligi tomonidan tan olinmoqda. Bularning barchasi katta bunyodkorlik maqsadlari bilan yashaydigan xalqni dunyo haqli ravishda e‘tirof etishi, hurmat qilishidan dalolat beradi.

Bunyodkorlik tuyg‘usi borki, Yer yuzida taraqqiyot bor. Butun bashariyat faxrlanib yashaydigan

Samarqand, Rim, Buxoro, Parij, Vena, Venetsiya, Dehli, Berlin va Madrid kabi qadimiy shaharlar, Buyuk Xitoy devori, Registon, Misr ehromlari, Tojmahal, Eyfel minorasi singari me‘moriy mo‘jizalar aynan bunyodkorlik tufayli vujudga kelgan.

Biz bunday bunyodkorlik natijalaridan deyarli har kuni, har daqiqada bahramand bo‘lamiz, ertalab ishga yoki o‘qishga borishda quruvchilarimiz barpo etgan, farrosh va xizmatchilar supurib, tozalab qo‘ygan ravon yo‘llar, so‘lim xiyobonlardan o‘tamiz. Odamlar bahramand bo‘lishi uchun qo‘li gul usta va me‘morlar tomonidan yaratilgan go‘zal favvoralar yonida, bog‘bonlar ekib, parvarish qilgan daraxtlar soyasida o‘tirib, nafas rostlaymiz. Yoki olimlarimiz yozgan kitoblarni o‘qib, bilim olamiz, san‘atkorlarimiz yaratgan kinofilmlar, sahna asarlari, multfilmlarni ko‘rib, ma‘nili hikoyalarni eshitib, fikrimiz, dunyoqarashimiz kengayadi, his-tuyg‘ularimiz tarbiyalanadi. Dasturxonidagi nonimiz, yeydigan ovqatimiz ham halol mehnat mahsuli – haqiqiy bunyodkorlik natijasidir.



Bir so‘z bilan aytganda, inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti bunyodkorlik asosiga qurilgan.

Siz qadrdon maktabingizga qaytib, yangi o‘quv yilini boshlayotgan shu kunlarda mamlakatimizda Mustaqillik bayrami tantanalari davom etmoqda. Har yili Mustaqillik kuni arafasida xalqimizning bunyodkorlik fazilatlarini yanada yorqin namoyon

bo'ladi, yurtimizda yangi-yangi inshootlar ishga tushiriladi, maktablar, litsey va kollejlilar, oliy o'quv yurtlari, ma'muriy va madaniy maskanlar, yo'llar ta'mirlanib, tartibga keltiriladi. Bunday bunyodkorlik namunasini siz o'zingiz o'qiyotgan maktab, yashayotgan mahallangiz, qishlog'ingiz yoki shahringiz misolida ham ko'rishingiz mumkin.

Xalqimiz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan boshlab inson o'z oldiga tom ma'noda erkin va farovon yashaydigan yangi davlat, yangi jamiyat qurish vazifasini qo'ydi. Bu davlat va jamiyatning nomi huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati deb ataladi.



Huquqiy demokratik davlat qonunlarga tayangan holda rivojlanadigan, xalqning xohish-irodasi asosiy o'rin tutadigan davlat deganidir. Fuqarolik jamiyati esa davlat boshqaruvida fuqarolar va ular tomonidan tuzilgan fuqarolik tashkilotlari faol ishtirok etadigan, hal qiluvchi o'rin tutadigan jamiyatdir.



«Demokratiya avvalambor ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir. Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jihati, ikki qanotidir»¹.

Prezidentimizning ana shu fikrlari haqida bir o'ylab ko'raylik. Demokratiya ma'naviy mezonlar, ya'ni insonning axloq-odobi, aql-zakovati, sog'lom dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati kabi muhim omillar asosida boshqariladigan jamiyatning asosiy belgisi ekan, biz qanchalik ko'p o'qisak, zamonaviy kasb-hunarlarini, milliy va umumbashariy qadriyatlarni naqadar puxta egallasak, bu jamiyatni boshqarishda shuncha faol ishtirok eta olamiz. Aynan shunday odamlarning safi kengayib borgani sayin biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat ham kuchayib boradi. Bunday kuchli davlat esa kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishga asos bo'ladi.

Siz yana shuni bilingki, dunyodagi har bir insonda mehnat qilish uchun kuch-g'ayrat, biror-bir kasb-hunarga moyillik, qobi-

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 108-bet.

liyat va iste'dod bo'ladi. Albatta, ana shu xususiyatlarni ro'yobga chiqarish uchun, avvalo, odamning o'zi harakat qilishi kerak. Shu bilan birga, davlat va jamiyat ham bu masalada yetarli shart-sharoit yaratib berishi zarur. Davlat va jamiyat aynan shuning uchun ham kerak. Yo'qsa, odamning kuch-g'ayrati ham, qobiliyat va iste'dodi ham vaqtda ishlatilmagani, rivojlantirilmagani uchun so'nib, susayib ketadi. Shuning uchun mamlakatimizda yangi jamiyat qurishda, avvalo, inson eng asosiy bunyodkor kuch sifatida ulug'lanmoqda. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning kuch-g'ayrati, qobiliyat va iste'dodini bunyodkorlik yo'lida safarbar etish, buning uchun ularga zamonaviy talablar asosida ta'lim-tarbiya berish, ilg'or kasb-hunarlarini o'rgatish, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar etib voyaga yetkazishga katta ahamiyat berilmoqda.



Sog'lomlik va barkamollikni bunyodkorlik tuyg'usiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bunyodkorlik ulug' fazilat bo'lib, u har kuni, har soatda ezgu ishlar qilib yashash, nimadir yaratish, nimanidir kashf qilish, qo'lni ishga, miyani fikrlashga, qalbni oliyjanob hislarga tinimsiz o'rgatib borish fazilatidir. Bunday fazilat egasining ishi chala bo'lmaydi. U boshlagan ishini albatta oxiriga yetkazadi.

Xalqimiz azal-azaldan ana shunday bunyodkorlik fazilati bilan uyi, mahallasi va yurtini obod qilib kelgan. Bunyodkorligi tufayli hech qachon boshqalarga muhtoj bo'lmagan. O'zgalarning oldida boshi ham, g'ururi ham tog'dek baland bo'lgan.



Xalqimizning mehnati bilan qadimda yoki bugungi kunda barpo etilgan go'zal me'moriy obidalar, obod shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, yo'llar, ko'priklar, bog'-u rog'lar moddiy shakldagi bunyodkorlik namunalaridir. Hayotda ma'naviy shakldagi bunyodkorlik ham mavjud. Har qaysi xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan, zamonlar sinovidan bezavol o'tgan, sayqal topib boradigan tuyg'u va tushunchalar, qadriyat hamda an'analar ma'naviy bunyodkorlik namunalari hisoblanadi.

Biz yirik shaharlarimizdagi qadimiy va zamonaviy binolarni ko'rganda, ularning chiroyiga maftun bo'lganda, xalqimizning moddiy bunyodkorlik salohiyati naqadar yuksak ekaniga tan beramiz, bundan qalbimiz g'urur-iftixor tuyg'ulariga to'ladi. Shu bilan birga, bu binolarning tarhi va rejasini chizgan, qanday materiallar asosida qurish lozimligini oldindan belgilab bergan usta-yu me'morlar, muhandislarning ma'naviy salohiyatiga ham qoyil qolamiz. Bordi-yu shunday insonlar bo'lmasa, bunday go'zal binolarni barpo etib bo'lmasligini tasavvur etamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bunyodkor xalq o'zining yaratuvchilik qudratini mehnati, kasb-u hunari, aql-zakovati bilan namoyon etib, dunyo tarixida o'chmas iz qoldiradi. Bu esa eng katta baxtdir.



Savol va topshiriqlar:

1. Qanday odamni bunyodkor deb atash mumkin?
2. Dangasa, ishyoqmas bolani bunyodkor deb bo'ladimi?
3. Siz bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanasiz?
4. Ota-onangizga uy ishlarida yordam berasizmi?
5. Ota-onangiz sizga qanday yumush va kasb-hunarlarini o'rgatgan?
6. Siz do'stlaringizda qanday yaxshi, bunyodkorlik fazilatlarini kuzatgansiz?
7. Rasmlarda aks ettirilgan ne'mat va boyliklar nimaning natijasi?

A)



C)



B)



D)





MILLIY G‘OYAMIZ

Aziz o‘quvchi, siz milliy g‘oya haqida, uning xalq, millat va jamiyat hayotidagi ahamiyati xususida 7-sinfda atroflicha xabardor bo‘lgansiz.



Milliy g‘oya yuksak vazifalarni amalga oshirish, umumiy maqsadlarga erishish yo‘lida odamlar qalbida ishonch uyg‘otadigan, ularni birlashtiradigan, safarbar etadigan g‘oya yoki g‘oyalar tizimidir. Har qaysi mamlakatdagi milliy qadriyat va an‘analar, moddiy va ma‘naviy boyliklar qatori milliy g‘oyaning ijodkori ham o‘sha yerda yashab kelayotgan xalqdir.

Demak, milliy g‘oya o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. U xalqning, millatning asrlar davomida orzu qilib, intilib kelgan maqsad-muddaolarining natijasi sifatida shakllanadi. Lekin bu shunchalik murakkab va qiyin kechadigan jarayonki, uni to‘liq tasavvur etish uchun o‘sha xalq yoki millatning qadimiy tarixini ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazishimiz, tushunib, anglab yetishimiz kerak bo‘ladi.

Bu haqda fikr yuritganda, avvalo, bir haqiqatni esda tutishimiz lozim: bu dunyoda yaxshilikning dushmani ko‘p bo‘lgani kabi, ezgu fikr va g‘oyaning yo‘lidagi to‘siqlar ham ko‘p bo‘ladi. O‘zimiz ham kundalik hayotda ba‘zan qiyinchiliklarga duch kelamiz. Gohida umidsizlikka tushamiz. Ko‘nglimizdagi orzumizni amalga oshirishga kuchimiz, imkoniyatimiz yetishiga shubha qilib, tushkunlikka berilib qoladigan paytlarimiz ham bo‘ladi. Shunda bizga nima yordam beradi? Avvalo, yon-atrofimizdagi yaxshi insonlar: ota-onamiz, ustozlarimiz, aka yoki opalarimiz, yaqin do‘stlarimiz nasihat qilib, ko‘nglimizni ko‘tarib, ishonchimizga ishonch qo‘shadi. Qolaversa,

o'qigan mazmunli kitob, ko'rgan kino, teatr asarlari, ulardagi irodali insonlarning obrazlari xayolimizda qayta jonlanib, bizga dalda bergandek, hech qachon bo'sh kelma, o'zingni qo'lga ol, deb ezgulikka da'vat etgandek bo'ladi.

Dunyodagi xalqlar ham o'z tarixining dastlabki davrlarida goh tabiat qiyinchiliklariga, goh yon-atrofidagi yovuz kuchlarning bosqinchilik harakatlariga duch kelishadi. Ana shunday qaltis sinov onlarida ular o'z uyi, oilasi va Vatani bilan birga, avlod-ajdodlari asrlar davomida asrab-avaylab kelgan ezgu his-tuyg'ular, tushuncha va tasavvurlar, maqsad-muddaolarni ham saqlab qolishga harakat qiladi.



Ajdodlardan meros buyuk ma'naviy boyligni har qanday og'ir sharoitda asrab qola olgan xalq va millatgina milliy o'zligi, tarixiy qiyofasini ham saqlab qolishga erishadi. Bunda unga milliy g'oya katta yordam beradi.

Milliy g'oya jamiyatning kuchi uning birligi va hamjihatligida ekanini doimo eslatib, millatning har bir vakiliga kuch-g'ayrat bag'ishlab turadi.

Bizning milliy g'oyamizning asosini yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi kabi buyuk maqsadlar tashkil etadi. Prezidentimiz Islom Karimovning bu haqda aytgan fikrlarini esda tuting:



«Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning oliyjanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi»¹.

Bizning milliy g'oyamiz o'zining shakllanish va rivojlantirish tarixiga ega bo'lib, zamon talablariga uyg'un holda muttasil boyib, takomillashib boradigan tizimdir. Bu tizim tarkibida yana komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamji-

¹Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 72-bet.

hatlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) kabi g'oyalar muhim o'rin tutadi.

Dunyodagi har qanday milliy g'oya kabi, bizning milliy g'oyamizning ham tarixiy va falsafiy asoslari bor.



Milliy g'oyaning ma'no-mazmunini belgilaydigan asoslardan biri – bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir.

Haqiqatan ham, yurtimizning ko'p asrlik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda milliy g'oyamizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan, xalqimizga asrlar davomida xos bo'lgan orzu-intilishlarni ko'ramiz. El-yurtimizning doimo o'z ozodligi va mustaqilligini munosib himoya qilib kelgani shular jumlasidanidir. Tariximizda bu haqiqatni tasdiqlaydigan misollar ko'p. To'maris va Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi mard va jasur ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashlari misolida bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin yoki so'nggi mustamlakachilik davrida ma'rifatparvar jadid bobolarimizning ozodlik uchun harakat qilgani, o'tgan asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida xalqimizning Prezident Islom Karimov rahbarligida istiqloq yo'lida ulkan jasorat bilan kurash olib borib, o'ta og'ir sharoitda mustaqillikka erishgani ham tinch va erkin hayot qanchalik mashaqqatli urinishlar evaziga qo'lga kiritilganini ko'rsatadi.

Siz Yurtboshimizning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobini o'qib chiqsangiz, bu haqda yanada ko'proq bilib olasiz.

Milliy g'oyaning tarixiy asoslari bunyodkorlik, mehnatsevarlik azal-azaldan xalqimizning bosh fazilati, ustuvor maqsadlaridan biri bo'lib kelganidan dalolat beradi. Bizning qadimiy shaharlarimiz, dunyo miqyosida tan olingan me'moriy obidalarimiz, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan «Avesto», «Shashmaqom», «Alpomish» kabi ma'naviyat durdonalari xalqimizning bunyodkor intilishlari mahsuli. Ana shu intilishlar ham milliy g'oyamizga asos bo'lgan.

El-yurtimiz qadim-qadimdan farzand tarbiyasiga, oila mustahkamligiga katta ahamiyat berib keladi. Insonning shaklla-

nishi va kamolga yetishida oilaviy muhit, ota-bobolardan meros an'analar g'oyat muhim o'rin tutadi. Hayot sinovidan o'tgan ana shu intilishlar ham milliy g'oyamizning negizini belgilaydigan tamoyil va tushunchalardan hisoblanadi.



Milliy g'oyaning falsafiy asosini, avvalo, dunyoviy bilimlar, yurtimiz va jahon falsafasi durdonalari belgilaydi.



Dunyoviy bilimlar deganda, yon-atrofimizdagi olam, tabiat, ularning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari, inson hamda jamiyat haqidagi bilimlarni tushunamiz.

Siz bu bilimlarni turli fanlar orqali o'rganmoqdasiz. Ana shu bilimlar asosida dunyo haqidagi, inson va jamiyat to'g'risidagi tasavvurlaringiz kengayib boradi.



Yurtimiz va jahon falsafasi durdonalari deganda, insoniyat tafakkuri rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilgan, asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan muqaddas kitoblar, falsafiy asarlarni tushunamiz.

Qur'oni karim va hadisi sharif hikmatlari, xalq maqollari, afsona va rivoyatlari, qo'shiqlaridagi teran ma'noli fikrlar, buyuk allomalarimiz, dunyo faylasuflarining mumtoz asarlari shular jumlasidandir. Ular milliy g'oyamiz oziqlanadigan manbadir.



Prezidentimiz tashabbusi bilan 2014-yil 15–16-may kunlari Samarqand shahrida «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro konferensiya bo'ldi. Unda buyuk allomalarimiz merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi.

Mamlakatimizdagi taniqli olimlar, faylasuflar, siyosatshunoslar, yozuvchi va shoirlar Prezidentimiz asarlari asosida milliy g'oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillarini ishlab chiqishdi. Shu tariqa 2000-yili «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy

tushuncha va tamoyillar» risolasi nashr etildi va unda milliy g‘oyamizning ma’no-mazmuni ifoda etildi. Yurtboshimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida milliy g‘oyamiz haqidagi nazariy va amaliy fikrlar yanada boyitildi.



Milliy g‘oyamiz O‘zbekiston tuprog‘ida yashayotgan, uni o‘z ona Vatani deb biladigan barcha millat va elatlarga birdek daxldordir.



Savol va topshiriqlar:

1. Milliy g‘oyaning ijodkori kim?
2. Milliy g‘oya, sizningcha, nima uchun kerak?
3. Siz o‘z orzuingizni amalga oshirish uchun nima qilasis?
4. Milliy g‘oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillari kimning asarlari asosida shakllangan? Ular qaysi risolada o‘z ifodasini topgan?
5. Qadimdan xalqimizga xos bo‘lgan qanday intilishlar milliy g‘oyamizga asos bo‘lganini quyidagi haykallar misolida aytib bering.

A)



C)



B)



D)



YURT TINCHLIGI

Aziz o‘quvchi, e‘tibor bergan bo‘lsangiz, milliy g‘oyamiz tarkibida yurt tinchligi masalasi birinchi o‘rinda turibdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki tinchlik dunyodagi eng buyuk boylik hisoblanadi. Agar tinchlik bo‘lsa, hamma erkin nafas oladi, oila qurish, farzand o‘stirish, to‘y-u tomoshalar qilish, bir so‘z bilan aytganda, nimaiki ezgu niyat bo‘lsa, ularning barchasini amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Biz o‘z oldimizga buyuk maqsad – yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish vazifasini qo‘ygan ekanmiz, uni amalga oshirish uchun, albatta, ko‘p ezgu ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Masalan, buning uchun iqtisodiyotimizni rivojlantirishimiz, yerosti va yerusti boyliklarimizdan tejabtergab foydalanishimiz, dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar bilan hamkorligimizni yanada mustahkamlashimiz, zamonaviy kadrlarimiz yetarli bo‘lishi – bularning barchasi juda muhim. Lekin ularning hammasidan ham muhimi, el-yurtimiz tinch va osoyishta bo‘lishi kerak.

Prezidentimiz «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» kitobida bu haqiqatni alohida ta‘kidlaydi:



«Biz barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishish yo‘lida o‘z oldimizga qanday reja va dasturlarni qo‘ymaylik, barcha oliyjanob orzu-intilishlarimizni amalga oshirishning yagona sharti va garovi – bu tinchlik va osoyishtalikdir»¹.

Tinchlik bo‘lmagan joyda fayz-u baraka ham, rivojlanish ham bo‘lmaydi. «Bir kun janjal chiqqan joydan qirq kun fayz-u baraka ko‘tariladi» degan maqol bejiz aytilmagan. Bu – xalqimizning asrlar davomida tinchlikning qadr-qimmatini har tomonlama

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 72–73-betlar.



chuqur anglab chiqargan haqqoniy xulosasi. Shuning uchun ham tinchlik eng ulug' ne'mat, bebaho boylik sifatida milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz, butun turmush tarzimizning ma'no-mazmuniga singib ketgan. Yurtimizdagi har bir xonadonda, har qanday yig'in va ma'rakada ezgu niyatlar bilan fotihaga qo'l ochilganda yosh-u qari, erkag-u ayol – barcha yurtdoshlarimiz Yaratgandan tinchlik-xotirjamlik so'raydi.

Bugungi kunda dunyodagi ma'rifatli xalqlar yurt tinchligi taraqqiyotning asosiy sharti, garovi ekanini yaxshi anglab yetmoqda. Shuning uchun Yer yuzida tinchlik va barqarorlikni asrash faqat bir xalq yoki mamlakatning emas, butun insoniyatning muqaddas ishiga aylanmoqda.

Siz jahonning turli burchaklarida terrorchilik, ekstremizm, millatchilik kabi illatlar tufayli deyarli har kuni transport vositalari, uy-joylar, binolarni portlatish, begunoh insonlarni garovga olish, ularning hayotiga qasd qilish holatlari sodir bo'layotganini televizor orqali ko'rib borasiz.

Keyingi besh ming yil mobaynida bashariyat o'n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshdan kechirdi. Bunday ofatlar sababli odamzot chekkan azob-uqubat, ko'rgan talafotlarni tasavvur qilishning o'zi juda qiyin bo'ladi. Bordi-yu ana shunday urush va qirg'inlar bo'lmasa edi, insoniyat taraqqiyotda naqadar ilgarilab ketgan bo'lardi. Chunki har bir urush va janjal odamzotga qarshi qaratilgan, uni rivojlanishdan yuz yillar, ming yillar orqaga surib yuboradigan katta ofatdir.

Siz urushning dahshatli manzaralari, uning insonlar, xalqlar hayotiga halokatli ta'siri aks ettirilgan tarixiy va badiiy kitoblarni o'qigan, kinofilmlarni tomosha qilgan bo'lsangiz kerak. Ularning barchasida urush insonlar uchun ulkan fojia ekani tasvirlanadi.



Qonli voqealar odamning diydasini, bagʻrini, yuragini qattiq qilib qoʻyadi. Tinimsiz jang-u jadallardan hatto toʻrt muchasi sogʻ holda omon chiqqan odamlar ham ruhiy jihatdan katta talafot koʻradi. Chunki urush tufayli ularning his-tuygʻulari oʻzgarib ketadi, asablari, maʼnaviy olami jarohatlanadi.



Tinchlikka hech qachon osonlikcha erishib boʻlmaydi. Tinchlikka erishish, uni asrab-avaylash uchun tinimsiz mehnat qilish, kurashish, doimo hushyor va ogoh boʻlib yashash talab etiladi.

Ozgina loqaydlik va beparvolikka yoʻl qoʻyilgan joyda tinchlikka putur yetadi. Buyuk ajdodlarimiz tinchlik-totuvlikni Vatan ravnaqi, xalq farovonligining asosiy sharti deb bilganlar. Shuning uchun ham ular yurt tinchligi, fuqarolar osoyishtaligini taʼminlash masalasiga alohida eʼtibor berganlar. Masalan, Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulugʻbek Movarounnahrda hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor boʻlgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, koʻhna zaminimiz gullab-yashnagan.

Samarqand shahridagi Mirzo Ulugʻbek rasadxonasining seksanti – poydevor qismidagi yulduzlarni kuzatish inshooti saqlanib qolgan. Bundan qariyb olti asr muqaddam bunyod etilgan bunday ulkan ilmiy markaz ham tinchlikning mahsulidir. Chunki juda katta mehnat va mablagʻni, mohir usta va mutaxassislarni talab etgan bu noyob obidani notinch sharoitda barpo etib boʻlmas edi.

Bizning mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash mustaqilligimizning birinchi kunlaridan boshlab eng muhim va ustuvor masala boʻlib kelmoqda. Chunki, yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, biz oʻz oldimizga buyuk maqsadlar qoʻyib yashayotgan xalqmiz. Bu maqsadlarga erishishning eng muhim shartlaridan biri tinchlikdir.

Mamlakatimizda chet elning yirik kompaniyalari bilan birgalikda barpo etilgan Samarqand va Asaka shaharlaridagi avtomobil

zavodlari, Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi kabi katta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular chiqargan mahsulotlar yurtimizda ham, xorijda ham xaridorlarini topmoqda. Oʻylab koʻring, bunday koʻp mehnat va mablagʻ talab qiladigan korxonalarni chet ellik hamkorlarimiz nega aynan bizning yurtimizda qurishga, shu ishga hissa qoʻshishga rozi boʻlishgan? Ular, avvalo, diyorimizdagi tinchlikni, xalqimizning bunday hayotni qadrlab yashashini koʻrib, bu mamlakatda haqiqatan ham ishlasa arziydi, qilingan mehnat zoe ketmaydi, degan xulosaga kelishgan.

Bugungi kunda yurtimizning shahar-qishloqlari tobora obod boʻlib bormoqda, xalqimiz, ayniqsa, siz kabi yoshlarimiz uchun yangi-yangi qulayliklar yaratilmoqda. Bularning barchasi, avvalo, tinchlik tufayli.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning tinch va osuda hayot kechirishi uchun davlatimiz barcha chora-tadbirlarni koʻrmoqda. Chunki tinch yashash va mehnat qilish Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda insonning eng muqaddas huquqlaridan biri sifatida muhrlab qoʻyilgan.



«Insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdan iborat. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi ham birinchi galda ana shu mezon bilan oʻlchanadi»¹.

Yurtimizdagi har bir inson katta orzu-umidlar – uy qursam, bola oʻstirsam, toʻy-tomosha qilsam, nevara-chevara koʻrsam, daraxt ekib, bogʻ qoldirsam, degan xolis niyatlar bilan yashaydi. Bularning barchasiga erishmoq uchun esa insonga, avvalo, sogʻliq va tinchlik kerak. Shuning uchun ham milliy gʻoyamiz tizimida yurt tinchligi gʻoyasi birinchi oʻrinda turadi.

¹**Islom Karimov.** Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. –T.: «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2013-yil, 73-bet.



Savol va topshiriqlar:

1. Dunyodagi eng buyuk boylik nima?
2. Tinchlik bo‘lmagan joyda nima uchun fayz-u baraka, rivojlanish bo‘lmaydi? Bu haqda qanday maqollarni, hayotiy misollarni bilasiz?
3. Yer yuzida tinchlik va barqarorlikni asrash nima uchun butun insoniyatning muqaddas ishiga aylanmoqda?
4. Dunyoda tinchlikni buzishga urinadigan qanday yovuz kuchlar bor?
5. Urushning dahshatli manzaralari aks ettirilgan qanday kitoblarni o‘qigansiz, kinofilmlarni tomosha qilgansiz?
6. Tinchlikka erishish, uni asrab-avaylash uchun nima qilish kerak?
7. Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik tufayli ro‘y berayotgan o‘zgarishlar haqida so‘zlang.
8. Quyidagi rasmlarga qarab, tinchlikning ahamiyatini tushuntirib bering.



VATAN RAVNAQI

Vatan – insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan tabarruk maskan ekanini siz «Vatan tuyg‘usi» fanidan yaxshi bilasiz. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira.

Vatan – insonning g‘ururi ramzi. Har kim ona Vatani timso-lida dunyodagi eng go‘zal va betakror yurtni, o‘zining, xalqining baxtini ko‘radi. Ona yurt tabiati, havosi, odamlari bolaligimizdan boshlab biz uchun aziz va qadrdon bo‘lib qoladi. Vatan ozod bo‘lsa, xalq ham ozod, Vatan ravnaq topsa, xalq ham farovon yashaydi. Shuning uchun ham milliy g‘oyamizning tub negizini belgilaydigan tushunchalardan biri Vatan ravnaqidir.



Vatan ravnaqi deganda, hayotning barcha sohalari bo‘yicha rivojlanish va yuksalishni, mamlakatimizning jahondagi obro‘-e‘tibori yanada ortishini, milliy taraqqiyotni tushunamiz.

Prezidentimiz Islom Karimov Vatan ravnaqi yo‘lida kuyib-yonib, fidoyi bo‘lib yashash uning bag‘rida o‘sib-ulg‘aygan har bir farzandning muqaddas burchi ekanini ta‘kidlab, aynan shunday qarash inson hayotining ma‘no-mazmunini belgilab beradigan qadriyatga aylanishi lozim ekaniga e‘tiborini qaratadi.



«Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma‘naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog‘liq. Bu o‘z navbatida har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas‘uliyatini his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da‘vat etadi. Va har qaysi fuqaro o‘z mamlakatining xalqaro hamjamiyat safidan munosib o‘rin olishi, bugungi

kunda taraqqiy topgan, tinch va badavlat yashayotgan davlatlar qatoriga ko‘tarilishidan manfaatdor bo‘lishi shubhasiz»¹.

Vatan ravnaqi uning farzandlariga bog‘liq bo‘lgani bois mamlakatimizda sizdek yoshlarning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga katta ahamiyat berilmoqda. Mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar tufayli minglab iste‘dodli yoshlarimiz o‘qishda, ilm-fan, san‘at va sport sohalarida katta yutuqlarga erishmoqda. Siz ham ular kabi bo‘lishga intilib yashayapsiz. Bularning barchasi ona Vatanimiz – O‘zbekistonimizning rivojlanishiga, uning jahondagi obro‘-e‘tibori oshishiga hissa qo‘shadi. Shuning uchun ham bizning har birimiz, bu Vatan, bu yurt – meniki, uning taraqqiyoti menga bog‘liq, shu yo‘lda bor kuch va imkoniyatimni baxsh etishga tayyorman, degan qarash bilan yashashimiz, yon-atrofimizdagi do‘stlarimizni ham shunga da‘vat etishimiz lozim. Shunda yurtimiz, xalqimiz, Prezidentimiz orzu qilganidek, buyuk davlatlar qatoriga ko‘tariladi.

Siz «Geografiya» fanidan yaxshi bilasizki, dunyodagi hamma mamlakatlar ham qazilma boyliklarga ega emas. Lekin ular farzandlarining zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallagani, ona yurtiga fidoyiligi evaziga taraqqiyot sohasida boshqa davlatlar erisholmagan cho‘qqilarni zabt etmoqda. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya singari davlatlarda yerosti boyliklari uncha ko‘p emas. Ammo, shunga qaramasdan, bu mamlakatlar jahondagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallab kelmoqda.

Bizning yoshlarimiz orasidan ham ana shunday vatanparvar yigit-qizlar ko‘plab yetishib chiq-



¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 73–74-betlar.

moqda. Ular xalqimizning g'urur va iftixoridir. Siz o'qishda, ilm va ijodda, mehnatda, sport va san'atda katta natijalarga erishgani uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga, «Nihol» mukofotiga, «O'zbekiston iftixori» unvoniga sazovor bo'lgan aka-opalaringiz haqida eshitgan bo'lsangiz kerak. Ehtimol, siz ta'lim olayotgan maktabdan ham shunday taniqli insonlar yetishib chiqqandir? Shu haqda bir o'ylab ko'ring. O'zingiz ham ular kabi bo'lishga harakat qiling. Shunda O'zbekiston deb atalgan ulug' mamlakatimiz rivojiga, uning ravnaq topishiga munosib hissa qo'shgan bo'lasiz.



Vatan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish dunyodagi eng buyuk baxtdir.

Shoirlarımız Vatanni inson hayotining ma'no-mazmunini belgilab beradigan eng aziz qadriyatlardan biri sifatida bejiz tarannum etishmaydi. Masalan, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy ona yurtidan chetda baxt yo'qligini nazarda tutib, «Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranji g'urbat havas aylama», deya nasihat qilganlar.



Vatan mustaqil, uning hududida yashayotgan xalq erkin va ozod bo'lmasa, hech qachon taraqqiyot bo'lmaydi. Ozodlik va mustaqillik – Vatan ravnaqiga erishishning eng muhim sharti. Shuning uchun ham bu tushunchalar barcha xalqlar hayotida eng muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Ozodlik va erkinlikka chiqqan xalq qanchalik tez rivojlanishini dunyodagi ko'plab mamlakatlar misolida ko'rish mumkin. Masalan, Germaniya davlati fashistlardan ozod bo'lgach, qisqa muddatda jahonning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylandi yoki Janubi-sharqiy Osiyodagi Malayziya, Singapur singari davlatlar mustaqillikka erishganidan so'ng taraqqiyot borasida mislsiz yutuqlarga erishdi.

Bizning Vatanimiz ham istiqlool yillarida katta imkoniyatlarga ega bo'ldi. Shu asosda jamiyat hayotini, birinchi navbatda, iqtiso-

diyotni isloh qilishga muhim ahamiyat berildi. Chunki har qanday yuksalishning asosi iqtisodiy taraqqiyot bilan belgilanadi.



Iqtisodiy taraqqiyot deganda, sanoat, qurilish, transport va qishloq xo'jaligining rivojlanishi, zamonaviy korxonalar, xizmat turlari, mulk shakllarining ko'payishi, tovarlarning sifati, aholi daromadining ortib borishi, mamlakatimiz hududidagi barcha yerosti va yerusti boyliklarining ona yurtimiz rivoji, xalqimiz farovonligi uchun xizmat qilishini tushunamiz.

O'zbekistonimizning istiqloq yillarida g'alla, yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat mustaqilligini qo'lga kiritgani, avtomobilsozlik sanoatiga ega bo'lgani, iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida ham salmoqli natijalarga erishgani mustaqillik Vatan ravnaqining eng muhim sharti va garovi ekanini yana bir bor isbotladi.

Bugungi kunda yurtimizda barpo etilgan ko'plab zamonaviy litsey va kollejlari, umumta'lim maktablari, san'at va sport maskanlarida har tomonlama chuqur ta'lim va tarbiya berilayotgani, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasiga, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga katta e'tibor qaratilayotgani kelajakda yurtimiz taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Vatanni ravnaq toptirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: mamlakat mustaqilligi va tinchligi; davlatning yerosti va yerusti boyliklaridan samarali foydalanish; jamiyatning moddiy va intellektual salohiyati; mehnatkash va bunyodkor xalq.

Bizning mamlakatimizda ana shu shartlarning hammasiga to'liq javob beradigan imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun Vatanimiz taraqqiyoti o'z qo'limizda. Barchamiz fidoyi, Vatanimiz davatiga doimo tayyor turadigan munosib farzandlar bo'lsak, uning taraqqiyoti yanada yuksak, obro'-e'tibori baland bo'lishi shubhasiz.



Savol va topshiriqlar:

1. Har kim ona Vatani timsolida nimani ko‘radi va anglaydi?
2. Vatan ravnaqi deganda nimani tushunamiz?
3. Vatan ravnaqi nima uchun, avvalo, uning farzandlariga bog‘liq?
4. Yaponiya va Janubiy Koreya singari mamlakatlar qanday qilib eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egalladi?
5. Siz Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga, «Nihol» mukofotiga, «O‘zbekiston iftixori» unvoniga sazovor bo‘lgan yurtimiz yoshlaridan kimlarni bilasiz?
6. Vatan haqida qanday maqol va she‘rlar yodlagansiz?
7. Vatan ravnaqiga erishishning eng muhim sharti nima?
8. Ushbu rasmlarda Vatan ravnaqiga asos bo‘ladigan qanday boylik va imkoniyatlar tasvirlangan?

A)



C)



B)



D)



XALQ FAROVONLIGI

Aziz o'quvchi, siz o'tgan darslarimizdan tushunib, anglab yetgan bo'lsangiz kerak, milliy g'oyamizning asosiy tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning birini ikkinchisidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, yurt tinchligisiz Vatan ravnaqi bo'lmaydi. Xalq farovonligiga esa yurt tinchligi va Vatan ravnaqi ta'minlangandagina erishish mumkin.

Xalq – millati, tili va dinidan qat'i nazar, mamlakat hududida yashayotgan barcha insonlardan iborat. Demak, xalq farovonligi g'oyasi ushbu mamlakat hududida amalga oshirilayotgan barcha ishlar, yurt tinchligi va Vatan ravnaqiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlar pirovard natijada odamlarning yashash sharoitini yaxshilashga qaratilganini anglatadi.



Xalq farovonligi deb, odamlarning munosib turmush sharoiti, iqtisodiy jihatdan o'ziga to'q bo'lib yashashi, eng zarur moddiy ehtiyojlarning to'liq qondirilishini ta'minlaydigan ijtimoiy hayot darajasiga aytiladi.



Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «bu dunyoda har bir odam to'q va badavlat hayot kechirish, el-yurt uchun munosib farzand tarbiyalash, ularga bilim berish, uyli-joyli qilish, ularning baxt-u kamolini ko'rish orzusi bilan yashaydi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning pirovard maqsadi – odamlarimizning ana shunday orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, xalqimizga har tomonlama munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iborat»¹.

Haqiqatan ham, hayotda hamma narsa, jumladan, islohotlar ham, inson uchun xizmat qilgandagina ma'no-mazmun kasb

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 74-bet.

etadi, kutilgan natijani beradi. O‘z kelajagini o‘ylagan har qanday davlat avvalo fuqarolarining tinch-osoyshta, farovon yashashini ta‘minlashga intiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning aynan shu maqsadga qaratilishida Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida ilgari surilgan «Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun» degan qoida, taraqqiyotning o‘zbek modeliga asos bo‘lgan mashhur besh tamoyil muhim ahamiyat kasb etmoqda.



«Taraqqiyotning o‘zbek modeli» deganda, O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish yo‘lini tushunamiz.

Albatta, xalq farovonligiga erishishda faqat davlatning sa‘y-harakatlari kifoya qilmaydi. Buning uchun har qaysi inson o‘zining bunyodkorlik salohiyatini ishga solishi, islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi, ularni amalga oshirishda faol ishtirok etishi lozim. Ayniqsa, odamlarning dunyoqarashi, hayotga, mehnatga, yerga munosabatining tubdan o‘zgarishi xalq farovonligini ta‘minlashda beqiyos rol o‘ynaydi. Chunki farovon turmushga intilish insondagi tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usini, har bir yurtdoshimizning o‘z hayotini o‘z kuchi bilan barpo etishga qaratilgan harakatlarini yanada kuchaytiradi. Shuning uchun ham odamlarda mulkka egalik, o‘z ishiga muhabbat va mas‘uliyat hissini, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni oshirish, yoshlarda bolalikdan boshlab mehnat ko‘nikmalarini shakllantirib, ularni zamonaviy bilim va kasb-



hunarlarini puxta egallagan insonlar qilib voyaga yetkazish xalq farovonligiga erishish yo‘lidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz imkon qadar ko‘proq kasb-hunarlarini egallashga harakat qilishgan, farzandlarini ham shunga da‘vat etishgan. Xalqimizning «Bir yigitga qirq hunar oz», «Hunari bor kishining tashvishi oz ishining», «Ish bilganga ming tanga», «Hunar – hunardan

unar» kabi maqol va hikmatli soʻzlari ajdodlarimizning hunari bor, qoʻli gul, mehnatdan qochmaydigan insonlarni qanchalik qadrlaganlarini koʻrsatadi. Bu maqollar hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Bugun biz ota-bobolarimiz asrlar davomida ulugʻlab kelgan anʻanaviy kasb-hunarlar bilan birga, zamonaviy texnik va texnologik taraqqiyot bilan bogʻliq kasblarni ham puxta egallashimiz zarur. Xususan, hozirgi paytda farovonlikka erishish kompyuter texnikasi, murakkab texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish sohalari, biznes va tadbirkorlik kabi turli kasblarni egallash bilan ham bevosita bogʻliq. Bu esa bizdan tinimsiz oʻqib-oʻrganish, bilim va malakamizni oshirib borish, xorijiy tillarni puxta egallashni talab qiladi.



Oʻzbekistonning yerosti, yerusti boyliklari koʻp, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati ulkan, xalqimiz mehnatkash va bunyodkor. Bularning barchasi farovon hayot negizi, har bir yurtdoshimiz ehtiyojini qondirish, oʻzligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini roʻyobga chiqarishining asosiy zaminidir.

Bugun xalqimiz ana shunday poydevor asosida farovon turmush barpo etish yoʻlida astoydil mehnat qilmoqda.



Xalqning farovonligi – davlatning qudratidan, uning yuksak taraqqiyot darajasidan dalolat.

Faqat rivojlangan, taraqqiy topgan davlatgina xalqining farovonligi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bera oladi.

Shuning uchun ham dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish xalqimizning asosiy maqsadlaridan biridir.

Aziz oʻquvchi, mana, siz milliy gʻoyamiz tarkibidagi uchta buyuk orzu-intilish haqida, ularning maʼno-mazmuni va ahamiyati xususida maʼlumotga ega boʻldingiz. Shuni yodda tutingki, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi va biz keyingi darslarda oʻtadigan boshqa juda muhim tushuncha va tamoyillar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga, koʻzlagan marralarimizga tezroq yetishga xizmat qiladi.



Savol va topshiriqlar:

1. Xalq farovonligiga qanday sharoitda erishish mumkin?
2. Xalq farovonligi g'oyasi deb nimaga aytiladi?
3. «Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun» degan qoida kim tomonidan aytilgan? Uning ma'nosini tushuntirishga harakat qiling.
4. Bozorlarimizdagi to'kinchilikning sababi nimada deb o'ylaysiz?
5. «Bir yigitga qirq hunar oz» degan maqolning ma'nosini siz qanday tushunasiz?
6. Ushbu rasmlarda aks ettirilgan kishilar xalq farovonligiga qanday hissa qo'shayotgani to'g'risida so'zlab bering.

A)



B)



C)



D)



E)





OBODLIK KO'NGILDAN BOSHLANADI

(Amaliy mashg'ulot)

Aziz o'quvchi, Prezidentimiz Islom Karimov o'zining nutq va ma'ruzalari, jamoatchilik vakillari bilan bo'lgan suhbatlarida alohida ta'kidlab aytadigan «Obodlik ko'ngildan boshlanadi» degan hikmatli iboraning ma'nosi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Yurtimizda obod joylar ko'p. Ular mohir muhandis va me'morlar, qo'li gul ustalar, bog'bon-u sohibkor insonlar, butun xalqimiz mehnatining natijasidir. Biz ana shu obod maskanlarni bunyod etish fikri, avvalo, kimning ko'nglida paydo bo'lgani haqida ko'pincha o'ylab ko'rmaymiz. Holbuki, pok niyat, yaxshi orzu-o'y va rejalar hamisha ko'ngildan boshlanadi. Ayniqsa, bizning xalqimiz doimo yaxshilikni o'ylab yashaydi. Odamlarimiz tarixning eng qiyin pallalarida ham oila qursam, el-yurt xizmatiga yaraydigan, kuchli, aqlli va pahlavon farzandlar o'stirsam, uy barpo etib, daraxtlar ekib, avlodlarimga meros qilib qoldirsam, degan ezgu tilaklarni ko'ngliga tugadi. Vatanimizning bosh maydoni bo'lgan Mustaqillik maydonidagi Ezgulik arkasi, Mustaqillik va ezgulik monumenti kabi zamonaviy me'moriy obidalar xalqimizning ana shunday ulug' fazilatlarini sharafiga barpo etilgan.

Mamlakatimizning qaysi burchagiga bormang, u yerda albatta obodlik ramzi bo'lgan yangi maktab, litsey yoki kollej binosini, so'lim bog' yoki xiyobonni, yam-yashil dalalarni, shinam uy-joylarni ko'rishingiz mumkin. Ularning barchasi xalqimizning fidokorona mehnati tufayli shunday ko'zni quvontiradigan darajaga yetgan. Ayni paytda ular ming-minglab oddiy, kamtarin va mehnatkash insonlarning samimiy qalbi, bahor tongidek tiniq o'y-xayollari, beg'ubor orzulari mahsulidir.

O'zingiz o'ylab ko'ring, agar insonning ko'ngli toza, niyati xolis bo'lmasa, katta va ulug' ishlarni vijdonan, sidqidildan amalga oshira oladimi? Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz,

Termiz, Qarshi va Marg'ilon kabi shaharlarimizda asrlar sino-vidan o'tib, hanuzgacha dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan qadimiy binolarimizga e'tibor bering. Ana shu o'lmas obidalarni barpo etgan me'mor va ustalarning ko'ngli ham, qo'li ham pok bo'lmaganida, bu ulkan inshootlarning loaqal bitta g'ishti noto'g'ri qo'yilganida bormi, ular shamol-u yomg'irlar, qor-u qirovlar, jazirama va izg'irinli kunlar ta'siriga dosh berolmasdan, allaqachon nurab, to'kilib, yo'q bo'lib ketgan bo'lardi.

Xuddi shu kabi, bugungi kunda ham dalalarda fermer va dehqonlarimiz, qurilish maydonlarida me'mor-u ustalarimiz, ishlab chiqarish korxonalarida muhandis-u ishchilarimiz, maktablar, litseylar, kollej va oliy o'quv yurtlarida muhtaram ustozlarimiz, shifo maskanlarida tibbiyot xodimlari o'z ishini sidqidildan, ya'ni chin ko'ngildan bajarmasa, 1991-yildan buyon o'tgan vaqt mobaynida, ko'hna tarix uchun juda qisqa bir muddatda — mustaqillik davrida mamlakatimiz bu qadar ulkan yutuqlarga erishishi, hech shubhasiz, qiyin bo'lardi.

Siz o'zingiz yashayotgan qishloq yoki shaharda, tahsil olayotgan maktabda yurtimizdagi obodlikdan dalolat beradigan manzaralarni ko'p ko'rasiz. Deylik, maktabdan qaytishda daraxtzor xiyobonda, salqin shabada esib turgan, suv to'lib oqayotgan ariq yoki soy bo'yida dam olishingiz mumkin. Shu daraxtlarni ham kimdir ekkan, shu ariq yoki soyni ham kimlardir beg'araz mehnat qilib qazigan, qum-shag'allardan, xas-xashaklardan tozalagan, to'g'rimi? Sizningcha, ular qanday ko'ngilli insonlar?

Ular — ko'ngli pok va ulug' insonlar! Shunday emasmi? Shu tarzda maktabingizni, uning sinfxonalaridagi o'quv anjomlarini qurgan va yaratgan insonlar haqida, ularning qalbidagi orzu-umidlari to'g'risida hech o'ylab ko'rganmisiz?

O'zingiz taniydigan fermer, bog'bon, shifokor yoki o'qituvchining har kunlik mehnati uning qalb olamiga, ma'naviyatiga, orzu-o'ylariga qanchalik uyg'un ekani haqida fikrlab ko'ring. Shu haqda sinfdoshlaringizga, ota-onangizga hikoya qilib bering. Bu haqda doimo o'ylash hayotdagi ko'pgina murakkab masalalarni tushunishda ham qo'l keladi. Eng muhimi, siz bu dunyodagi barcha ezgu ishlarning manbayi inson qalbi ekaniga, uning ma'naviy imkoniyati, kuch-qudrati cheksizligiga, obodlik haqiqatan ham ko'ngildan boshlanishiga ishonch hosil qilasiz.

Amaliy mashg'ulot uchun adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2013-yil, 128–132-betlar.
2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 95–97-betlar.
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. –T.: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 123–124-betlar.
4. «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati». Xalqaro konferensiya materiallari. –T.: «O'zbekiston», 2014-yil.

NAZORAT ISHI

Topshiriq: *«Bizning buyuk g'oyamiz» mavzusida referat tayyorlang.*

Referatni tayyorlashda Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida bayon etilgan quyidagi fikrlarni asos qilib oling: **«Bizning eng ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorqin va erkin hayot sari olg'a yurish».**

Referatda quyidagi masalalarni yoritib berishga harakat qiling:

– bizning milliy g'oyamiz, uning tarkibidagi barcha tushuncha va tamoyillar mustaqilligimizni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirishga, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qilmog'i lozimligi, shundagina u o'z vazifasini bajargan bo'lishi;

– aynan istiqloq milliy g'oyamizni shakllantirish, o'zligimizni chuqur anglab, tom ma'noda ozod xalq, erkin millat bo'lib yashash imkonini bergani;

– mustaqilligimiz qancha mustahkam bo'lsa, milliy g'oyamizda o'z aksini topgan maqsadlarga shuncha tez yaqinlashib borishimiz, imkoniyatlarimiz yanada kengayishi;

– mustaqillikni mustahkamlashda siz kabi o'quvchi yoshlarning asosiy vazifasi nimadan iborat, kelgusida siz bu ezgu ishga qanday hissa qo'shmoqchisiz?

KOMIL INSON

Aziz o‘quvchi, siz bilan milliy g‘oyamizning asosiy tushunchalari haqida suhbatlashdik. Ana shu tushunchalar bilan birga komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillar milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismini tashkil etadi.



«Komil inson» iborasi kamol topgan, yetuk, mukammal degan ma’nolarni anglatadi.



Komil insonni tarbiyalash – umumbashariy g‘oya. Ya’ni, bu – jami odamzotga xos orzu. Dunyodagi barcha xalqlar, millatlar va insonlar farzandlarining yetuk, barkamol bo‘lishini orzu qiladi. Lekin bu maqsadni amalga oshirishda har bir xalq o‘zining milliy xususiyatlari, an’ana va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun ular o‘zlari eng yaxshi, mukammal deb bilgan insonlardek bo‘lishga intilishadi. Siz kitoblarda o‘qigan Alpomish, Barchinoy, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Kenja botir kabi qahramonlar xalqimiz tasavvurida ming yillar davomida komil insonni ko‘rish orzusi bilan yaratilgan badiiy obrazlardir. Ular xalqimizning o‘z farzandlarini mard, pahlavon, aqlli, bilimli, go‘zal va sog‘lom qilib tarbiyalash yo‘lidagi ezgu intilishlarini ifoda etadi.

Tarixning muayyan davrlarida xalq taqdirida beqiyos o‘rin tutgan buyuk zotlar ham ezgulik ramziga, ibratli fazilatlar timsoliga aylanib qoladi. Masalan, Najmiddin Kubro, sulton Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, botirlik, davlatni adolat bilan boshqarish borasida; Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband singari aziz-avliyolarimiz din-u diyonat bobida; Muhammad Muso Xoraz-

miy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi mutafakkirlarimiz donishmandlik, ilm-maʼrifat, xalqning qalbini, inson falsafasini soʻz sanʼati vositasida ifoda etish boʻyicha barchamiz uchun komillik timsoliga aylanib ketgan. Bu ulugʻ ajdodlarimizning har biri haqida, ularning betakror fazilatlarini toʻgʻrisida koʻp gapirish mumkin. Agar siz Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» kitobining birinchi bobidagi «Maʼnaviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar» deb nomlangan boʻlimini oʻqisangiz, ana shu ajdodlarimiz haqida bildirilgan ajoyib fikrlarni uchratasiz. Jumladan, buyuk shoir bobomiz Alisher Navoiy haqidagi mana bu taʼriflarni komil inson haqidagi madhiya desak, arziydi:



«Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir»¹.

Haqiqiy komil insongina shunday ulugʻ fazilatlarini oʻzida mujassam etishi mumkin. Oʻz elining faxr-u gʻururiga aylangan bunday insonlar dunyodagi boshqa xalqlar orasidan ham koʻplab yetishib chiqqan. Bu butun insoniyatning ezgulik va barkamollik yoʻlidagi intilishlari oʻzaro uygʻun va mushtarak ekanini koʻrsatadi.

Shu maʼnoda, komillik gʻoyasi asrlar davomida nafaqat alohida shaxslar, balki xalq va millatlarni oliyjanob maqsadlar sari daʼvat etgan, hayotning turli sohalarida ulkan yutuqlarga ilhomlantirgan.



Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qaygʻurmagan xalq yoki millat oʻz kelajagini tasavvur etolmaydi.

Har bir inson uchun oʻz ota-onasi, ustozlari, xalqi, oʻz mamlakatining rahbari komillik timsoli hisoblanadi. Shuning uchun bizning har birimiz oʻz ota-onamizni, ustozlarimizni, xalqimizni va mana shu xalqimiz saylagan Prezidentimizni dunyodagi eng aziz insonlar deb bilamiz, ular bilan faxrlanamiz.

Inson mukammal, kamchilik va nuqsonlardan butunlay xoli boʻlishi mumkinmi? Yoʻq, albatta. Inson borki, xato qiladi, ada-

¹ **Islom Karimov.** Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. —T.: «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2013-yil, 47-bet.



shadi. Xalqimizning «Beayb – Parvardigor» degan hikmatli so‘zi bejiz aytilmagan. Lekin kamchiligini tan olib, uni tuzatishga harakat qiladigan odam – mukammallikka intiladigan odamdir. Kamchiligini tan olmasdan, men shundoq ham yaxshiman, deb manmanlik qiladigan kishi esa o‘z nuqsonlarini yanada ko‘paytiradi.

Har bir inson yoshligidan poka orzu-umidlar bilan yashaydi, xalqiga, Vataniga foydasi tegadigan shaxs bo‘lib yetishishni o‘ylaydi. Bu ayni paytda uning ko‘nglida komil inson bo‘lish ishtiyoqi borligidan dalolat beradi. Demak, kimki oldinga qarab intilsa, yuksak orzular bilan yashasa, u tom ma’noda o‘shib-ulg‘ayib, mukammallashib, fazilati ortib boraveradi. Kimningki fazilati ortib, yaxshiligiga yaxshilik qo‘shilib borsa, u o‘zi ham sezmagan holda komillikka yaqinlashadi, mukammallashadi.

Aksincha, kimki hech narsani orzu qilmasa, o‘zi bilan mag‘rurlanib, boshqalarni tan olmasdan, bilimi, tajribasini oshirmasa, oldinga intilmasa, o‘shishdan, ulg‘ayishdan to‘xtaydi. Borgan sari qoloqlashib, zamondan orqada qolib ketaveradi. Fazilat o‘rniga nuqsonlari ortib boradi. Bu – uning nomukammalligini, ya’ni qusurli va nuqsonli odam ekanini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy bobomiz shuni nazarda tutib, bunday deganlar:

*Noqis uldirkim, o‘zin komil degay,
Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.*

Ya’ni, kim o‘zini komil, mukammal desa, aslida u nomukammal, nodondir. Kimki o‘z nuqsonlarini bilib, tan olib, ularni tuzatib borsa, komillikka erishadi.

Buyuklik oddiylikda bo‘lgani kabi, komillik ham, avvalo, insonning kamtarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibatlilik singari oddiy va kundalik fazilatlarida namoyon bo‘ladi.

Masalan, mehnat tufayli inson boshqalarga moddiy jihatdan qaram bo‘lmasdan, erkin va mustaqil yashash imkoniyatiga ega

bo'ladi. Bunday odamning qalbi, his-tuyg'ulari, ong-u tafakkuri ancha mukammal bo'ladi. U yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga o'zining mustaqil fikri asosida baho beradi. Hayotdan doimo zavqlanib yashaydi. Bularning barchasi esa komillikning muhim belgilaridir.

Ota-bobolarimiz «Mehnatning oshi halol», «Mehnatning tagi rohat» degan maqollarga amal qilib yashaganlar. Chunki mehnat insonni inson qiladigan, uni yuksaltiradigan bebaho ne'matdir. Mehnat tufayli odamzotga Olloh tomonidan ato etilgan til va tafakkur, tuyg'u va tushunchalar mukammallashib boradi. Mehnat asosida nafaqat odam, balki olam ham takomilga yetadi.



Inson barkamol bo'lishi uchun avvalo uning o'zi ham, xalqi ham, Vatani ham ozod va erkin bo'lishi lozim. Chunki, ozod va erkin insongina mustaqil harakat qila oladi, o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyatini to'liq yuzaga chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning komillik yo'lidagi intilishlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar tug'ildi. Bugungi kunda Vatanimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida qilinayotgan ko'pdan-ko'p ishlar aynan shundan dalolat beradi.

Avvalgi darslarimizdan bilib olganingizdek, biz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etmoqdamiz. Bunday jamiyatda davlatni boshqarish, mamlakat miqyosida qarorlar qabul qilish, tadbirlar o'tkazish ishlari oddiy odamlarning tashabbusi va intilishlari orqali amalga oshiriladi. Demak, bunday jamiyat fuqarolari har tomonlama yetuk bo'lmog'i zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida ahamiyat berilayotgani bizning erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi intilishlarimizga har tomonlama mos va uyg'undir. Chunki barkamol insonlar yashaydigan jamiyatdagina tinchlik-totuvlik, hamjihatlik, adolat va ma'rifat ustuvor bo'ladi.

Komillikka birdaniga erishib bo'lmaydi. Barkamol inson bo'lish uchun odam o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yib, bir umr shu yo'lda intilib yashashi lozim. U qilgan ishlari, oldida turgan burchi va vazifasini har kuni tahlil etib, ulardan zarur xulosalar



chiqarib, kamchiliklarini tuzatishga, yaxshi xususiyatlarini oshirishga harakat qilishi kerak. Bu jarayon bir kun ham to'xtamasligi zarur. Ya'ni, inson o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'ldan chekinmasligi lozim.



Aziz o'quvchi, bu qushlardan qaysi biri manzilga qarab intilmoqda? Ularning qaysi biri manzilga yetadi va nima uchun?

Ma'lumki, bolalik paytida kimdir uchuvchi bo'lgisi, kimdir olim bo'lib, kashfiyotlar qilgisi, yana kimdir san'atkorlikka intilib, yaxshi qo'shiqlar aytgisi keladi. Lekin orzu orzuligicha qolib ketmasligi lozim. Orzu maqsadga aylanishi darkor.



Orzu insonning xohish va istaklarini ifoda etadigan tasavvur, xayoliy narsa. Maqsad esa bajarilishi, amalga oshirilishi talab etiladigan niyatdir. Maqsad yo'lida tinimsiz o'qib-o'rganish, mehnat qilish, oldinga intilish zarur.



Odam muayyan kasbni egallashga intilar ekan, shu tariqa ko'nglidagi orzuni maqsadga aylantiradi. Bunday intilish orqali u faqat maqsadga yaqinlashibgina qolmasdan, shu yo'ldagi safarbarlik tufayli o'zini ham el-yurtga foydasi tegadigan inson tarzida tarbiyalab boradi. Bu jarayon to'xtamasa, uzluksiz davom etsa, inson bir kun kelib o'z sohasining eng mohir ustasiga aylanadi. Uning kasb mahorati va iste'dodiga hamma tan beradi, mehnatidan ko'pchilikka foyda yetadi. Shuning o'zi, ya'ni biror-bir kasb-hunar yoki ilm sohasining ustasi bo'lish ham komillikning belgisidir. Ilmi va mehnati, noyob iste'dodi bilan el-yurtga xizmat qilgan insonlarni ulug'lab, ular bilan faxrlanishimizning boisi ham shundan.

Har bir insonning qalbida komillik tuygʻusi boʻladi. Masalan, bola ham oʻyinchoqlar orasidan eng chiroyli va mukammalini olib oʻynagisi keladi. Odamzot ana shu tuygʻuni bir umr tarbiyalab, yuksaltirib borishi lozim. Bunda, albatta, u yashaydigan muhit, yon-atrofidagi odamlar alohida oʻrin tutadi. Komillik tuygʻusi goʻzallik, ezgulik, adolat, insof, diyonat, haqiqat tuygʻulari bilan yonma-yon yuradi, ular bilan birga, bir butun holda rivojlanadi.

Komil inson gʻoyasi islom falsafasidan oziqlanib, xalqimiz tafakkurida yanada kengroq maʼno-mazmun kasb etgan. Bu gʻoya Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi donishmand bobolarimiz asarlarida teran ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, komillik insonning azaliy orzusi boʻlib, uni amalga oshirish uchun muayyan ijtimoiy shart-sharoit zarur. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan soʻng biz shunday imkoniyatga ega boʻldik.



Savol va topshiriqlar:

1. Inson nima uchun chiroyli kiyinib, odobli boʻlib yurishga intiladi?
2. Siz yaxshi narsani yomon narsadan qanday farqlaysiz?
3. Oʻzingizning kamchiliklaringizni bilasizmi? Ularni tuzatishga harakat qilasizmi?
4. Doʻstlaringiz kamchiliklaringizni aytishsa, xafa boʻlmaysizmi?
5. Siz, avvalo, kimni komil inson deb hisoblaysiz?
6. Rasmlarga qarab, yetuklikka erishish yoʻllari haqida gapirib bering.



7. Bolalar nima uchun qoʻgʻirchoqning yaxshisini tanlashga intiladi?



IJTIMOYIY HAMKORLIK

E'tibor bergan bo'lsangiz, bizni o'rab turgan dunyo har jihatdan xilma-xil va rang-barang. Hamma joyning o'ziga xos tabiati va iqlimi bor. Xuddi shuningdek, odamlar va xalqlar ham rang-barang va xilma-xil. Jahonda har xil toifa, millat va elatga, til va dinga mansub odamlar yashaydi. Hatto bir millat yoki bir xalqqa tegishli odamlar ham dunyoqarashi, fe'l-atvori, insoniy xususiyatlari va manfaatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Bu haqiqatni Prezidentimiz quyidagi fikrlari bilan batafsil tushuntirib bergan:



«Ollahning o'zi inson zotini vujudga keltirar ekan, uni turli qiyofada, nafaqat yuz-ko'zi, balki fe'l-atvorini ham bir-biriga o'xshamaydigan qilib yaratgan. Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo'lsa, barmog'ining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil bo'lgan ikkita odamni topish, uchratish qiyin. Tabiiyki, bu insonlarning fikrlash va yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi»¹.

Bizning mamlakatimizda ham turli toifa, millat va elat, din vakillari istiqomat qiladi. Har bir toifa, har bir guruhning o'ziga xos maqsad-muddaosi, manfaatlari, umid-ishonchi bor. Shuningdek, ana shu turli odamlarni yagona bir mamlakat xalqi, yagona bir jamiyat a'zolari sifatida birlashtirib turadigan umummilliy maqsad-muddaolar, manfaatlar ham mavjud. Bu – millati, tili, dini va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, barcha o'zbekistonliklar uchun yagona Vatan bo'lgan muqaddas yurtimizning ravnaq topishi, tinchligi va osoyishtaligidir. Mamlakatimizning hamma fuqarolari ana shu oliy maqsad yo'lida qo'lni qo'lga berib, bahamjihat harakat qiladi, g'ov-to'siq va qiyinchiliklarni birgalikda yengib, erishgan yutuqlaridan birga-

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 23-bet.

likda quvonadi. Ijtimoiy hamkorlik g'oyasi ana shu birlikni kuchaytirishga, umumiy maqsad yo'lida yagona xalq bo'lib oldinga intilishga xizmat qiladi.



Ijtimoiy hamkorlik biron-bir ishni, vazifani ko'pchilik bo'lib bajarishni, ya'ni birgalikda harakat qilishni bildiradi.

Ijtimoiy hamkorlik g'oyasi yurtimizdagi har bir inson o'zini mamlakatimiz fuqarosi, uning hududida yashaydigan buyuk xalqning vakili deb his etishiga qaratilgani bilan o'ta muhimdir. Yurtdoshlarimizning o'zaro yelkadosh bo'lib, bir-birini qadrlashi, Vatanimiz manfaatlariga zid ishni o'z manfaatiga zid deb bilishi jamiyatimizdagi umummilliy birlikni yanada mustahkamlaydi.

Ijtimoiy hamkorlik har qanday jamiyat uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. Chunki shunday hamkorlik bo'lmasa, yurtda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hamjihatlik, totuvlik bo'lmaydi. Bunday qadriyatlar barqaror bo'lmagan mamlakat esa hech qachon taraqqiy etmaydi.

Ijtimoiy hamkorlikning ziddi – o'zaro ixtilof, qarama-qarshilik, nizo va adovatdir. Bunday salbiy holatlar hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi. Chunki ijtimoiy hamkorlik bo'lmagan joyda boshboshdoqlik, tartibsizlik, janjal-to'polon hukmronlik qiladi. Bir kun janjal chiqqan joydan esa, avvalgi darslarimizdan birida ta'kidlanganidek, qirq kun fayz-baraka ko'tariladi. Bunga tarixdan ham, bugungi kunimizdan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Sohibqiron Amir Temur vafotidan so'ng temuriy shahzodalar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik, ahillik bo'lmagani uchun ulkan saltanat turli xonliklarga bo'linib ketdi. Buning oqibatida yurtda tinchlik buzildi, parokandalik yuz berdi; o'zaro kurashlar avj olib, turmush izdan chiqdi.



«Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz»¹.

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 51-bet.



Demak, mustaqil va erkin hayotni asrashning eng muhim shartlaridan biri – jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini doimo qadrlab, mustahkamlab borishdan iborat.

Odamlar bilan hamkorlik qilib yashash kundalik hayotda har kuni kerak bo‘ladi. Masalan, siz ayrim fanlar bo‘yicha berilgan vazifalarni eng yaqin do‘stlaringiz bilan birgalikda tayyorlaysiz. Bu ham o‘ziga xos hamkorlikdir.

Kichik korxonaga ochildi, biznes bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadbirkor o‘zining mablag‘i yetarli bo‘lmasa nima qiladi? Davlatdan kredit, ya‘ni qarz oladi yoki o‘ziga o‘xshagan boshqa tadbirkor bilan birga o‘rtaga mablag‘ qo‘yib, ish olib boradi. Bu ham hamkorlikdir.



Dehqon bog‘ida mo‘l hosil yetishtirdi. Lekin bu hosilni qayta ishlab, undan sharbat va murabbolar tayyorlash uchun uning korxonasi yo‘q. Qani ayting-chi, bunday vaziyatda dehqon nima qiladi?

Turli toifa, millat va elat vakillari o‘rtasida birdamlik, hamjihatlikning yo‘qligi bois dunyoning ba‘zi o‘lkalarida notinchilik, urush va janjallar avj olmoqda, qanchadan qancha begunoh odamlar qurbon bo‘lib, aholining hayot darajasi keskin pasayib bormoqda.

Ijtimoiy hamkorlik mustahkamlangan joyda qanday yuksak rivojlanishga erishish mumkinligini Yaponiya jamiyati misolida ko‘rish mumkin. Bu mamlakat fuqarolari, tili, dini, millati va ijtimoiy mansubligidan qat‘i nazar, Yaponiyaning umumiy manfaatlarini yo‘lida birlashadi, o‘zlarini yagona xalq vakillari deb biladi. Jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi har qanday muammo birgalikda, hamkorlik asosida, mamlakat xalqining umumiy manfaatlarini foydasiga hal etiladi. Buni Ikkinchi jahon urushidan keyin yapon xalqining yanada birlashib, juda qoloq ahvolga tushib qolgan davlatni dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqqani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Jamiyatda ijtimoiy hamkorlik muhitini qaror toptirishda siyosiy yo‘lboshchilar alohida o‘rin tutadi. Ular fidoyilik va vatanparvarlik namunasini ko‘rsatib, turli qarashdagi guruh hamda toifalarni birlashtiradi, umumiy maqsadlar yo‘lida hamkorlik qilishga da‘vat etadi. O‘tgan asrning 90-yillarida Prezident Islom Karimov butun xalqni mustaqillik g‘oyasi atrofida birlashtirib, mustahkam ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratdi. Ana shu asosda yurtimiz istiqbolga erishdi.

Davlatimiz rahbarining «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobida bu haqda ko‘plab hayotiy misollar, tarixiy dalillar keltirilgan.

Qadimgi ertaklarimizda ham odamlar birlikka, hamkorlikka chaqirilgan. Siz o‘zbek xalq ertaklarida donishmand ota o‘z o‘g‘illariga bittadan cho‘p berib, qani sindiringlar, deganida, ular cho‘pni bemalol sindirganini yaxshi bilasiz. Lekin ota cho‘plarning hammasini jamlab, qani endi sindirib ko‘ringlarchi, deganini ham eslasangiz kerak. Cho‘plar jamlanganida ularni sindirish qiyin bo‘ladi. Nima uchun? Chunki kuchlar birlashganida ularni yengib bo‘lmaydi.



Sahroda saksovullar, turli o‘simlik va butalar nima uchun yakka holda emas, to‘p-to‘p bo‘lib, gavjum bo‘lib o‘sadi? Ular bunday sharoitda shamol va bo‘ronlarga, suvsizlikka qanday bardosh bera oladi?

E’tibor berganmisiz, uzoq safarga otlangan qushlar guruh-guruh bo‘lib uchadi. Tog‘lardan, dengizlardan, cho‘l-u biyobonlardan o‘tayotganida ular bir-biriga madad bo‘ladi.

Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi ham xalqlarni, butun insoniyatni ana shunday birlashib, turli xavf-xatarlarni yengishga, yaxshilik sari intilishga undaydi.

Xalqimiz azaldan ahillik va inoqlikni, ya’ni bugungi til bilan aytganda, ijtimoiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlab keladi. Otabobolarimiz ijtimoiy hamkorlikning asosini oiladan boshlashga muhim ahamiyat berganlar. Milliy qadriyatlarimizda ham o‘zaro hamjihatlik ulug‘lanadi. Ko‘pchilik ishtirokida o‘tadigan to‘yma’rakalar, hasharlar, mahallachilik, qo‘ni-qo‘shnichilik an’analari ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Ayni paytda Konstitutsiyamiz, qonunlarimiz, davlat va nodavlat tashkilotlari, o'zini-o'zi boshqarish idoralari, ta'lim-tarbiya, madaniyat muassasalari, turli tadbir va anjumanlar ham ijtimoiy hamkorlikni qaror toptirishda katta o'rin tutadi.



Savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy hamkorlik g'oyasi qanday ezgu maqsadga xizmat qiladi?
2. «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar» maqolining ma'nosini sharhlashga harakat qiling. Shu mazmundagi yana qanday maqollarni bilasiz?
3. Bugungi kunda ijtimoiy hamkorlik asosida taraqqiy etgan davlatlardan qaysilarini bilasiz?
4. Xalqimiz o'zaro ahillik, inoqlik va hamkorlikni qanday qadrlashini misollar asosida tushuntiring.
5. Siz uyda, maktabda kimlar bilan, qaysi ishlarni bajarishda hamkorlik qilasiz?
6. Ijtimoiy hamkorlik har qanday jamiyat hayoti uchun hayotiy zarurat ekanini misollar bilan tushuntiring.
7. Ushbu rasmlarga qarab, birlik va hamjihatlikning ahamiyati haqida gapiring.



MILLATLARARO HAMJIHATLIK

Aziz o‘quvchi, bizning Vatanimiz – O‘zbekistonimiz ko‘pmillatli davlat. Yurtimizda o‘zbeklar bilan birga yuzdan ziyod millat va elat vakillari ahil va inoq yashaydi.



Millatlararo hamjihatlik – umumbashariy qadriyat. U bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillarining ahilligini mustahkamlaydi, tinchlik va barqarorlikning, taraqqiyotning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Bu dunyodagi har bir millat – Yaratganning buyuk mo‘jizasi. Chunki har bir millat jami odamzotga xos o‘ta noyob fazilatlarini o‘z tili, an’ana va qadriyatlari, betakror turmush tarzi orqali go‘zal bir shaklda namoyon etadi. Bir millat vakili boshqa millatning hayoti, turmush tarzi bilan tanishar ekan, o‘zi uchun yangi bilim va xulosalar oladi, tajriba orttiradi.



Millat va elatlarning ko‘pligi va xilma-xilligi insonga o‘zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushunib yetish imkonini beradi.

Ma’lumki, barcha insonlarning qadimiy ildizlari umumiy va mushtarak. Jahondagi turli millatlarning tili, turmush tarzi va urf-odatlari bir-biridan farq qilsa-da, ularning orzu-intilishlari, moddiy va ma’naviy ehtiyojlari, hayot falsafasi bir-biriga yaqin. Barcha millat vakillari ozod va erkin yashashni, oila qurib, farzand o‘stirib, o‘zidan munosib zurriyod qoldirishni, kuy-qo‘shiqlar kuylab, hayotdan zavqlanishni, baxtli bo‘lishni istaydi. Shu bilan birga ezgulikni qadrlab, yovuzlikni qoralaydi.

Tarixiy misollar ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Masalan, o'tgan asrda fashizm dunyo xalqlari hayotiga xavf solganida butun insoniyat unga qarshi kurashga o'tlangan edi.

2011-yilning mart oyida Yaponiyada qattiq zilzila oqibatida shahar va qishloqlar vayron, ming-minglab odamlar qurbon bo'lib, bu yurt og'ir ahvolga tushib qolganida jahondagi barcha davlat va millat vakillari bu fojiali kunlarda yapon xalqi bilan birdam bo'lib, undan beg'araz yordamini ayamadi.

Bizning milliy g'oyamiz xalqimizning orzu-intilishlarini haqqoniy aks ettirgani uchun har qanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarga nisbatan mensimaslikdan mutlaqo xoli. Xalqimiz azaldan do'stlik, birodarlik g'oyalarini ulug'lab, boshqa millat vakillari bilan tinchlik, hamkorlik, hamjihatlik, mehr-oqibat asosida yashaydi.

El-yurtimiz yon-atrofdagi, dunyoning olis mintaqalaridagi xalqlar bilan ham qadim-qadimdan hamkorlikka intilib kelgan. Sohobqiron Amir Temur bobomizning Fransiya qiroli bilan maktub orqali fikr almashgani, Yevropaning boshqa mamlakatlari, jumladan, Angliya qiroli Genrix IV, Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamaralar bilan diplomatik aloqalar o'rnatgani buning yaqqol dalilidir.

Millatlararo hamjihatlik g'oyasi xalqimizning ezgu insoniy fazilatlarini ifoda etadi va kelajakda bu an'analarni yanada boyitish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Mustaqillik yillarida O'z-



bekiston dunyodagi barcha xalqlar va mamlakatlar bilan do'stona hamkorlik aloqalarini o'rnatib, ularni doimo mustahkamlab kelayotgani millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz jahondagi turli davlatlar bilan uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik shartnomalari asosida o'zaro manfaatli do'stona munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda.

Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illat, bu – millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g‘oyalar ta‘siriga tushgan jamiyat halokatga uchraydi. XX asrda dunyoning ko‘plab xalqlarini asoratga solishga intilgan fashizm g‘oyasi bunga misol bo‘la oladi.



Millatchilik bir millatni ulug‘lab, boshqa millatlarni kamsitish, millat ajratishni bildiradi.

Shovinizm – millatchilikning bir turi bo‘lib, boshqa millatlarni mensimaslik, o‘zini ularga nisbatan ustun qo‘yishga intilish.

«Fashizm» italyanacha so‘z bo‘lib, to‘da, bog‘lam degan ma‘nolarni anglatadi hamda ommaviy qirg‘in va zo‘ravonlik bilan siyosat olib boradigan yovuz kuchlarga aytiladi.

Hozirgi kunda ham turli g‘oyaviy va mafkuraviy yo‘llar bilan biron-bir xalq yoki millatga xos urf-odat, an‘ana hamda qadriyatlarni kamsitish, yo‘q qilishga qaratilgan tahdidlar sezilib turibdi. Bunday tajovuzlar ta‘siriga tushmaslik uchun doimo hushyor va ogoh bo‘lish, ilm-ma‘rifatga tayanib yashash talab qilinadi. Bu haqda fikr yuritganda, Yurtboshimizning quyidagi mulohazalarini doimo esda tutishimiz lozim:



«Agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta‘siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin. Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma‘naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta‘siriga bardosh berishi amrimahol»¹.

Shunday qilib, muayyan mamlakatga nom bergan millat bilan unda yashaydigan boshqa el-u elat vakillari o‘rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir.

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 113-bet.



Savol va topshiriqlar:

1. Ona Vatanimiz – O‘zbekiston qanday davlat?
2. «Bu aziz Vatan – barchamizniki» g‘oyasining ma’nosini tushuntirishga harakat qiling.
3. Millatlararo hamjihatlik g‘oyasi nega umumbashariy qadriyat hisoblanadi?
4. Nima uchun har bir millatni Yaratganning buyuk mo‘jizasi, deymiz?
5. Dunyodagi barcha odamlar umumiy ildizga ega, deganda nimani tushunasiz?
6. Xalqimizga xos do‘stlik, birodarlik fazilatlarini haqida tarixiy misollar asosida gapirib bering.
7. Dunyoda millatlararo hamjihatlikka raxna soladigan illatlar mavjudligi to‘g‘risida so‘zlang.
8. Rasmlarda aks ettirilgan holatlar millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qanday xizmat qilishi haqida gapirib bering.

A)



C)



B)



D)



DINLARARO BAG'RIKENGLIK

Inson hayotida boshqa qadriyatlar qatori din va diniy an'analar ham muhim o'rin tutadi. Din qadim-qadimdan insoniyat uchun zarur bo'lgan halollik, poklik, insof-u diyonat kabi tushunchalarni o'zida aks ettirib, odamlarni o'zaro do'st va inoq, mehr-oqibatli bo'lib yashashga undab keladi. Ko'pgina milliy qadriyatlarning zavol topmasdan yashab kelayotgani ham dinning ana shu xususiyatlari bilan bog'liq.



«Din» arabcha so'z bo'lib, ishonch degan ma'noni bildiradi. Din – ilohiy kuchlarga ishonch asosida shakllangan tushuncha, tasavvur va qoidalar tizimidir.



Prezidentimiz dinning ma'no-mazmunini quyidagicha ta'riflab bergan: **«Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir»¹.**

Dunyodagi barcha dinlar ezgulik g'oyalariga asoslanadi. Ular odamlarni to'g'rilik, shafqat va bag'rikenglikka, birovga ozor bermaslik, yomon ishlardan tiyilishga, nafs ko'yiga tushib, adashmaslikka chaqiradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasi hamma dinlarga xos ana shu umumiy tamoyillarni anglagan holda, ular o'rtasida hamkorlik o'rnatishga xizmat qiladi. Barcha din vakillarini, ular bajo keltiradigan diniy rasm-rusum va amallarni hurmat qilish, ularning kuch va imkoniyatlarini davlat, jamiyat, butun insoniyatning ezgu maqsadlariga xizmat qildirishda muhim o'rin tutadi.

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 36-bet.



Dinlararo bag'rikenglik deb, turli din vakillarining o'zaro hurmat asosida, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashiga aytiladi.

Bugungi kunda dinlararo bag'rikenglikka erishish uchun ular o'rtasida madaniy muloqot, amaliy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, keyingi asrda insoniyat boshiga tushgan xatarlar — yadro urushi xavfi, ekologik halokatlar, terrorchilik va diniy ekstremizm kabi ofat-balolar dinlarni ezgulik, barcha insonlar uchun yagona bo'lgan sayyoramizni saqlab qolish yo'lida birlashish va hamkorlik qilishga undamoqda.

Barcha dinlarning mohiyatini ezgulik, Yaratganga va uning qudratiga ishonch, mehr-shafqat kabi tushunchalar tashkil qilgani uchun aynan ana shu tushunchalar turli din vakillarini muloqotga, hamkorlikka da'vat etadigan umumiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Tinchlik va barqarorlikning muhim sharti bo'lgan dinlararo bag'rikenglik g'oyasi bugungi kunda nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini ham nazarda tutadi, hamjihatlikka erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bizning mamlakatimiz hududida qadim-qadimdan islom, nasroniylik (xristianlik), buddaviylik kabi dinlar o'zaro hamkorlikda yashab kelgan. Shuning uchun asrlar davomida yirik shaharlarimizda musulmonlar masjidi, nasroniylar cherkovi, buddaviylar ibodatxonasi yonma-yon faoliyat yuritgan. Chunki qadimda Buyuk ipak yo'li bizning yirik shaharlarimiz orqali



o'tgan. Shu bois turli din vakillari yurtimizga kelib, bu yerda muqim yashab qolganlar. Ularning o'z diniy e'tiqodiga erkin amal qilib, rasm-rusumlarini ado etishiga hech kim xalaqit bermagan. Yurtimizda tarixning eng murakkab davrlarida ham diniy asosdagi nizolar bo'lmagan. Qadimiy shaharlarimizdan topilgan osori atiqalar, ko'hna yodgorliklar buni yaqqol isbotlaydi.

Diniy bag'rikenglik borasidagi shunday an'analar bugungi kungacha davom etmoqda. Ularning barchasi el-yurtimiz dinlararo bag'rikenglik borasida boy tajribaga ega ekanidan dalolat beradi.

Xalqimiz o'zining bag'rikenglik fazilatlari bilan, qaysi millat yoki dinga mansubligidan qat'i nazar, insonning hurmatini joyiga qo'ygan, yordamga muhtoj turli xalq va millat vakillaridan mehrini ham, moddiy ne'matlarini ham ayamagan. Bunga tarixdan ko'p-



lab misollar keltirish mumkin. Ayniqsa, 1939-yildan boshlanib, 1945-yilgacha davom etgan Ikkinchi jahon urushi paytida xalqimizning yuksak insoniy fazilatlari yana bir bor sinovdan o'tadi. Sobiq SSSRning g'arbiy o'lkalaridagi butun-butun shahar va qishloqlar, mintaqalar urush olovi ichida qolib ketadi. U yerlarda yashayotgan tinch aholi vakillari – bolalar, ayollar, keksalar tezlik bilan urush alangasi yetib bormagan tinch o'lkalarga ko'chiriladi. Jumladan, bizning yurtimizga ham millionlab och-nahor, boshpanasiz, qarovsiz kishilar keltiriladi. Xalqimiz o'sha og'ir davrda topgan bor-yo'q boyligini frontga yuborib, qiyin ahvolda yashayotganiga qaramasdan, turli millat va din vakillaridan iborat ana shu odamlarni o'z bag'riga oladi. Ularga kiyim-kechak, boshpana beradi, o'z nonini ular bilan baham ko'radi. Bu haqiqiy insonparvarlik, bag'rikenglik va mehr-oqibat namunasi edi. Biz el-yurtimizning bunday fazilatlari bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Xalqimizning ana shunday oliyjanob fazilatlari davlatimiz madhiyasida ham alohida ta'kidlangan:

*Bag'rikeng o'zbekning o'chmas iymoni –
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot.
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod.*

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha diniy konfessiyalar faoliyati uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O‘zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunda belgilab berilgan. Yurtimizda o‘ndan ziyod konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar mavjud.

Mamlakatimizda turli millat va din vakillarining urf-odat hamda an‘analari rivoji uchun qulay sharoitlar yaratilgani, dinning asl mohiyatini tushunishga yordam beradigan bilim, ma‘rifat maskanlari, axborot manbalarining ko‘payib borayotgani ham dinlararo bag‘rikenglikning kuchayishiga asos bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi insoniyatning ma‘rifiy asosda, o‘zaro hamjihat bo‘lib taraqqiy etish zaruratidan kelib chiqqan bo‘lib, u ezgulik yo‘lidagi hamkorlik barcha din vakillarining manfaatlariga mos ekanini anglashga va shu asosda harakat qilishga da‘vat etadi.

Aziz o‘quvchi, mana, milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil etadigan muhim tushuncha va tamoyillar bilan ham qisqacha tanishdik. Shuni yodda tutingki, milliy g‘oyamizda mujassam bo‘lgan buyuk maqsadlarni ro‘yobga chiqarish avvalambor jamiyatimiz va shu jamiyat a‘zosi bo‘lgan har qaysi insonning ana shu maqsadlarni chuqur tushunib, ularni amalga oshirish yo‘lida sidqidildan mehnat qilishi, o‘qish va ishda faollik ko‘rsatib yashashiga bog‘liq. Shuning uchun milliy g‘oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillarini shunchaki bilish bilan kifoyalanib qolmasdan, ularni amalga oshirish uchun hissa qo‘shishga harakat qiling. Shunda siz, albatta, buyuk Vatanimizga munosib farzand bo‘lib voyaga yetasiz, ko‘zlagan ezgu maqsadlaringizga erishasiz.



Tolerantlik – bag‘rikenglik so‘zining ma‘nodoshi bo‘lib, chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfe‘llik degan mazmunda ishlatiladi.

Diniy konfessiya – muayyan dinga e‘tiqod qiluvchi kishilar jamoasi.



Savol va topshiriqlar:

1. Dinlar qadim zamonlardan buyon qanday g'oyalarni amalga oshirishga xizmat qilib kelmoqda?
2. Prezidentimizning din haqida aytgan fikrlari haqida gapirib bering.
3. Bugungi kunda dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
4. Mamlakatimiz hududida qadimdan hamkorlikda rivojlanib kelayotgan qanday dinlarni bilasiz?
5. Rasmlarga qarab, bag'rikenglik fazilatlari haqida gapirib bering.



JAMOA TUYG'USI

Avvalgi darslarimizda aytilganidek, milliy g'oyamiz, ma'naviyatimiz xalqimizning qalbi va ruhini, unga xos eng muhim xususiyatlarni ham aks ettiradi. Bu haqda gapirganda, el-yurtimizning qadim zamonlardan boshlab o'troq hayot kechirib, jamoaviylik asosida o'zaro ahillikda yashab kelganini qayd etishimiz lozim. Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida turmush tarzimizga singib ketgan shunday fazilatlar xususida atroflicha to'xtalib, xalqimiz ne-ne zamonlar osha bosib o'tgan murakkab va sharaflı yo'lnı anıq hayotıy lavhalar orqalı tasvırlab beradı.



«Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Masalan, Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz»¹.

Misol uchun, ona tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafaqat, qadr-qimmat degan, bir-birini boyitadigan iboralar ko'proq bizning xalqimiz uchun yaqin va tushunarli bo'lib, ularni boshqa tillarga tarjima qilishning o'zi qiyin. Chunki

¹Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 7–8-betlar.

bu tushunchalar el-yurtimizning hayoti, tarixi, milliy qadriyat va an'analari bilan birga shakllanib, uning turmush tarzi, dunyoqarashining ajralmas qismi bo'lib qolgan.

Albatta, bu tushunchalar quloqqa xush yoqishi uchun kimdir ataylab o'ylab topgan so'zlar emas. Ular asrlar mobaynida xalqimiz ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir.



«Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo'shning qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi»¹.

Biz yashab turgan hozirgi O'zbekiston, O'rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo'yida yashab kelgan. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiati, iqlimi juda murakkab, tez o'zgarib turadigan bu hududdagi sharoitning o'zi bu yerdagi millat va elatlarning ming yillar davomida bir-biriga yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etgan, ya'ni bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo'lib yashashga imkoni bo'lmagan. Tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni jamoa bo'lib istiqomat qilishini zaruratga aylantirgan. Bunday yashash tarzi tabiiy ravishda odamlarni bir-birining holidan xabardor bo'lib, dard-u quvonchlarini o'zaro baham ko'rib, to'yda ham, azada ham bu hayot yukini barobar tortishga o'rgatgan, insonlar qalbida jamoa fikriga hurmat ruhini kuchaytirgan.

Jamoaviylik belgilari bugungi kunga qadar hayotimizda katta o'rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida mahalla tashkilotining qayta tiklanib, unga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idorasi maqomi berilgani jamoaviylik bilan bog'liq

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 8–9-betlar.

an'ana va qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizning turmush tarzi-
mizdan yanada keng o'rin olishida alohida ahamiyat kasb etmoq-
da. Masalan, hashar, to'y-u tomoshalarni mahalla ahli bilan
bamaslahat o'tkazish, Navro'z bayrami kunlarida halim, sumalak
kabi bahor taomlarini tayyorlash, turli o'yin va tomoshalar
uyushtirish, ko'makka muhtoj, qarovchisiz kishilarning holidan
xabar olish, ularga beg'araz yordam ko'rsatish, kam ta'minlangan
oilalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning axloqiy-ma'naviy
tarbiyasiga, mahalladagi tozalik, obodonchilikka e'tibor berish
bilan bog'liq qadriyatlarimiz shular jumlasidandir. Masalan,
hashar haqiqiy jamoaviy mehnatning, jamoa irodasining yorqin
ko'rinishidir. Bu tadbir orqali ko'pchilikka birdek daxldor bo'lgan
ishlar amalga oshiriladi. Deylik, mahalla, qishloq yoki shahar
ko'chalarini tozalanadi, obod qilinadi, jamoat maskanlari – mahalla
guzari, choyxona, do'kon yoki oshxonalar tartibga keltiriladi.
Hashar yo'li bilan yordamga muhtoj insonlarning kam-u ko'sti
to'g'rilanadi, ularga moddiy va amaliy ko'mak beriladi.



**Jamoaviy hayot insonni yon-atrofdagi odamlarning
dard-u quvonchlariga e'tiborsiz bo'lmaslikka, boshqalar
uchun kuyinib, faqat o'zini emas, o'zgalarni ham o'ylab
yashashga o'rgatadi. Bu esa haqiqiy insonparvarlikdir.**



*Jamoaviylik va insonparvarlik o'zaro yaqin va mushtarak
tushunchalardir. Mehr-oqibat, or-nomus, boshqalarning
oldida o'zini tutish, shafqat, muruvvat, xayr-u saxovat,
hamdardlik, hamkorlik kabi inson uchun eng zarur va noyob
tuyg'u-tushunchalar aynan jamoaviy hayot asosida paydo
bo'ladi va rivojlanadi.*

Bizda jamoaviylik an'analari kuchli bo'lgani uchun biron-bir
ishga qo'l urishdan oldin ko'pchilikdan maslahat so'raladi. Ko'p-
chilik ma'qullagan ish albatta oxiriga yetkaziladi. Jamoaning hur-
matini qozongan inson obro'-e'tiborli inson hisoblanadi. Albatta,
bu darajaga yetish oson emas. Buning uchun halol mehnat qilish,
ko'pchilikning manfaati bilan shaxsiy manfaatni uyg'unlashtirib
yashash, boshqalarning ko'ngliga qarab ish qilish talab etiladi.

Inson tabiatan doimo kim bilandir muloqot qurib, fikr alma-
shib, hamkorlik qilib yashashga moyil. Ingliz yozuvchisi Daniyel
Defoning «Robinzon Kruzo» romani qahramoni kimsasiz orolga
tushib qolganida ko'nglini yoradigan, o'tirib dardlashadigan biror-

bir hamsuhbat yo‘qligidan qanchalik qiynalganini bir ko‘z oldingizga keltiring. Boyoqish, nima qilishini bilmasdan, hayvonlar, o‘simliklar bilan «suhbat qurgani» odamzot hayotida jamoaning o‘rni naqadar beqiyos ekanidan dalolat beradi.

O‘zaro hamfikir insonlarning ahil jamoa bo‘lib harakat qilishi kundalik hayotda ham, ishda, mehnatda ham katta yutuqlarga asos bo‘ladi. Agar e‘tibor bergan bo‘lsangiz, nufuzli sport musobaqalarida qaysi jamoa jips va hamjihat bo‘lsa, yagona maqsad yo‘lida bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, o‘sha jamoa g‘olib bo‘ladi. Bunda, hech shubhasiz, har bir odamning o‘ziga xos qobiliyat va iste‘dodi, jismoniy, ma‘naviy imkoniyatlari borligini ham hisobga olish lozim. Har bir odam o‘zining shaxsiy, individual xususiyatlarini, qiyofasini saqlab qolgan holda, ayni paytda jamoada o‘z o‘rnini topishi va o‘ziga munosib vazifani bajarishi kerak. Shundagina bunday jamoa eng kuchli jamoa bo‘ladi.



Individuallik faqat bir insonga xos xususiyat va belgilar ifodasi bo‘lib, inson uchun bu ham eng zarur fazilatdir. Lekin individuallik o‘ziga bino qo‘yish, o‘zini boshqalardan ustun deb bilish, faqat shaxsiy manfaatni o‘ylab yashashga aylanib ketadigan bo‘lsa, insonning o‘zi uchun ham, jamiyat uchun ham zararlidir.

Jamoaning noyob xususiyati shundaki, betakror, bir-biriga o‘xshamaydigan odamlarni ularni qiziqtiradigan, shaxsiy manfaatlariga daxldor bo‘lgan maqsadlar asosida birlashtiradi, insonni kamtar, halol, boshqalarga hamdard bo‘lishga o‘rgatadi. Bunda, ayniqsa, yetakchilarning o‘rni beqiyos bo‘ladi. Ular jamoaning birgalikda harakat qilishi, irodasini namoyon etishi, umumiy kayfiyati va intilishini belgilab beradi. Yetakchi qanchalik kuchli, azm-u shijoatli, qat‘iyatli va irodali bo‘lsa, jamoa ham shunchalik kuchli bo‘ladi.



O‘qiyotgan sinf va maktabingiz, oilangiz, mahallangiz siz uchun qadrdon jamoadir. Sizning dunyoqarashingiz, fazilatlaringiz aynan ana shu jamoalarda shakllanadi.

Sizning ota-onangiz xizmat qiladigan joy mehnat jamoasidir. Insonning bilim va tajribasi, malakasi ortishi, fazilatlariga fazilat qo‘shilishi, mehnat, ustoz-shogirdlik an‘analarining rivojlanishi,

halol daromad, rizq-nasiba topib yashashda mehnat jamoasi-ning o'zni beqiyosdir.

Chuqurroq o'ylab ko'rsak, barchamizni bag'rida avaylab ulg'aytirgan, non-u tuz, bilim-ma'rifat bergan ona Vatanimiz ham turli millat va elatga mansub insonlardan, har xil qarash va manfaatga ega bo'lgan odamlardan tashkil topgan ulkan jamoadir. Bu jamoaning yetakchisi O'zbekiston Prezidentidir. Yurt-boshimiz ana shu insonlarning orzu-intilishlariga to'la javob beradigan yuksak maqsadlarni belgilab, xalqimizni yangi jamiyat qurish yo'lidan qat'iyat bilan boshlab bormoqda. El-yurtimizning fidokorona mehnati, o'zaro hamjihat va yakdil jamoa bo'lib oldinga intilishi tufayli yurtimiz katta yutuq va natijalarga erishmoqda, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallamoqda. Bu, albatta, barchamizni quvontiradi, kelgusida ana shu xalqning munosib farzandi bo'lib, yurtimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilishga da'vat etadi.



Savol va topshiriqlar:

1. Xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Ona tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan iboralarni nima uchun boshqa tillarga tarjima qilish qiyin?
3. Ajdodlarimizni qadimdan jamoa bo'lib yashashga undagan qanday sabablar bo'lgan?
4. Mustaqillik yillarida jamoaviylikka xos qanday an'ana va qadriyatlarimiz tiklandi?
5. Jamoada yetakchining o'zni va ta'siri qanday?
6. Siz biron-bir jamoaga yetakchi bo'lib ko'rganmisiz?
7. Jamoadan ayri holda yashash mumkin emasligini hayotiy misollar orqali tushuntirib bering.
8. Quyidagi rasmlarda xalqimizga xos qanday fazilatlar aks ettirilgani to'g'risida hikoya qiling.

A)



B)



D)



INSONNI ANGLASH

Aziz o'quvchi, ma'naviyatni insondan, uning qalbi, ong-u tafakkuri va dunyoqarashidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov: «**Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak**»¹, – deb ta'kidlaydi.



Insonni anglash g'oyat muhim fazilat, madaniyat bo'lib, gumanizm, ya'ni insonparvarlikning asosini belgilab beradigan umumbashariy qadriyatdir.



Insonni anglash qadim-qadim zamonlardan buyon olim va faylasuflarni, shoirlar, rassom va bastakorlarni, turli kasb egalarini o'ylantirib kelayotgan g'oyat murakkab masala.

Dunyodagi qancha-qancha kitoblar, musiqa va tasviriy san'at asarlari aynan shu muammoga – insonni tushunish mavzusiga bag'ishlangan. Shunga qaramasdan, bugungi kunda ham inson haqida aniq va tugal bir ta'rif aytishga qiynalamiz. Chunki har bir inson – butun bir olam. Tabiat, jamiyat o'zgarishi bilan u ham o'zgaradi.



Insonni tushunish odamdan juda katta bilim va tajribani, eng muhimi, pokiza his-tuyg'ular, teran qalbni talab etadi.

Insonni hech qanday kuch yoki qurol bilan yengib, qalbini, ruhini zabt etib bo'lmaydi. Faqat qalbiga yo'l topish orqali u bilan do'st va hamkor bo'lish mumkin.

Insonni tushunishda u mansub bo'lgan xalq, yurt haqida, uning ajdodlari haqida bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 29-bet.

odamning fe'l-atvori, qalbi, his-tuyg'u va tushunchalari u tug'ilib voyaga yetgan o'lkada, xalqning mehridan, urf-odat va an'analaridan, ota-bobolarining merosidan oziqlangan holda shakllanadi. E'tibor berganmisiz, biron joyga mehmonga borsangiz, yangi tanishgan odamlaringiz sizga, avvalo: «Qani, mehmon, siz qayerdan bo'lasiz, ota-onangiz, ajdodlaringiz kim?» – degan savolni beradi. Siz haqingizda kerakli ma'lumotlarni bilib olgach, shunga qarab sizning ko'nglingizni topishga, suhbat qurishga harakat qilishadi.

Bugungi kunda axborot vositalari va texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi natijasida insonning xatti-harakatlari, ma'naviy dunyosini o'rganish, kuzatish imkoniyatlari ham tobora kuchayib bormoqda. Albatta, bularning barchasi insonni tushunish borasida ko'plab qulayliklarni vujudga keltirmoqda. Chunki insonlar, xalqlar o'rtasida samimiy muloqotlar qancha ko'paysa, ularning bir-birini tushunishi shuncha oson bo'ladi. Shuningdek, dunyodagi xalqlarni tushunish, ular bilan ruhan yaqin bo'lishda ularning badiiy adabiyoti, teatr, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki ular har qaysi xalqning qalbi va ruhini ifoda etadi.

Siz mamlakatimizda ko'plab san'at va madaniyat anjumanlari o'tkazilishi haqida eshitgansiz, albatta. Xususan, Yer yuzining sayqali degan e'tirofqa sazovor bo'lgan qadimiy shahar – Samarqandda har ikki yilda bir marta «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali bo'lib o'tishidan xabardorsiz. Bu san'at anjumanida dunyoning turli mamlakatlaridan musiqa san'ati namoyandalari ishtirok etadi. Ular o'z yurtining musiqasi bilan birga xalqining qalbini ham Samarqandga olib kelgandek bo'ladi go'yo. Ular mahorat bilan ijro etgan kuylarni tinglab, biz jahondagi har bir xalq va millatning go'zal ma'naviy dunyosi, ruhiy intilishlari, pokiza his-tuyg'ulariga oshno bo'lamiz. Hech qanday tarjimonsiz o'sha xalqlarning ichki olamini tushunamiz, orzu-intilishlari, hayot tarzini tasavvur qilamiz.

Ayni paytda bir haqiqatni unutmasligimiz lozim: hayot murakkab, shunday vaziyatlar bo'ladiki, ba'zan bir umr hamsuhbat bo'lib, yonma-yon yurgan qadrdon do'stingizni ham tushunish qiyin bo'lib qoladi. Bunday paytda hissiyotlarga berilmasdan, og'ir-vazminlik, aql-zakovat bilan ish tutish, o'zingizni do'stingizning o'rniga qo'yib ko'rib, chuqur mulohaza yuritish o'rinli

bo'ladi. Ba'zan ming ta'na-yu dashnom, achchiq so'z, gina-yu arazdan ko'ra, bir og'iz shirin so'z, samimiy hazil-mutoyiba, chin dildan mehr ko'rsatish odamga ko'proq ijobiy ta'sir etishi va ming urinishlar bilan ochilmagan ko'ngil qulfi shu tariqa ochilib ketishi mumkin.

Birovning qalbini tushunish qanchalik qiyin bo'lsa, insonning o'zini anglashi undan ham murakkabdir. O'ylab ko'rganmisiz,

odamzot nima uchun hayoti davomida yangilikka intilib, bilim olishga, tajriba o'rganishga, o'zgalar bilan muloqot qilib yashashga intiladi? Chunki unda avvalo o'zining kimligini anglab yetishga bo'lgan qiziqish kuchli. Qancha ko'p bilim va tasavvurga ega bo'lsa, qancha ko'p odam ko'rsa, tanisa, o'zini ular bilan solishtirish, taqqoslash va o'zi haqida xulosa chiqarish imkoniyati ham shuncha ortadi. Shuning uchun inson bir umr o'zini anglashga harakat qiladi. «Bu dunyoga kelib, to'g'ri yashadimmi, vaqtimni befoyda ishlarga sovrmadimmi, ota-onamning, xalqimning bergan tuz-nasibasini oqladimmi?» degan savollar ertami-kechmi har bir odamning qalbida paydo bo'lishi mumkin.

Kishi o'zini teranroq anglab yetishi uchun doimo hushyor va ogoh bo'lib yashashi, o'qishdan, o'rganishdan, izlanishdan bir zum ham to'xtamasligi lozim. Qilgan ishlari, xato va kamchiliklarini har kuni tanqidiy baholab, sarhisob qilib borishi zarur. Muqaddas hadislarda «Beshikdan qabrgacha ilm izlang», deb bejiz zikr etilmagan. Inson bu dunyoga o'qish-o'rganish, olam sirlaridan xabardor bo'lish, o'zligini anglash uchun keladi. O'zini anglagan inson ona xalqi, Vatani, butun bashariyat oldidagi burchini, o'zining insonlik vazifasini ham to'g'ri tushunadi.

Aziz o'quvchi, siz doimo yon-atrofigizdagi insonlarni to'g'ri tushunishga harakat qiling. Tanishmi, notanishmi, bundan qat'i nazar, hech kimdan salomingizni, samimiy so'zingiz va mehringizni ayamang. Hech qachon unutmangki, shirin so'zingiz, yaxshi xulqingiz bilan tengsiz boylik bo'lgan inson qalbiga yo'l topasiz.





Siz tushungan inson – eng yaqin do‘stingiz. Siz tushunmagan inson – hali siz yetib bormagan, kashf etmagan dunyodir.



Bu jahonda o‘zini, o‘zgalarni anglashga harakat qilib yashaydigan odam o‘z ma’naviyatini doimo boyitib, yuksaltirib boradigan insondir.

E’tibor berganmisiz, ota-onangizning ko‘nglidagi istagini ular aytmasidanoq fahmlab, vaqtida choy damlab bersangiz, tuflisi, kiyim-boshini tozalab qo‘ysangiz, ular qanchalik xursand bo‘lishadi. Shu ma’noda, insonni anglash odamlar, eng avvalo, yaqin qadrdonlaringiz, el-u yurtigingiz xizmatiga shay bo‘lish, zarur paytlarda ularning dardiga darmon bo‘lish uchun kerak.



Savol va topshiriqlar:

1. «Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak» degan so‘zlar qaysi kitobda va kim tomonidan aytilgan?
2. Insonni tushunish odamdan nimalarni talab etadi?
3. Insonning qalbiga qanday yo‘l topish mumkin?
4. Qo‘l telefoni, internet, kompyuter kabi axborot vositalari insonni tushunishga yordam beradimi?
5. Siz qaysi kuy yoki qo‘shiqlarni yaxshi ko‘rasiz?
6. Ushbu rasmlar orasidan «Sharq taronalari» festivali tasvirini toping va bu festivalning insonni anglash borasidagi ahamiyatini ayting.


A)



C)



B)



D)



QONUN USTUVORLIGI

Aziz o'quvchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, yurtimizni yuksak taraqqiyotga erishtirishga qaratilgan islohotlarning besh tamoyili to'g'risida eshitgansiz, albatta. Hozirgi kunda butun dunyoda «taraqqiyotning o'zbek modeli» deb keng e'tirof etilayotgan bu tamoyillarni yana bir bor sizga eslatib o'tamiz.



Bular:

- 1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkura-dan xoliligi.**
- 2. Davlatning bosh islohotchi ekani.**
- 3. Qonunning ustuvorligi va barchaga barobarligi.**
- 4. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza etish.**
- 5. Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish.**

Bugungi darsimiz ana shu muhim yo'nalishlarning biri – mamlakatimizda qonunlarga barchaning birdek amal qilishi lozimligi, huquqiy madaniyatning nima ekani, qonunga rioya qilib yashash qanday ijobiy jihatlarga ega va aksincha, unga itoat etmaslik jamiyat hayotiga qanday xavf solishi mumkinligi masalalariga bag'ishlangan.

Insoniyat o'z o'tmishida barpo etgan barcha tuzumlar, jamiyatlar tarixi bir narsadan darak beradi.



Qaysi tuzum yoxud jamiyatda qonuniylik ustuvor bo'lgan bo'lsa, fuqarolar qonunga so'zsiz itoat etgan bo'lsa, o'sha jamiyat va davlat yuksak taraqqiyotga, tinchlik va farovonlikka erishgan.

Bunga xalqimiz tarixidan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, «Temur tuzuklari» asaridan ma'lum bo'ladiki, Sohibqiron Amir Temur tashkil etgan davlat hududidagi barcha

ishlar – ulkan davlatni boshqarishdan tortib, beva-bechoralar holidan xabar olishga qadar qat’iy tartib asosida, o‘z vaqtida va muntazam tarzda olib borilgan. Har bir ishning, vazifaning o‘z egasi – ijrochisi bo‘lgan. Oqsoqollar kengashi tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarga eng yirik amaldorlardan tortib oddiy fuqarogacha – barchaning so‘zsiz amal qilishi, bo‘ysunishi talab etilgan. Natijada ham hududiy, ham iqtisodiy, ham harbiy-siyosiy jihatdan eng yirik davlatlardan biri bo‘lgan Amir Temur davlati har jihatdan ravnaq topgan, uning qudratiga jahon ahli havas bilan qaragan.

Aksincha, qonuniylik oyoqosti qilingan, inson huquq va erkinliklari toptalgan, jamiyat boshqaruvi va xalq taqdiri o‘z holiga tashlab qo‘yilgan davlatlar na taraqqiyotga, na farovonlikka erishgan. Bu borada ham uzoqqa bormasdan, o‘zimizning o‘tmishimizdan misol keltirish foydalidir. Yurtboshimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida temuriylar hukmronligidan so‘ng – XVII asrdan XX asrning boshlarigacha Turkiston zaminida yuz bergan siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikning tub sabablari chuqur tahlil etilib:



«Uch xonlikka bo‘linib ketgan mintaqa uzoq muddat o‘zaro ziddiyat va qarama-qarshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-ma’naviy fikr rivojida ham ko‘p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani»¹ alohida ta’kidlanadi.

Xalqning ahilligi va birdamligini saqlash, milliy manfaatlar yo‘lida qat’iyat bilan turish, mas’uliyat va hushyorlik esa qonuniylik asosida vujudga keladi. Afsuski, tariximizning «uch xonlik davri» deb atalmish pallasida buning aksini ko‘ramiz.



«Yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qayg‘urish o‘rniga, o‘z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yib, jaholat va g‘aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi»².

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 50–51-betlar.

² O‘sha asar, 51-bet.

Bulardan ko‘rinadiki, qonuniylik har qanday jamiyat taraqqiyotining, farovonligi va xavfsizligining muhim sharti, kafolati hisoblanadi.

Jamiyatda qonuniylik amal qilishi uchun bu jamiyatning huquqiy madaniyati yuksak darajada bo‘lishi lozim.



Huquqiy madaniyat – bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olish darajasi, kishining qonunlarni bilish va ular asosida yashash borasida orttirgan tajribasi, umumiy huquqiy saviyasidir.

Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas, uzviy bir qismi hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy madaniyat qaror topishi quyidagi omillarga chambarchas bog‘liq:

1. Davlat tomonidan xalq manfaatlarini ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi.

2. Mamlakatda yuridik – huquqshunoslik fanlarining rivojlangan bo‘lishi.

3. Hammaning qonun oldida tengligi.

4. Huquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdor shaxslarning qonunlar doirasida o‘z huquqi, burchlarini bajarishi, ularni anglab olishi.

5. Huquqiy tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining izchil yo‘lga qo‘yilishi va hokazolar.

Mustaqillik sari intilgan O‘zbekistonimiz taraqqiyoti adolatsizlik, qonunni mensimaslik sharoitida kechishi aslo mumkin emas edi. Shu tufayli ham Yurtboshimiz istiqloлга erishishimizdan bir yarim yil avval – 1990-yil 24-fevralda so‘zlagan nutqida bu masalani eng muhim vazifa sifatida ta’kidlaydi:



«Eng avvalo, o‘zimizga shunday savol berishimiz kerak: har bir fuqaro, har bir inson, oila boshlig‘i hokimiyatdan nimani kutyapti?»

Barcha zamonlarga va xalqlarga xos bo‘lgan eng asosiy, eng muhim, eng umumiy maqsadni aniqlaydigan bo‘lsak, shuni to‘la asos bilan aytish mumkinki, davlat paydo bo‘lgandan buyon, inson o‘zining xavfsizligini himoya qilishni, shaxsiy huquqlari va erkinliklari ta’minlanishini davlatdan

kutadi, hokimiyatdan najot izlaydi. Hokimiyat shu tabiiy talablarga javob berolmasa, ochig'ini aytganda, bunaqa hokimiyat hech kimga kerak bo'lmaydi»¹.

O'sha yillardan boshlaboq mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, barchaning qonun oldida tengligini amalda joriy etish borasida jiddiy islohotlar hayotga tatbiq etildi. Chunki Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, odamlar ko'p narsaga chidashi, sabr qilishi mumkin, biroq adolatsizlikka chiday olmaydi. Shunga ko'ra, respublikamizda sobiq sho'rolar davrida yo'l qo'yilgan adolatsizliklar, qonunsizliklarni bartaraf etishga kirishildi. Bu esa xalqimiz ko'ngliga taskin berish bilan birga, uning adolatga, haqiqat tantanasiga, davlatga hamda kelajakka ishonch-e'tiqodini mustahkamladi. O'tgan asrning 30–50-yillarida o'tkazilgan qatag'on siyosatining barcha qurbonlari pok nomlarining tiklanishi, 80-yillarda «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» degan tuhmat va bo'htonlar tufayli ozodlikdan mahrum etilgan barcha begunoh kishilarning oilalari bag'riga qaytarilgani – mustaqil O'zbekistonda «inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari – oliy qadriyat» (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasi) hisoblanishining amaldagi isboti bo'ldi.

Prezidentimiz bu boradagi ishlarni izchil yo'lga qo'yishga da'vat etar ekan, quyidagi muhim masalalarga e'tibor qaratgan edi:



«Qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir»².

¹ **Islom Karimov.** O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2011-yil. 128-bet.

² **Islom Karimov.** O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 1996-yil. 319-bet.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda qonunchilikning mustahkam asoslarini yaratish, inson huquqlari, erkinliklarini himoya qilish, davlatimizning ichki va tashqi siyosatida insonparvarlik, ezgulik, adolat g'oyalarining ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borildi.

«Huquqiy madaniyat» tushunchasi «huquqiy ma'rifat» va «huquqiy savodxonlik» kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq. Bir narsaga e'tibor beringki, huquqiy ma'rifat nafaqat qonunlarning o'zini, balki ularni hayotga tatbiq qilish bilan bog'liq qonunosti hujjatlarini bilishni ham talab etadi. Huquqiy savodxonlik va ma'rifat asosida insonning huquqiy ongi shakllanadi. Huquqiy ongi yuksak odam qonuniylik bilan qonunsizlikning farqini yaxshi anglaydi, o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan birga, o'zgalarning huquq hamda erkinliklarini hurmat qilishni ham unutmaydi.



Qonuniylik qonun ustuvorligi, qonunga muvofiqlik, faqat qonun asosida yashash, g'ayriqonuniylikka yo'l qo'ymaslikni bildiradi.

Qonuniylik hukmron bo'lgan joyda tinchlik-totuvlik, tartib-intizom va adolat qaror topadi, insonlarning huquq va erkinliklari to'la ta'minlanadi. Qonunsizlik esa qonunning yo'qligi yoki uni tan olmaslikni bildiradi. Qonunsizlik avj olgan joyda hech qachon tinchlik-totuvlik, tartib-intizom va adolat bo'lmaydi.



Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyatning ikki tomoni bo'lib, ularga rioya qilish barchaning burchi hisoblanadi. U, avvalambor, insonning o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishi va ulardan to'liq foydalani-shini talab etadi. Ikkinchidan esa, o'sha insonning qonun oldidagi, boshqa insonlar, xalqi va Vatani oldidagi burchi va majburiyatini ham unutmasligini taqozo qiladi.

Huquqiy madaniyatli odam qonunlardan qo‘rqqani uchun emas, balki ularni hurmat qilgani, qonunlar timsolida xalq xohish-irodasini ko‘rgani uchun ham qonun asosida yashashni o‘z hayotining mazmuni deb biladi.

Buni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun shuni bilingki, sizning huquq va erkinligingiz xuddi sizdek boshqa bir kishining huquq va erkinliklari chegarasigacha davom etadi. O‘sha kishining qonuniy huquq va erkinliklarini hurmat qilish sizning qonun oldidagi majburiyatingiz hisoblanadi. Chunki huquqiy demokratik davlat o‘z nomi bilan erkin jamiyatdir. Unda zo‘ravonlik, kuch bilan majburlash yo‘q. Barcha munosabatlar fuqarolarning ongli harakat qilishiga asoslanadi. Bu jamiyatda hamma erkin yashaydi, hayotning barcha sohalari qonun asosida erkin rivojlanadi. Bu imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan majburiyatlarni og‘ishmasdan ado etishni talab qiladi. Aks holda, qonunda ko‘zda tutilgan jazo choralari ko‘riladi, ya‘ni bunday jamiyatda qonun bergan erkinlik va imkoniyatlarni suiiste‘mol qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Har qanday madaniyat yuksak ong va tafakkurga asoslangani singari, huquqiy madaniyat ham odamlarda, avvalo, huquqiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab etadi. Huquqiy tafakkur va dunyoqarash esa Konstitutsiya, qonunlarni, umuman huquq ilmini o‘rganish orqali shakllanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda.



Prezidentimiz 1997-yil 27-iyunda bu masalada maxsus farmon imzolagani, 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlis jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturini qabul qilgani, 2001-yil 4-yanvarda esa Yurtboshimizning «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoyishining qabul qilingani ham bejiz emas.

Ana shunday e‘tibor tufayli bugungi kunda maktablarimizda «Konstitutsiya alifbosi», «Konstitutsiya olamiga sayohat» o‘quv kurslari, «Davlat va huquq asoslari» kabi fanlar o‘qitilmoqda. Bu orqali sizdek yoshlarimizda huquqiy tafakkur va dunyoqarash-

ni shakllantirish maqsad qilingan. Chunki huquqiy madaniyati yuksak insonlar qancha ko'p bo'lsa, xalqimiz orzu qilgan fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni shuncha tezlashadi. Qolaversa, huquqiy madaniyat yurtdoshlarimizning siyosiy madaniyatini oshirishga ham zamin bo'ladi. Siyosiy madaniyatli odam mustaqil fikrlay oladi, o'zini o'zi boshqarishga qodir bo'ladi.

Endi ma'naviyat va huquqiy madaniyatning o'zaro bog'liq jihatlariga to'xtalaylik.



Aslida huquqning o'zi ham ma'naviyat mahsulidir. Insonlar o'z hayotini mazmunli qilish, tinch va osoyishta yashash uchun huquq va majburiyatlarni qat'iy belgilab beradigan qonunlarni o'ylab topgan.

Chunki har bir odam huquq va erkinlikni, ayni paytda, o'zining boshqalar oldidagi burch hamda majburiyatlarini yaxshi tushunsa, dunyoda yomonlik, adolatsizlik, har xil ko'ngilsiz hodisalar kamayadi.

Insonning ma'naviyati yuksalib borgani sari huquq haqidagi tushunchalari ham mukammallashaveradi. Odamzot yanada ko'proq huquqqa, yanada ko'proq erkinlikka ega bo'lishni istaydi. Siz tarixdan o'qigansiz — XX asr boshlarida so'z erkinligi, matbuot erkinligi va vijdon erkinligi masalalari ko'pchilik xalqlar uchun orzu edi, xolos. Yevropa, Amerika va Osiyoda ana shu huquqlarni talab qilib odamlar qancha kurash olib borgan. Bugungi kunda esa bunday erkinliklar demokratik jamiyatlarda konstitutsiyalar va qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan kundalik qadriyatga aylanib qoldi. Ularsiz endi hayotni tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi kishilar, aqli va tafakkuri yuksalgani uchun, endi boshqa talablar bilan ham maydonga chiqmoqda. Xususan, yadro qurollarini tarqatmaslik, xalqaro terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurashish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik kabi tashvishlar bugungi insoniyatning asosiy talablariga aylanmoqda. Bu masalalar Yer yuzida hayotni saqlash, odamlarning eng muqaddas huquqi bo'lgan yashash huquqini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgani uchun ham jiddiy xavotir uyg'otmoqda.



Insonni ma'naviyatsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, huquqsiz ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Demak, huquq ham, ma'naviyat ham inson hayotining mohiyatini belgilab beradigan muhim omillar hisoblanadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat insonning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga imkon beradigan, ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir.



Savol va topshiriqlar:

1. Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun nimalar talab etiladi?
2. Sobiq sho'rolar davrida inson huquq va erkinliklariga zid ishlar amalga oshirilgani to'g'risida keksalardan nimalar eshitgansiz?
3. Qonun ustuvorligi bilan mamlakatlar taraqqiyoti o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
4. Huquqiy madaniyat nima?
5. Inson huquqiy madaniyatga ega bo'lmasa, qanday ahvolga tushishi mumkinligini misollar yordamida izohlab bering.
6. Mamlakatimiz ta'lim tizimida yoshlarning huquqiy tafakkurini o'stirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida gapirib bering.
7. Quyidagi rasmlar asosida qonuniylikning ta'minlanishi jamiyat hayotida qanchalik muhimligi xususida gapiring.





INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATI

(Amaliy mashgʻulot)

Mazkur amaliy mashgʻulotda oʻqituvchingiz va siz quyidagi masalalarga alohida eʼtibor berishingiz maqsadga muvofiqdir:

- Internet tizimining paydo boʻlish tarixi;
- bu tizimning cheksiz imkoniyatlari va undagi tezkorlik sabablari;

- mazkur tizim insoniyatning oʻzaro axborot ayirboshlashi, iqtisodiy aloqalarning tezlashuvi, siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi yangiliklardan xabardor boʻlish, muassasalar hamda millionlab kishilar oʻrtasidagi madaniy aloqalarning osonlashuvi singari koʻplab ijobiy imkoniyatlarni yaratgani;

- shu bilan birga, Internet tizimidan turli gʻarazli maqsadlarda foydalanishga urinayotgan buzgʻunchi kuchlar, ular tomonidan mazkur tizimga kiritib yuborilayotgan boʻhtonlar, uydirma xabar va lavhalarning nihoyatda koʻpaygani;

- Internetning inson qalbi va ongini zaharlashga, axloqi va ruhiyatiga salbiy taʼsir koʻrsatishga yoʻnaltirilgan koʻplab saytlari mavjudligi;

- oʻziga qanday maʼlumot zarurligini, uni qayerdan izlashni oldindan bilishi mazkur tizimdan unumli foydalanmoqchi boʻlgan kishining yuqorida aytib oʻtilgan xavflardan saqlanishida muhim omil ekani;

- Internetdagi yurtimizga tegishli saytlardan koʻproq foydalanish yoshlarning ilm va maʼrifatini yuksaltirish, Vatanimiz tarixi hamda bugungi kuni toʻgʻrisida xolis va aniq maʼlumotlar olish imkoniyatini yaratishi;

- Internetdan olingan dunyo fani, madaniyati, turli mamlakatlar tarixi va buguni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻzaro qiyoslash mazkur maʼlumotlarning ishonchliligini aniqlashda muhim ekani va boshqalar.

Amaliy mashgʻulot uchun adabiyotlar:

1. *Islom Karimov*. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. –T.: «Maʼnaviyat», 2013-yil, 128–132-betlar.

2. *Islom Karimov*. Vatan va xalq mangu qoladi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 95–97-betlar.

3. Prezident Islom Karimovning «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. –T.: «Xalq soʻzi» gazetasi, 2012-yil, 17-fevral soni.

4. Milliy istiqloq gʻoyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. –T.: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 123–124-betlar.

NAZORAT ISHI

T o p s h i r i q: «*Milliy oʻzlikni anglash*» mavzusida referat tayyorlang.

Uni yozishda quyidagi masalalar yuzasidan mustaqil fikr yuritishga urining:

– Yurtboshimizning «Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» (kitobning 66–71, 174–178, 222–226, 249–253 hamda 272–274-betlari) va «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» kitobida (asarning 5–7 hamda 29–35-sahifalari) mazkur masala boʻyicha bildirgan fikr va mulohazalari;

– milliy oʻzligini anglamagan xalq, millat qay ahvolga tushishi mumkinligi;

– sobiq shoʻrolar zamonida xalqimizni milliy oʻzligidan ayirish uchun olib borilgan siyosat va uning oqibatlari;

– oʻzlikni anglash tarixiy xotirani uygʻotishdan boshlanishi;

– mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda milliy oʻzlikni anglash, anglatish borasida amalga oshirilgan chinakam tarixiy ishlar;

– milliy oʻzlikni anglash shaxs, millat, xalq qalbida milliy gʻurur va iftixor tuygʻusining kuchayishida muhim omil ekani;

– oʻzligini anglagan xalq yorugʻ kelajakka sobit ishonch bilan qarashi va boshqa masalalar.



MA'NAVIYAT – JAMIYAT VA MILLAT RAVNAQINING BOSH OMILI

MA'NAVIYAT – INSON VA JAMIYAT MADANIYATINING NEGIZI

Aziz o'quvchi, hozirga qadar olgan bilimlaringizdan anglagandirsizki, ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Chunki dunyodagi jonzotlar ichida faqat odamgina o'z oldiga maqsad qo'yib, o'ylab-fikrlab yashaydi. Ma'naviyatshunos olim Abdurahim Erkayev bu borada quyidagi mulohazalarni yozadi: «Tabiatda ma'naviyat yo'q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va boshqa belgilariga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo'y yoki vijdotsiz, kufr botqog'iga botgan, deya olmaymiz. Agar yanada aniqroq va jonli misol yordamida aytadigan bo'lsak, «mana bu to'ng'iz va eshak – nozikta'b, nafasat oshuftalari, ana u ikkalasi o'ta xudojo'y, mana bulari esa noinsof va tamagir», degan iboraga aql bovar qilmaydi. O'simlik dunyosi haqida ushbu munosabat bilan gapirishning o'zi ortiqcha»¹.

Bundan ko'rinadiki, biz ma'naviyat va u bilan bog'liq tushunchalar haqida gapirganimizda, faqat insongagina xos yuksak tuyg'ular, hislar, ko'nikmalar, tajribalardan kelib chiqamiz, shularga tayanamiz.



Yana bir narsani yaxshi bilib olishimiz kerak: ma'naviyat ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu degani uning paydo bo'lishi, takomillashishi, avloddan avlodga o'tishi inson faoliyati bilan bog'liq.

Insonlar faoliyati esa o'zaro jamlanib, jamiyat hayotini yuzaga keltiradi. Demakki, inson va uning faoliyatisiz, jamiyatning ijtimoiy hayotisiz ma'naviyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Yurtboshimiz ma'naviyatning inson qalbi va ongiga singishini quyidagicha ifoda etadi:

¹A. Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2009-yil, 19-bet.



«Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi»¹.

Endi Prezidentimizning ushbu mulohazasi zamiridagi ma'no-mazmuni chuqurroq idrok etishga harakat qilaylik.

Modomiki, ma'naviyat insonning qon-qoniga, suyak-suyagiga singadigan tuyg'ular, qarash va ko'nikmalar majmuyi ekan, demak, ularni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, rang yoxud hidini bilish mumkin emas. Ma'naviyat inson ruhiyatida, qalbi va ongida shakllanib ulg'ayadi. Ma'naviy qadriyatlar ajdodlar to'plagan tajribalar, ibratlar, axloqiy qarashlar tarzida avlodlarga o'tib boradi.



Bular sirasiga onalar allasi ham, oiladagi munosabatlar ham, buyuk shaxslar qoldirgan nodir kitoblar, madaniy yodgorliklar shaklidagi ma'naviy-ma'rifiy manbalar ham, bugungi ijodkorlar yaratayotgan asarlar, olimlarning kashfiyotlari ham kiradi.

Vatan tuyg'usining o'zi nima, u inson qalbida qanday paydo bo'ladi, nimalar yordamida takomilga yetadi, degan masalalar to'g'risida esa siz bilan quyi sinflarda suhbatlashgan edik.

Yurtboshimiz inson ma'naviyatining shakllanishida «hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari» ham muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratadi. Hozirgacha olgan bilim va tajribalarinizdan bilasizki, hayot turli murakkabliklarga, ziddiyatlarga to'ladir. Unda quvonchli kunlar bilan birga, tashvishli, iztirobli onlar ham ko'p bo'ladi. Buni qarangki, bu barcha tashvishlar, iztiroblar aksariyat xuddi siz-u bizdek odamlar xatti-harakati tufayli yuzaga keladi. Ya'ni, ayrim odamlar ma'naviyatidagi kemtiklar, kishilarda uchraydigan vijdotsizlik, axloqsizlik, imon va e'tiqodning sustligi boshqa insonlar uchun qanchadan qancha muammolarni tug'diradi. Demak, mana shu nuqsonlardan olgan achchiq saboqlarimiz siz-u bizga ham ibrat bo'lishi lozim. Toki, o'zimizda bunday kamchiliklar bo'lmasin, shu yo'lda qiladigan harakatlارimiz ma'naviy olamimizning pok bo'lishiga zamin yaratsin.

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 28-bet.



Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar sifatida quyidagilarni birma-bir izohlaydi: 1. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar. 2. Xalq og'zaki ijodi. 3. Muqaddas dinimiz. 4. Buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari. 5. Oila, uning o'rni va ta'siri. 6. Mahallaning roli va ahamiyati. 7. Ta'lim-tarbiya tizimi.

Agar e'tibor bersangiz, insonning, jumladan, bizning yurtimizda tug'ilib o'sgan kishilarning hayotini yuqorida sanab o'tilgan qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Darhaqiqat, bizning o'lkamizda dunyoga mashhur ko'plab madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar bunyod etilgan.



«Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi»¹.

Ular orasida bundan qariyb uch ming yil avval Xorazm vohasida yaratilgan «Avesto» kitobi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu kitobning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan bosh g'oyasi hanuzgacha o'z dolzarbligini, ahamiyatini yo'qotgan emas.



«Avesto»dagi bu ta'limot bo'yicha inson imon-e'tiqodi uch tayanchga asoslanadi: birinchisi – fikrlar softligi, ikkinchisi – so'zda sobitlik, uchinchisi – amallarning insoniyligi.

Qadimgi ajdodlarimiz bolalarning faqat benuqson tug'ilishi va chaqaloqligidan jismoniy tarbiyasiga jiddiy e'tibor beribgina qolmasdan, ularning ilm va hikmat o'rganishi, ma'naviy pok bo'lishi, ezgulik xislatlarini egallashi haqida ham katta g'amxo'rlik qilishgan.

O'g'il bolalar, el-u yurtning bo'lg'usi himoyachilari bo'lgani uchun, kurash tushish, otga suvliq solish, uni egarlash, ot va

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 30–31-betlar.

tuyani boshqarish, chorvani parvarishlash, uni yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qilish uchun 50 dan ortiq harbiy, jangovar qurollarni ishlata bilishi majburiy bo'lgan. Ularga yana 30 xil harbiy hunar turlari o'rgatilgan.

Qiz bolalar ham urchuq bilan charxda ip yigirish, matolar to'qish, liboslar tikishdan tashqari, o'g'il bolalar bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik qilish, qalqon tutib o'zini raqibdan himoyalash, otda har xil g'ovlardan sakrab o'tish, suvda suzish, uzoqqa yugurish, nayza irg'itish, kamondan o'q otish va boshqa jismoniy-harbiy mashqlarni bajarishga o'rgatilgan.

Shu tariqa ajdodlarimiz farzandlar jism-u jonini, ruhiyatini toblashgan, tarbiyalashgan. Ular ezgulik, yaxshilik, diyonatni yovuz kuchlar hujumi va xurujiga qarshi kuch-quvvat manbayi, deb bilishgan. Zo'ravonlikning yo'lini to'sishga qarshi tura oladigan, ham jismoniy, ham ma'naviy himoya to'sig'i, qo'rg'onini hosil qilishgan.

Ko'pchiligimiz xalqimizning qadimiy ertaklarini, afsonalarini, dostonlarini miriqib eshitamiz, o'qiyamiz. Ularda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlar jasorati qalbimizni to'lqinlantiradi, bilimimizni oshiradi, ijodiy tasavvurlarimizni kengaytiradi. Qolaversa, ularda xalqimizning ozodlik va erkinlikka, farovon va tinch hayot kechirishga bo'lgan azaliy orzu-intilishlari mujassamlashgan. Xalq og'zaki ijodi degan nom ostida bizgacha bezavol yetib kelgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz orasida «Alpomish» dostoni alohida ajralib turadi. Yurtboshimiz bu asarga quyidagicha yuksak baho beradi:



«Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oliyanoblik, vafu va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan»¹.

Darhaqiqat, dostonning bosh qahramonlari Alpomish va Barchinoyning boshiga ne-ne ko'rgiliklar tushmaydi. Bu ikki yosh

¹Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 33-bet.

yurti, hokimiyatni yovlardan tozalash, turli fitnalar, aldovlarga uchmasdan maqsad sari intilish, elga jabr qilmoqchi bo'lganlarga munosib zarba berish, nihoyat, o'z eliga, ona yurtiga munosib egalik qilishdek mas'uliyatli vazifalarni sharaf bilan bajarishadi. Bu kurashlar davomida ularning tug'ilib o'sgan yurtga mehri, do'stlikka sadoqati, qon-qardoshlariga bemisl shafqati, pok muhabbati sinovdan o'tadi, toblanadi. Yurtboshimiz xalqimizning qadimiy va shonli tarixini tunganmas bir doston deb, «Alpomish»ni esa shu dostonning shoh bayti deb baholashining zamirida ana shu haqiqat turibdi. Ya'ni, xalqimizga xos bo'lgan, uni asrlar sinovidan omon olib chiqqan barcha oliyjanob fazilatlar ayni dostonda mangu qo'shiqdek tarannum etilgan.

Insonning, xalqning ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar sirasiga kiradigan muqaddas dinimiz, mutafakkir bobolarimizning buyuk ilmiy-ijodiy kashfiyotlari, oila va mahalla, ta'lim-tarbiya tizimining roli hamda ahamiyati to'g'risida avvalgi saboqlarimizda qisman gapirgan bo'lsak, kelgusi darslarda ham ularga alohida-alohida to'xtalamiz.

Hozir esa inson ma'naviyatining shakllanishida muhim o'rin tutadigan sabr-qanoat, mehr-muruvvat, yaxshilik va yomonlik singari tushunchalarga izoh berib, ularni anglab olishga harakat qilamiz.



«Qanoat» tushunchasi hayotda og'irliklarga chidash, nafsni tiyish, ozga ham, ko'pga ham bardoshli bo'lishni anglatadi.

Odam hayotida turli tasodiflar, baxtli va baxtsiz, yaxshi va yomon kunlar bo'lishi tabiiy. Biroq inson baxtsizlik ketidan baxt, yomonlik ketidan yaxshilik, muhtojlik ketidan farovonlik kelishiga ishonib, shunga harakat qilib yashamog'i lozim. Hayotning og'irliklari, murakkabliklariga chidagan, ularni bardosh bilan yenggan kishilar yaxshi kunlarga ham, ro'shnoliklarga ham, albatta, erishadi.

Agar hayvonlar hayotiga nazar solsangiz, ularda qanoat, sabr tuyg'usi zaifligi tufayli ham dahshatli hodisalar yuz berishining guvohi bo'lasiz. Ayrim hayvonlar yemish topa olmay qolgan kezlari o'zining to'dasidagilarga, hatto zurriyotlariga ham hujum qiladi, ularni yirtqichlarcha yeb, nafsini qondiradi.



Kimningki tabiatida qanoat, sabr, shukronalik hislari kuchli bo'lsa, bunday inson odamiylik chegarasidan hech qachon chiqmaydi, birovning marhamatiga kuni qolmaydi, o'zgalar minnatidan yiroq yuradi.

Chunki minnatga sabab bo'ladigan birorta yaxshilik aslida yaxshilik sanalmaydi. O'zini hurmat qiladigan, qadrlaydigan odam bunday «yaxshilik»ka muhtojlik sezmaydi, balki o'z kuchi, irodasi, sabr-u qanoatini ishga solib, barcha narsaga o'zi erishadi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning «Iltimos» nomli she'rida aynan shunga da'vat qilinadi:

*Sargardon, yo'llarda qolsang hamki och,
Sabr-u qanoatni qilgil boshga toj,
Notanti yo'ldoshga bo'lma hech muhtoj,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

Xo'sh, nega shoir notanti yo'ldoshdan bu qadar bezillab qolgan? Iltimos qilishning, biror masalada boshqalardan ko'mak olishning nimasi yomon? Axir, hayotda odamlarning bir-birlariga ishi tushishi, istaydimi-yo'qmi, ular bir-birovidan nimalarnidir iltimos qilishi tabiiy-ku!

Hamma gap o'sha iltimosni kimga qilishda, kimdan najot kutishdadir. Shoir notanti – mayda, nomard, qilgan ozgina yaxshiligini birovlarga minnat qiladigan kimsalarga yalinmaslikni uqtirmoqda. Chunki:

*Ta'nadir dunyoda yomondan yomon,
Non berib rangingni etgaydir somon,
Aqling butun bo'lsa, to'rt muchang omon,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*



Darhaqiqat, insonning aqli butun, tan-joni sog' bo'lsa, shu aqli va kuchini ishga solsa, bu dunyoda ko'p maqsadlariga erishishi aniq.

Xalqimiz bu jihatdan nihoyatda tanti xalq hisoblanadi. Eng og'ir paytlarda ham u o'zining insoniy qiyofasini yo'qotmagan, g'ururini qo'ldan boy bermagan. Bobolaringizdan hayoti davomida kechirgan hodisalarni ko'proq so'zlab berishlarini iltimos qilsangiz, ularni eshitishni o'rgansangiz, foydadan holi

bo'lmaydi. Negaki, ular xalqimiz kechmishidan juda ko'p ibratli hodisalarni sizga hikoya qilib berishlari mumkin. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi og'ir yillarda o'zbek xalqi ko'p qiyinchiliklarga mardonavor bardosh bergani, frontga hamda urush tufayli vayron bo'lgan o'lkalarga oziq-ovqat va boshqa moddiy boyliklarni yuborib turgani to'g'risida ulardan jonli hikoyalarni tinglaysiz. Bu hikoyalar nimadan dalolat beradi? Xalqimizning naqadar tantiligi, sabr-bardoshining cheksizligi — insonparvarligidan!



Ayni paytda bu xalq boshqalar oldida tili qisq bo'lmaslik, o'zgalarning minnatiga qolmaslikni ham o'ziga e'tiqod qilib olgan. Uning o'rniga barcha qiyinchilik va kamchiliklarni sabr bilan, bardosh bilan yengadi bizning xalqimiz. Chunki sabr orqali maqsad qilingan ko'plab ishlar amalga oshishini, sabrsizlik tufayli esa odam yo'ldan ozishini el-yurtimiz yaxshi biladi.

Kuzatgan bo'lsangiz, odamlar turmushi doimo bir maromda kechmaydi. Ayniqsa, oilaviy sharoitda turli og'irlik, yetishmovchiliklar bo'lib turishi ham tabiiy hol. Ota-onangiz sizning iltimosingizni bir safar bajonidil bajarishsa, boshqa gal qo'li kaltalik qilib qolishi ham mumkin. Mana shunday vaziyatda ularni to'g'ri tushunishingiz, xijolat qilmasligingiz nihoyatda muhimdir.



Ochig'ini aytganda, shunday munosabatni — sabr-qanoatni ko'rgan ota-onangizning sizga nisbatan mehri yanada ortadi, ular iloji boricha tezroq so'rovingizni bajo etishga harakat qiladilar.

Ko'ryapsizki, bizning sabr-u bardoshimiz ham oilaviy muhitning sog'lomlashishiga, o'zaro munosabatlardagi iliqlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ona xalqimiz bekorga:

*Sabr qilsang g'o'radan holva bitar,
Besabrlar o'z oyog'idan yitar, —*

demagan. Chunki odamda sabr-u toqat, qanoat bo'lmasa, u ochko'z, mol-dunyoga to'yamaydigan, boylik va davlatga mukkasidan ketgan odam qiyofasiga kiradi. Bu esa kishini qarindoshurug'lardan, do'st-u birodarlardan, oxir-oqibat jamiyatdan ajralib qolishiga olib keladi. O'tmishga nazar soladigan bo'lsak, odamzot boshiga tushgan juda ko'p dahshatli ko'rgiliklar, urushlar, talon-torojlarining zamirida aynan mana shu salbiy jihatlar turganiga guvoh bo'lamiz.

Maktabdagi tarix darsida juda ko'plab urushlar haqida hikoyalar o'qimoqdasiz. E'tibor bering, ne-ne saltanatlar, davlat tuzilmalari bir hovuch kimsalarning sabrsizligi, ochko'zligi, noshukrligi oqibatida tanazzulga yuz tutgan. Xuddi shu sabrsizlik ofati o'g'ilning otasiga, ukaning akasiga qarshi jang boshlab, minglab begunoh odamlarning umriga zomin bo'lishiga sabab bo'lmaganmi?

Ota-bobolarimizning qanchalar mehrlil, muruvvatli bo'lgani to'g'risida ham tarix darslarida ko'plab ibratli hikoyalarni o'qigansiz. Hozir esa shuni yodingizga solamizki, mehr ham, muruvvat ham birovga ko'z-ko'z etish maqsadida qilinmaydi. Xalqimiz: «O'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin», — deydi. Bu boshqalarga qiladigan har bir yaxshiligimiz beminnat, xolisona bo'lishi lozim, deganidir. Shundagina qilingan yaxshilikning barakasi bo'ladi, u savob olib keladi. Yana bir jihat — bizning xalqimiz oriyatni nihoyatda qadrlaydi. Aksariyat odamlar har qancha qiynalmasin, birovga bildirmaslikka, dardini oshkor qilmaslikka odatlangan. Shunday ekan, bu odamlarga qilinadigan ko'mak, yaxshilik ham ovoza qilinmasligi, hech kimni xijolatga solmasligi lozim.



Sinf doshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatda mehr va oqibat tuyg'ulari kuchli bo'lsa, bu sinfning fayzi boshqacha bo'lishi aniq. Chunki insonparvarlik, adolatlilik, mehr va muruvvat odam bolasini, jamoani, jamiyatni bezab turadigan o'lmas ziynatdir.

O'quvchilar, yana bir narsani bilib olingki, to hayot bor ekan, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi olishuv to'xtamaydi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov hayotning bu achchiq haqiqatini «Yomonning so'zi» she'rida bunday ifodalagan edi:

*Bu olamning dargohi kengdur,
Yaxshisi-yu yomoni tengdur.
Quyosh kezib ko'kda sarosar,
Nur sochadi bizga barobar.
Faqat mening qo'ynimda tosh bor,
Bundan sening ko'zingda yosh bor.
Sen tutgansan qo'lingda chiroq,
Men qo'yganman yo'lingga tuzoq.*

Demak, biz yomonlarning qo'ynidagi toshdan — yovuz niyatlari, aldanchi g'oyalari, bizga yot mafkuralari, odob-axloqimizga zid qarashlaridan doimo ogoh bo'lishimiz, qalbimizni asrashimiz lozim.



Savol va topshiriqlar:

1. Yuksak ma'naviyatni inson va jamiyat hayotining asosi, deb bilishimizning sababi nimada?
2. Ma'naviyat inson ong-u shuuriga, qalbiga nima uchun yillar davomida singib boradi? Bu jarayonni tezlashtirishning iloji yo'qmi?
3. «Avesto» kitobida ilgari surilgan o'lmas g'oyaning ma'nomohiyatini kengroq izohlay olasizmi?
4. Yurtboshimiz xalqimizning qadimiy va shonli tarixini nima uchun tunganmas bir dostonga o'xshatadi?
5. Sabr-qanoat inson hayotida qanday ahamiyat kasb etadi? Besabrlik-chi?
6. Sabrsizlik qilib xijolatda qolgan paytlaringizni eslaysizmi? Bu haqda sinfdoshlaringizga gapirib bera olasizmi?
7. Minnat nima? Hayotingizda sizga minnat qilishganmi?
8. Quyidagi rasmlarga qarab, xalqimiz ma'naviyatini yaqqol ifoda etgan kinofilm va spektakllarning nomlarini ayting, ular to'g'risida sinfdoshlaringiz bilan muloqot uyushtiring.



A)



B)



C)



D)



DO‘STLIK – YUKSAK MA’NAVIY TUSHUNCHA

Aziz o‘quvchi, o‘tgan darslar davomida siz bilan inson tabiati juda murakkab, qalbi esa nihoyatda nozik ekani to‘g‘risida so‘zlashdik. Darhaqiqat, hali-hozirgacha biror usul o‘ylab topilmaganki, u orqali insonning ichki dunyosini to‘liq bilib bo‘lsa. Nafaqat boshqalar, balki odamning o‘zi ham o‘zini bila olmasdan, «topa olmasdan» qiynaladi. Shu tufayli ham u hamma vaqt turmush quvonchlari va tashvishlarini baham ko‘radigan hamdard, hamfikir kishiga ehtiyoj sezadi. Bunday kishini esa insonlar «do‘st» deb ataydi, ularsiz yashay olmaydi. Xalqimizning «Do‘st hisobi dilda», «Do‘sting kimligini ayt, sening kimligingni aytaman», «Yot – yeb to‘yguncha, do‘st – o‘la-o‘lguncha», «Yo‘rg‘a minsang ham, yo‘ldoshli bo‘l», «O‘zim degan o‘radan chiqolmas» kabi naqlari bejiz aytilmagan.

Shoir Erkin Vohidov esa:

*Agar do‘sting bilan teng ko‘rsang baham,
Shodlik teng ko‘payar, teng bo‘linar g‘am, –*

der ekan, odamning yaxshi kuni ham, yomon kuni ham unga berilgan bir sinov ekani, do‘st-birodarlar ko‘magida bu sinovdan yorug‘ yuz bilan chiqish mumkin ekaniga ishora qiladi.



Do‘stlik – insonlar o‘rtasidagi maqsadlar, intilishlar, qarashlar va manfaatlar yaqinligi, o‘zaro bir-birini tushunishga, bir-biriga ishonishga asoslangan munosabatlar demakdir.

Do‘stlik – insonni ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovchi, uning og‘irini yengil qiluvchi, ruhiyatini ko‘taruvchi, o‘ziga ishonchni orttiruvchi kuchdir.

Shuni unutmaslik kerakki, insonda do‘stlik, birodarlik, o‘zaro ishonch tuyg‘ulari darhol yuzaga kelib, o‘z-o‘zidan mustahkamlanib qolmaydi. Dono xalqimiz «Toy qoqilmay yo‘l topmas, er qoqilmay – do‘st» deganida ayni shuni nazarda tutadi. Chunki haqiqiy do‘st topish va unga chinakam do‘st bo‘lib qolish

insondan ko'p narsani talab qiladi. Bular esa – fidoyilik, rostgo'ylik, to'g'rilik, o'z manfaatlaridan voz kecha bilish, sir saqlay olish va boshqalardir. Shu tufayli ham do'stlik uzoq yillar davomida ko'plab sinovlardan o'tib, toblanib boradi. Mana shu sinovlar paytida ham o'zini oqlagan, bukilmagan, buzilmagan do'stlikni chinakam do'stlik desa bo'ladi.

Hayotda haqiqiy, sadoqatli do'st topish inson uchun katta baxtdir. Afsuski, bu baxtga hamma ham muyassar bo'lavermaydi. Ba'zi insonlar uchraydiki, ularning atrofi bo'm-bo'sh, hayoti nursiz va zerikarli. Albatta, bu holatning sabablari juda ko'p va murakkab bo'lishi mumkin. Bunday kishilarni dabdurustdan ayblashdan ham ehtiyot bo'lish lozim. Lekin, nima bo'lganda ham, dunyoda birorta do'st orttirmasdan o'tayotgan kishilar, avvalo, o'zlariga jiddiy razm solib ko'rishlari kerak bo'ladi. Axir, atrofda hamma yoppasiga yomon-u birgina u yaxshi, buloq suvidek toza bo'lishi mumkin emas-ku. Demak, o'zining xulq-atvori, muomalasi, tabiatida nedir bir qusur bordirki, boshqalar undan o'zini olib qochadi-da.

Shunday hollarda beixtiyor bobolarimizdan qolgan hikmat yodga tushadi: «Tevarakka qo'l sermagan¹ odam o'rtada qolar». Bu iboradagi tevarakka o'ylab-o'ylamasdan «sermalanayotgan qo'l»ni, aslida, insonning achchiq yoxud valaqlashdan charchamaydigan tili, nafratli yoxud masxarali qarashi, odamlarni bezdiradigan xunuk axloqi yoki so'zida turolmaslikdek beburdligi deb tushunishimiz kerak. Mana shunday og'ir ahvolda qolmaslik, dunyoda do'stsiz yashamaslik uchun ham biz o'zimizni o'zimiz doimiy «tergab turishimiz», o'zimizni o'nglashimiz lozim. Chunki haqiqiy do'st ba'zi hollarda tug'ishgan qon-qarindoshdan ham ko'proq asqotishi, mehri bilan hayotimizni obod etishi shubhasiz.

Inson har qanday holatda ham yonida o'ziga yaqin insonlar – ota-onasi, qarindosh-urug'lari bilan bir qatorda do'stlarining ham bo'lishini ich-ichidan xohlaydi. Do'stining yonida turganini ko'rgan har qanday kishi quvonchli kunida olam-olam shodlikka to'ladi, qayg'uli kunida bir dunyo tasalli oladi.



Hayotda haqiqiy do'stlar bilan bir qatorda soxta do'stlar ham uchrab turadi. Ular shaxsiy manfaat yuzasidan, ma'

¹ Qo'l sermash – qo'l siltash

lum bir maqsadni ko'zlab, o'zlarini do'st qilib ko'rsatishga harakat qiladilar, ya'ni hayot sahnasida mahoratli artist bo'ladilar.

Bunday odamlar amaldorlar bilan mansab kursisi uchun yoki o'ziga to'q odamlarning moddiy boyligi uchun yoki bo'lmasa aqli, qobiliyatli odamlar bilan esa uning aqliy salohiyatidan foydalanish uchun do'st bo'ladilar. Soxta do'stning har bir so'zi o'z maqsadini ko'zlab aytiladi. U mug'ombir, ayyor, ikkiyuzlamachi, kishining sirini hammaga yoyuvchidir. U sizning xursandchilik kunlaringizda zarpechakdek o'ralib, sizdan ajralmaydi, boshingizga ish tushganida esa birdan g'oyib bo'ladi. Do'st deb ishonib aytgan sirlaringizni dushmanlaringizga oshkor qilib, endi ularga «do'stligi»ni namoyish qiladi. Shu bois ham soxta do'st o'ta xavfli va dushmandan ham qo'rqinchlidir. Chunki inson o'z dushmanini bilgach, uning har bir xatti-harakatidan ehtiyot bo'ladi, o'zini ma'lum uzoqlikda saqlab yuradi. Noqobil do'stdan esa, uni do'st deb ishongani uchun, hech narsani yashirmaydi, ichki sir-asrorini ham u bilan baham ko'radi.



Xalqimizning «Galga solgan do'st emas», «Dasturxon-ga boqqan do'st emas», «Jon do'sting jonidan kechsa ham, mol do'sting molidan kechmas», «Aqlsiz dushman-dan bir saqlan, aqlsiz do'stdan ming saqlan» kabi naql-larida do'stning nodonligi, ikkiyuzlamachiligi, xiyonatkor-ligi dushman tig'idan ham o'tkir, xavfli ekanligiga ishora bor.

Shu tufayli inson uchun haqiqiy do'st kim, dushman kimli-gini bilish juda muhimdir. Do'stning chinakam yoki soxtaligi, ayniqsa, inson boshiga og'ir kunlar tushganda yaqqol bilinadi. Chunki xursandchilik kunlarda hamma birdek yoningizga keladi, shod-u xurramligingizni baham ko'radi. Qayg'uli, og'ir kunlarda esa haqiqiy do'stlaringina g'am-tashvishlaringizni birga ko'taradi, ko'makdosh — tirgak bo'ladi.

Shu o'rinda bir hikoyani yodingizga solmoqchimiz. 5-sinfda «Adabiyot» darsida o'qiganingiz taniqli gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening «Hellados» nomli asari esingizdan chiqmagandir. Uning qahramonlari, sizning tengdoshlaringiz — Jamol va Yanguli qanday qilib ajralmas do'stga aylangan edi? Bu ikki

showvoz avval dahanaki jang qilishgan bo'lsa, keyin rostakamiga mushtlashishgacha borib yetishadi. Bir-birlarini obdon sinab bilganlaridan keyingina ular o'rtasida endi hech kim buza olmaydigan mustahkam do'stlik rishtasi ulanadi. Bu ikkovlon, garchi hech qachon ko'rmagan bo'lsalar-da, bir-birlarining vafot etib ketgan onalari xotirasini ham hurmat qilishadi. E'tibor bering: demak, chinakam do'st faqat sizning o'zingizgagina emas, butun oila a'zolaringizga ham do'stlik, mehr-shafqat ko'zi bilan qarar ekan-da.



Uzoq yillar yonma-yon yashash, birga o'qish, mehnat qilish, boshga biron tashvish tushganida hamdard, hamfikir bo'lish, safarga chiqish va boshqa hollarda odamlar do'stlashib qoladilar. Do'st tutinish juda mas'uliyatli ish bo'lib, uni pokiza saqlash, avaylab-asrash oson kechmaydi. Bizning soxta, vaqtinchalik «do'stlar» to'g'risidagi fikrlarimiz sizga ham birdek tegishli ekanini unutmasangiz bas. Chunki siz ham insonsiz — o'zingizning kuchli va ojiz tomonlaringiz bor. Hayotda shunday vaziyatlar uchraydiki, ojizligingiz pand berib qo'yishi, siz ham do'stingizni ranjitib qo'yishingiz mumkin.



Shu tufayli ham sizga nima yoqmasa, boshqalarga ham bu narsa yoqmasligini, siz qanchalar sadoqatli bo'lsangiz, boshqalardan ham shuni kutishga haqli bo'lishingizni unut-mang. Va aksincha, agar kimgadir xiyonat qilsangiz, qachondir u ham sizga xiyonat qilishi, bu esa ko'nglingizni nihoyatda og'ritishi mumkinligini yodda saqlang.

Bobur Mirzoning:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir, —*

degan o'gitlari zamirida juda katta hayotiy haqiqat mujassam.

Yana bir narsani bilib oling, do'stlik millat, diniy e'tiqod, mansab, boylik, chiroy, yosh tanlamaydi, chegara bilmaydi. U siz-u bizning bir-birimizni tushunishimiz, ko'nglimiz, dunyoqarashimiz yaqinligi, mutanosibliigi asosida yuzaga keladi. Bunga tarixdan ibratli misollarni ko'plab keltirish mumkin. Birgina Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy o'rtasidagi insoniy va ijodiy do'stlik-hamkorlik qancha samaralar berganini, bu do'stlikdan faqat bu ikki ulug' zotning o'zlarigina emas, atrofida, el-u yurt qancha manfaat topganini eslashning o'zi kifoya.



«Do'stlik» tushunchasi keng qamrovidir, ya'ni u faqat ikki inson o'rtasidagi munosabatlarnigina emas, millatlar, xalqlar, mamlakatlararo aloqalardagi ilqlikni, o'zaro ishonchlilikni ifoda etishda ham qo'llanadi.

Davlatlararo, millatlararo do'stlik an'analari dunyoda tinchlikning barqaror bo'lishi, mamlakatlar o'rtasidagi ishonchli hamkorlikning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Albatta, insoniyat o'z tarixida xalqlarni bir-biriga qarshi qayrovchi, millatchilik, buyuk davlatchilik singari zararli g'oyalarni targ'ib etuvchi yovuz kuchlarni ham ko'p ko'rgan. Jumladan, Ikkinchi jahon urushini boshlagan fashizmning tub mohiyatida bir millatni boshqa barcha xalqlardan ustun qo'yish g'oyasi yotar edi. «Oliy irq» g'oyasini ilgari surgan fashistlar dunyodagi juda ko'p millatlarni «ikkinchi-uchinchi navli» xalqlar deb kamsitish, ularning boyliklarini talab, madaniyatini vayron qilishni bosh maqsad etib belgilagan edi. Ular xalqlar o'rtasida dushmanlik kayfiyatini yoyish evaziga misli ko'rilmagan xunrezliklarni amalga oshirdi. Ayrim millatlarni ommaviy ravishda qirib tashlash fashistlar uchun oddiy mashg'ulotga aylangan edi. O'nlab konslagerlarda millionlab begunoh kishilarni tiriklayin yoqib yuborgan ham aynan fashistlardir. Insoniyat bu baloni daf qilmoq uchun qariyb besh yil urush olovini kechishga majbur bo'ldi.

Afsuski, bugungi kunda ham dunyoning turli hududlarida millat va elatlarni, turli din vakillarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymoqchi bo'layotgan kuchlar topilib turibdi. Millatlararo, mamlakatlararo munosabatlarni buzmoqqa urinayotgan bu yovuz guruhlarining maqsadi ma'lum, albatta. Xalqlar taqdirini o'zi bilganicha hal etish huquqini qo'lga kiritish, boshqa mamla-

katlarning yerosti va yerusti boyliklariga bemalol egalik qilish, oxir-oqibatda yer yuzida yangi ko‘rinishdagi quldorlik tuzumini yaratish bu kuchlarning pirovard maqsadidir. Shu tufayli ham siz hozirdan boshlab odamlar o‘rtasida dushmanlik kayfiyatini uyg‘otmoqchi bo‘lgan yovuz niyatli kuchlardan ogoh bo‘lishingiz, qaysi millat, qaysi mamlakat farzandi bo‘lmasin, yaxshi niyatli kishilarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatida bo‘lishingiz talab etiladi. Shundagina ona yurtimizning do‘stlari safi kengayib, uning dushmanlari hushyor tortishadi.

Do‘stlikning muhim shartlaridan biri vafodir.



Do‘stiga vafodor odam Vataniga ham, xalqiga ham vafodir. Aksincha, do‘stiga xiyonat qilgan insonning xalqqa, millatga, Vatanga ham xiyonat qilmasligiga kafolat yo‘q.

Haqiqiy do‘st o‘rtog‘ining muvaffaqiyatidan, g‘alabasidan xuddi o‘zinikidek quvonadi, muvaffaqiyatsizligidan xafa bo‘ladi, tashvish chekadi. U do‘stining xato-kamchiliklarini, noto‘g‘ri qo‘ygan qadamini yuziga aytadi. Bundan ko‘zlagan maqsadi aniq – do‘stini g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, to‘g‘ri yo‘lga solish, uni sharmandalikdan saqlab qolishdir. Bir so‘z bilan aytganda, do‘stidan ayrilib qolmaslik! «Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib» degan naqlga binoan do‘st achchiq haqiqatni gapiradi, lekin uning mevasi shirindir. Dushman esa sherigining xatosini ko‘rsa ham o‘zini ko‘rmaganga, sezsa ham sezmaganga oladi. Uning maqsadi bu odamning sharmanda bo‘lishi, el-u yurt ichida obro‘si to‘kilishini ko‘rish, shundan quvonishdir.



Kishilarning o‘zaro do‘stlashishida ularning xarakteri, qiziqishlari, saviyasi va iqtidori ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, aqli odam nodon va ahmoq kishi bilan, saxiy inson esa baxil kimsa bilan, jasur shaxslar qo‘rqoqlar bilan do‘st tutinib ketishi amrimahol.

Bu o‘rinda sevimli adibimiz Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi «Chin o‘rtoq» bobini yodga olish zarur. Asarning bosh qahramoni Anvar va uning saboqdosh sherigi Nasim o‘rtasidagi benihoya samimiy, beg‘ubor do‘stlik, Anvarning Nasim vafotidan keyingi ahvoli tasvirlangan sahifalar har qanday kishini to‘lqinlantirib yuboradi.



Yuqorida zikr etilganidek, bir-biriga zid dunyoqarashga, itilishlarga, o'y-fikrga ega bo'lgan kishilar do'st tutinishmaydi. «Ko'rkorni qorong'ida topibdi» deganidek, ayrim nopok, g'iybatchi, axloqsiz kimsalar o'zaro birlashib – go'yo «do'st tutinishib», o'zlarining qing'ir ishlarini birgalashib amalga oshiradi. Ular bu o'zaro birlashishlarini o'zlaricha «do'stlik» deb nomlansa ham, bu

to'dalashishning muqaddas do'stlik tushunchasiga hech qanday aloqasi yo'q. Xalqimizda «It yig'ini birikmas» degan gap bor. Bu nimaga ishora? Bu shunga ishoraki, asli yovuz, vayronkor, buzg'unchi niyatli kishilar chinakamiga birlashib, biror ezgu ishni amalga oshira olmaydi. Ular bir muddat birikib, o'zining kirdikorini – jinoyatini, o'g'riligini, talonchiligini amalga oshirishi mumkindir. Biroq o'sha tuban maqsadga erishilgach, ular endi o'zaro itdek g'ajishib, har tomonga tarqab ketishadi.



Boshqacha qilib aytganda, bunday to'dada do'stlikning o'zi bo'lmagani singari, vafo degan oliy tuyg'uning bo'lmasligi ham tabiiydir.

Demak, har birimizning qanday inson ekanligimizni odamlar do'stimizga qarab aniqlab olishsa, siz-u bizga shundan kelib chiqib muomala qilishsa, hayron bo'lmasligimiz kerak.



Do'stni yana qalinroq do'st qiladigan ham, dushmanga aylantiradigan ham insonning o'zidir.

Shu o'rinda Kaykovusning «Qobusnoma» asaridan joy olgan quyidagi fikrlari e'tiborlidir:

«Ey farzand, bilgilki, to kishi tirikdur, do'stsiz bo'lmag'usidir... Do'stlarning ishi haqida o'ylag'il, ularga hadyalar bermoq, muruvvatlar qilmoq bila do'stlik qoidasini mahkam qilg'il. Nedinkim, har kishi do'stlarni yod qilmasa, do'stlar ham yod qilmag'usidir va ul kishi hamisha do'stsiz qolg'usidir.

Hamma vaqt do'st tutmoqni odat qilg'il, zero ki, har kishining do'sti ko'p bo'lsa, ayblari shuncha sir tutilur va fazilati ko'payur.

Lekin har vaqt yangi do'st topsang, ko'hna do'stlarni tark etmag'il va ulardin yuz o'gurmag'il, toki hamisha do'sting ko'p bo'lsun, debdurlarki, yaxshi do'st kishiga ulug' ganjdur...

Yana bilg'ilki, do'stlarning do'stlari ham do'stlaringdur. Ehtimolki, uning o'sha odamga do'stlig'i sening do'stlig'ingdin ko'proqdur. Agar do'sting sening dushmaningni sevsan, bunday do'stdin ehtiyot bo'l, nedinkim, bunday do'st dushman tarafidin senga yomonlik qilishdin ham andisha qilmag'ay. Sening do'stingga dushman bo'lg'on do'stdin ham parhez etg'il...

Aqlsiz odamlar bila hargiz do'st bo'lmag'il. Aqlsiz do'st aqlli dushmandin yomonroqdur, chunki aqlsiz do'st shundoq ish qilurki, aqlli dushman uni qila olmas. Muruvvatlig', ilmlig' va vafolig' kishilarni do'st tutg'ilki, to sen ham ul fazilatlar bila yanada mashhur bo'lg'aysan. Bemuruvvat, mehr-shafqatsiz, hunarsiz (ilmsiz) kishilar bila o'lturmag'il. Behunar bila o'lturg'ondan tanholig' yaxshiroqdur...

Ey farzand, odamlar bila do'stlig'ing o'rtacha bo'lsun. Do'stim ko'p deb barchasiga umid bila ko'ngul bog'lomag'il, ilgari va keyinga qarag'il. Do'stlaringning e'tiqodidin g'ofil bo'lmag'il...»

1082–1083-yillarda — bundan o'n asr ilgari bitilgan ushbu o'gitlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Avval aytganimizdek, insonning yashash tarzi, turmush sharoitlari o'zgarib, yangilanib boradi, biroq uning tabiati, ruhiyati deyarli o'zgarmaydi. Bundan ming yil oldin ham odamlar chinakam do'st topishga qiynalغانlar, o'shanda ham do'stlik shartini buzib, nomardlik ko'chasiga kirgan kimsalar topilgan. Shu tufayli ham donishmand Kaykovus o'g'li Gilonshohga bag'ishlab asar bitar ekan, uni bunday fojialardan ogoh qilmoqni istaydi. Uning o'gitlaridagi muhim joylarga alohida e'tibor bering:

«*Har kishi do'stlarni yod qilmasa, do'stlar ham yod qilmag'usidur*» — do'stlardan gina qilish, ularni nohaq ayblashdan oldin har birimiz qusurni avvalo o'zimizdan axtarmog'imiz, do'stlarimizning ham ko'ngli xuddi biznikidek nozik ekanini hisobga olmog'imiz shart.

«*Har vaqt yangi do'st topsang, ko'hna do'stlarni tark etmag'il va ulardin yuz o'gurmag'il*» — xalqimiz: «Ko'ylakning yangisi, do'stning eskisi yaxshi», — deb bekorga aytmagan. Vaqtinchalik

foydani, manfaatni ko‘zlab topganimiz yangi «do‘stlar»ni deb, qadrdon bo‘lib ketgan birodarlardan yuz o‘girish insoniylikdan emasdir. Chinakam do‘st do‘stiga nisbatan hasad, kibr-u havo, manmanlik, sotqinlik, g‘arazgo‘ylik qilmaydi.




Xuddi shu tufayli ham Kaykovus do‘stlarni ikki toifaga ajratadi: 1. Non do‘stlari; 2. Or va nomus do‘stlari.

Shunday qilib, do‘stlik va o‘rtoqlik tuyg‘usi ulug‘ bir ne‘mat bo‘lib, inson hayotining bezagi hisoblanadi. Uni avaylab-asrash, qadrlash va haqiqiy do‘stlik qoidalariga amal qilish insonning qudratiga qudrat, kuchiga kuch baxsh etadi.



Savol va topshiriqlar:

1. Inson nima uchun do‘stga ehtiyoj sezadi, do‘stlari ko‘proq bo‘lishini xohlaydi?
2. «Do‘stlik ipini uzma, ulasang tugun qolar» degan maqolda qanday mazmun mujassamlashgan?
3. Tarix va adabiyotdan chinakam do‘stlik namunalariga misollar keltira olasizmi?
4. «Non do‘stlari» kim-u «or va nomus do‘stlari» kim?
5. Do‘stning dushmanga yoki dushmanning do‘stga aylanishiga nimalar sababchi bo‘ladi, deb o‘ylaysiz?
6. Xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik nimalar hisobidan mustahkamlanishi va aksincha, bu do‘stlikka qanday harakatlar raxna solishi to‘g‘risida quyidagi rasmlar asosida mulohaza yuring.



EKOLOGIK MADANIYAT

Bundan millionlab yillar ilgari – odamzot paydo bo‘lgan davrlardan boshlab son-sanoqsiz insonlar shu Yerning bag‘rida unib-o‘sgan, umrguzaronlik qilgan, rizqi ro‘z topgan. Bashariyatni boqadigan, kiyintiradigan, unga boshpana bo‘ladigan ona zamin koinot bag‘rida yagona va shu tufayli ham nihoyatda mo‘tabardir. Hozirgacha insoniyat o‘zi uchun yashashga undan boshqa makon topgani yo‘q, balki topa olmas ham. Hali-hanuzgacha odamlar osmondan yomg‘ir yoqqanini, qor-u do‘l yoqqanini ko‘rgan, lekin biror marta quymoq yoqqanini, non tushganini ko‘rgan emas, ya‘ni shu zamin, shu suv, shu havo – tabiat bo‘lmasa, inson bolasi u bilan «til topishib», o‘zi uchun rizq yaratmasa, bir burda ham non osmondan tushmaydi.



Shunday ekan, siz-u bizga – jamiki insoniyatga boyliklarini beminnat berayotgan, saxovatli bag‘rini ochib qo‘ygan tabiatni asrab-avaylash, uning ertangi taqdiri haqida qayg‘urish har bir kishining mas‘uliyati, zimmasidagi qarzidir.

Yurtboshimiz inson ma‘naviyatining yuksalishida ona tabiat, unga mehrlil munosabatda bo‘lish, go‘zalliklaridan zavqlanish hissi katta ahamiyatga egaligini alohida ta‘kidlaydi:



«Tabiatga yaqinlik, jonajon o‘lkaning benihoya go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma‘naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi»¹.

Tabiatni asrash, ekologik madaniyat oddiy ko‘nikmalarni egalashdan boshlanadi. Ko‘chada ketayotganda konfet qog‘ozini yoki pista po‘chog‘ini maxsus qutiga emas, duch kelgan joyga tashlasak, yo‘lakdan yurmasdan, maysalar ustidan bosib o‘tsak, ikki-uchta dovuchcha uzaman deb daraxtlar shoxini sindirsak,

¹ **Islom Karimov.** Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2006-yil, 54-bet.

qushlarning inini buzsak, ariqlarga axlat ag'darsak... bularning hammasi bizga onadek mehribon bo'lgan tabiatga nisbatan hurmatsizlik, uning ne'matlarini qadrlamaslik bo'ladi.

«Ekologik madaniyat» degan tushuncha zamirida ayni shu haqiqatni anglash, tabiat va jamiyat qonunlariga mos tarzda hayot kechirish talablari mujassamdir. Ekologik madaniyat ham umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi, uning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.



Ekologiya yunoncha so'z bo'lib, «oikos» – uy va «logos» – fan so'zlari qo'shilmasidan yasalgan, ya'ni ekologiya – «tabiat uyi» bo'lmish borliqdagi mavjudotlarning yashash sharoiti va ularning o'zlari yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan.

Garchi «ekologik madaniyat» iborasi keyingi davrlarda urfga kirgan bo'lsa-da, odamzot juda qadim zamonlardan boshlab tabiatni asrash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmasini egallab borgan. Agar qadimiy diniy qarashlar tarixiga nazar tashlasak, ularda tabiat unsurlarining, hayvon va boshqa jonivorlarning muqaddaslashtirilgani, hatto ularga sig'inilganiga guvoh bo'lamiz.



Jumladan, paydo bo'lish tarixi bizning o'lkamiz bilan bog'liq bo'lgan zardushtiylik ta'limoti va uning asosiy kitobi «Avesto»da dunyoning moddiy asosi hisoblangan tuproq, suv, havo muqaddaslashtirilgan, olovga esa sajda qilingan.

Havoni, suvni bulg'ash, hayvonlarninggina emas, odamlarning ham jasadini yerga ko'mish, suvga oqizish, o'tda yoqish gunoh hisoblangan. Marhumlar jasadi yerni, suvni, havoni ifloslantirmasligi uchun ularni maxsus sopol idishlarda ko'mish tashkil etilgan.

Undan keyingi davrlarda ham xalqimizning ona tabiatga bo'lgan mehri ortsa ortganki, aslo kamaygan emas. Masalan, hovli-joyni, ariq-hovuzlarni, quduq va sardobalarni doimiy toza saqlash, gul va nihollarni parvarishlab o'stirish, tevarak-atrofni ko'kalamzorlashtirish, bir gul uzganda o'rniga o'n gul o'tqazish singari ishlar – hayotning oddiy talabi, hamma tomonidan bajariladigan qoidasi bo'lgan. Yuksak dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan ajdodlarimiz qishloq xo'jaligida suvni tejab-tergab

ishlatishning, yer hosildorligini saqlash va ko'paytirish maqsadida ekinlarni almashlab ekishning, yerni faqat tabiiy o'g'itlar bilan oziqlantirishning samarali usullarini o'ylab topganlar.



Xalqimiz hayotida suvga axlat tashlash, uni bulg'ash katta gunoh sanalgan. Shu tufayli ham ko'chalardan, hovlilar orasidan oqib o'tadigan ariqlardan odamlar bemalol toza suv ichganlar, bolalar issiq kulchalarni oqizoq qilib yeganlar.

Islom dini ham tabiatni e'zozlash, uning ne'matlariga shukrona keltirish, isrofgarchilik, nopoklikdan saqlanish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Qur'oni karimning «A'rof» surasi 31-oyatidan bunday jummalarni o'qiyimiz (ma'nolari tarjimasini): «Ey, Odam avlodi!.. Yenglar va ichinglar, (lekin) isrof qilmangiz! Zero, U (Oloh) isrof qiluvchilarni sevmaydi».

Hadisi shariflarning birida esa: «Ertaga qiyomat degan kun ham daraxt ekingiz», – deyiladi. Bu hadisda g'oyat chuqur ma'no mujassam. Unda ertangi kunga ishonch bilan qarashga chaqiriq ham, badbinlik, tarkidunyochilikka berilmaslikka da'vat ham, tabiatni doimiy boyitib borishga undov ham borligini sezish mumkin.

Bularning barchasi xalqimizning qadim o'tmishdan o'ziga xos ekologik tafakkur va madaniyat sohibi bo'lganini ko'rsatadi.



Ekologik madaniyat qator omillar asosida shakllanadi. Tabiatga muhabbat, u haqdagi bilim va tasavvurlar, ekologik tarbiya, an'ana va qadriyatlar, ekologik targ'ibot shular jumlasidandir.

Endi ularning har biri haqida alohida to'xtalaylik.

Yaxshi bilasizki, barcha mavjudot singari inson ham tabiatning farzandi, uning eng erka, siylangan bolasidir. Tabiat boyliklaridan, uning ne'matlaridan biror jonzot insonchalik ko'p foydalanmaydi, bahramand bo'lmaydi. Agar e'tibor bersangiz, aksariyat jonivorlar faqat bir kunlik yegulik topish bilan cheklanadi, ertaga yoki bir haftadan keyin iste'mol qilish uchun zaxira to'plash ular uchun mutlaqo yot narsa. Har kuni ko'radiganingiz qushlarga nazar soling: ularning birortasi, masalan, kechqurun yeyish uchun don g'amlab qo'yganini ko'rganmisiz? Ko'rmagansiz. Odamlar-chi?



Bu savolga javobni hammamiz ham yaxshi bilamizki, hozir uni izohlab o'tirmaymiz. Uning o'rniga, tabiatdan shuncha rizq olayotgan, uning boyliklarini beminnat o'zlashtirayotgan shu odamlarning hammasi ham ona tabiatni sevadimi, unga ehtiyotkor munosabatda bo'ladimi, degan savollar ustida bosh qotirish muhimroqdir.



Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat insonlarning muttasil tabiat bag'riga talpinishi, uydan, shahardan tezroq chiqib, keng dasht-u dalalar, qir-adirlar, tog' va o'rmonlar, soy va daryolar bag'riga oshiqishining o'ziyoq odamzotning qon-qonida tabiat bilan birlik, u bilan uyg'unlik borligidan darak beradi.

Odamning uyda, ishxonada dimiqqan, toliqqan ruhi tabiat bag'riga chiqqach, birdan yengil tortadi, yangilanadi, yashnaydi. Uzoq vaqt onasini ko'rmagan, sog'inchdan yuragi siqilgan farzand mehribon volidasini ko'rgach, qanchalik sevinsa, uning issiq bag'rida o'zini unutsa, odamlar ham tabiat quchog'ida o'zlarini xuddi shunday his qiladilar. Chunki odamning butun borlig'i, tan-u joni mana shu tabiatsiz, atrofdagi olamsiz mavjud bo'lishi, usiz yashashi va kamol topishi mumkin emas. Shunga ko'ra, insonning ona tabiatni sevmasligi, uni asrab-avaylashga urinmasligi ham aslida mumkin emasdek tuyuladi.

Afsuski, o'zini tug'ib voyaga yetkazgan onasini hurmat qilmaydigan, uning yuziga oyoq bosishdan toymaydigan nobakor farzandlar bo'lgani kabi, tabiatning boyliklarini behisob o'zlashtirishgagina o'rgangan kimsalar ham hayotda uchrab turadi. Bu xil kishilar nazarida, tabiatning boyliklari hech qachon tugamaydi, uni parvarish qilish, asrab-avaylash, u to'g'rida g'amxo'rlik ko'rsatish ham shart emas. Mana shu toifa odamlar qilmishiga nazar tashlasak, ulardan ona tabiatimiz qanchalar jabr ko'rayotganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, ular dam olish, sayr qilish maqsadida tog' yon bag'irlarigami, ko'm-ko'k suvli ko'l sohiligami borishadigan bo'lsa, bu so'lim go'shalar o'zlaridan keyin ham boshqalar zavq olishi uchun shunday saqlanishi

kerakligini o'ylashmaydi ham. Dam olish, hordiq chiqarish madaniyatidan yiroq bo'lgan bunday odamlar, yashnab turgan dov-daraxtlarni sindirib ovqatiga o'tin qilish, sabzavot va poliz ekinlari po'choqlarini ariq yoki ko'llarga tashlash, turli ichimliklardan bo'shagan shishalarni har tomonga uloqtirish, qozon-tovoqlaridagi qoldiqlarni oqar suvlarga chayish singari xunuk ishlarni oddiy narsa deb o'ylaydilar. Holbuki, ularning bu qilmishlari tufayli tabiat bag'rida ne-ne jarohatlar, tuzalmas yaralar qoladi.



Garchi tabiatning tili yo'q – o'z og'riqlarini, dardlarini aytib arz qila olmasa-da, uning avvalgi chiroyli, xushro'y yuzida paydo bo'lgan bunday dog'lar tabiatning holidan barchamizni ogoh etishi kerak.

Demak, tabiatga muhabbat, unga mehrlil munosabatda bo'lish insoniylikning muhim o'lchovlaridan hisoblanib, unga qarab odamning qanchalik tarbiyali, madaniyatli, farosatli ekanini bilish mumkin ekan.

Tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar insonda juda yoshligidan boshlab shakllana boradi. Bolalar bog'chalarida kichkintoylar o'ynaydigan o'yinchoqlardan tortib, ularning kiyim javoni va yotadigan o'rnigacha, yostiq jildi-yu cho'miladigan hovuzigacha – barcha jihoz-u buyumlarda turli gul-daraxtlarning, hayvonlarning ajoyib tasvirlari bo'ladi. Ko'l va daryolar bag'ridan keltirilgan, ichida mayda chig'anoq bo'laklari to'la mayin qumlardan bolalar turfa jonivorlar haykalchalarini, tog'-u adirlar ustiga qurilgan jaji qo'rg'on-qasrlarni yasashadi.

Qishloq bolalarining aksariyat vaqti tabiat bag'rida kechadi. Ular kelayotgan bahorning hidini ariq lablarini qoplagan yalpizning ham o'tkir, ham yoqimli bo'yidan olishadi. Ariqlarni to'ldirgan suv o'tlarining xuddi qizlarning sochidek mayin chayqalishi, tog'-adirlar tomondan esadigan muzdek shabada, uzoq-uzoqlardan kelayotgan qo'y-qo'zilarining tovushi – bularning barchasi qishloqlik bolalar hayotining bir bo'lagi, ular tasavvurlarining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Ularning shahardagi tengdoshlari hayvonot va istirohat bog'lari, sirk tomoshalari orqali tabiat jonzotlari bilan yuzma-yuz bo'lishadi. Po'sti har qancha chiroyli, naqshinkor bo'lmasin, ilonning turqi juda sovuqligini, aksincha – ko'rinishi bir qaraganda ancha xunuk, beso'naqay



tuyulmasin, toshbaqaning qanchalik beozorligini, bo‘rining tashqi ko‘rinishi hovlisidagi kuchugidan unchalik farq qilmasligi-yu jayronning ko‘zi naqadar chiroyli bo‘lishini ko‘rishadi, ular haqidagi tasavvur va bilimlari ortadi.

Maktabdagi saboqlar davomida biz endi tabiatning umumiy tuzilishi, Yer yuzidagi iqlimlar, qit‘a va materiklar, okean hamda dengizlar, tog‘lar va vulqonlar, hayvonot va o‘simliklar olami haqida aniq bilimlarga ega bo‘lib boramiz. Masalan, Shimoliy qutb yoxud Antarktidada abadiy muzliklar makon tutgani holda, Afrikaning ko‘plab hududlarida nima uchun umuman qor yog‘masligini «Geografiya» darsidan bilib olsak, mittigina arining beshta ko‘zi borligi yoki chigirtkaning qulog‘i oyog‘ida joylashganini bizga «Zoologiya» darsligi tushuntirib beradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, gazeta va jurnallar, televideniye va radio, Internet materiallari orqali bizdan o‘n minglab chaqirim uzoqda joylashgan yurtlarning rang-barang tabiati, hayvonot hamda o‘simliklar olami to‘g‘risida bir-biridan qiziq ma‘lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.



Bu bilim va tajribalar bizning tabiat to‘g‘risidagi, uning naqadar qudratligi va shu bilan birga, qanchalar himoyaga muhtojligi haqidagi tasavvurimizni boyitadi.

Ekologik tarbiya faqat maktab ta‘limi bilan cheklanib qolmasdan, oila, mahalla muhitida ham davom etadi. O‘zbekistonimizda hovli-joylar, ko‘cha va mahallalarning saranjom-sarishtaligiga, ular hududiga mevali va manzarali daraxtlar o‘tqazishga, ariq-zovurlarni doimiy tozalab turishga alohida e‘tibor beriladi. Har yili bir necha marotaba hasharlar uyushtirilib, odamlar obo-donchilik ishlarida ishtirok etadi. Mana shu jarayonda kattalarning yoniga kirib, «Men nima qilay, menga ham biror ish bering» deydi bolalar ko‘plab topiladi. Kattalar yerni qanday ag‘daryapti, daraxt ostini qanday yumshatyapti-yu, gulning tagiga belkurakni qancha botiryapti, daraxtlarning tarvaqaylab ketgan shox va novdalarini kesishda nimaga e‘tibor beryapti, anjirni

qanday qalamcha qilish kerag-u, uzum tokining ostiga suv nega kam quyilyapti – bularning barchasi siz va tengdoshlaringiz uchun aslida juda katta saboq, tajriba hisoblanadi. Bu yumushlar odamdan faqat kuchni, peshona terinigina emas, balki uquvni ham, bilimni ham, sabr-u bardoshni ham talab etadi.

Agar bu gaplar o‘simliklar parvarishi bilan bog‘liq bo‘lsa, har bir uy hayvonini asrash, ularni kasal qilmasdan boqish, bu tilsiz jonivorlar bilan «tillashish» uchun ham alohida qobiliyat kerak. Xalqimizning bu borada uzoq davrlar sinovidan o‘tgan ajoyib maqollari ham bor. Mana ulardan ayrimlari:



«Agar bo‘lsa oqlig‘ing, bilinmaydi yo‘qlig‘ing» («oqlik» – sut-qatiq), «Molga bersang soz yemish, boqar seni yoz-u qish», «Ot bo‘lsa, maydon topilar, ot bo‘lmasa, maydon chopilar», «Ot oyog‘idan semirar», «Sigirli uyda sil bo‘lmas», «Ot sag‘ridan, qo‘y – bag‘ridan» va hokazo.

Agar dono xalqimizning o‘simlik va hayvonot dunyosining parvarishiga oid ana shunday tajribalarini qunt bilan o‘zlashtirsak, tabiatni asrash, uni parvarish qilish ko‘nikmalarini o‘rganib borsak, bizni o‘rab turgan atrof-olam ham go‘zallashadi, ko‘nglimiz ham ravshanlashadi.

Kishilarning ekologik madaniyatini o‘stirishda shu yo‘nalishdagi targ‘ibot-tashviqot ishlari ko‘lami va ta‘sirchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda respublikamizdagi qator davlat va jamoat tashkilotlari, jamg‘armalar, ommaviy axborot vositalari bu masalaga alohida e‘tibor bermoqda. Televideniye ekranlari va radio to‘lqinlaridan tabiatni asrash, suvning, havoning tozaligini muhofaza qilish, ozon qatlami yemirilishining oldini olish, xazon va chiqindilarni yoqmaslik singari dolzarb muammolarga kishilar e‘tiborini jalb etishga mo‘ljallangan ko‘rsatuv va eshittirishlar muntazam berib borilyapti. Ta‘lim-tarbiya muassasalarida, korxonalar va tashkilotlarda, mahalla gazarlarida ekolog mutaxassislar ishtirokida tashkil etilayotgan davra suhbatlari, yoshlarimiz uyushtirayotgan turli anjumanlar, tabiat bag‘riga ma‘rifiy sayohatlar yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodni bu muhim masalada sergak bo‘lish, xotirjamlikka berilmaslikka da‘vat etmoqda.



Chunki, bugungi kunda Yer yuzida shunday murakkab ekologik muammolar paydo bo‘lmoqdaki, ular nafaqat ayrim davlatlar, balki butun insoniyatning kelgusi hayotini, odamzot tirikligini jiddiy xavf ostida qoldirishi mumkin.

Bunday muammolar sirasiga atmosfera ozon qatlaminin yemirilishi, chuchuk suv zaxiralarinin kamayishi, abadiy muzliklarning eriyotgani, jahon okeanining va kosmik fazoning ifloslanishi, dunyoning «Qizil kitob»iga kiritilgan noyob o‘simlik va hayvonlarning keskin kamayib borayotgani va boshqa ko‘plab dolzarb muammolarni kiritish mumkin. Ommaviy axborot vositalari dunyoning hali u, hali bu hududida juda katta suv toshqinlari, o‘rmon yong‘inlari, yer ko‘chishlar, qurg‘oqchilik yoxud o‘ta sovuq ob-havo kuzatilayotgani to‘g‘risida ketma-ket xabarlar tarqatayotgani bejiz emas. Bunga qo‘shimcha ravishda har yili o‘n minglab odamlar hayotiga zomin bo‘layotgan kuchli zilzilalar, dengiz va okeanlardagi to‘fonlar, dahshatli bo‘ron va dovullarni aytish mumkin. Bularning barchasi bir kunda yoki to‘satdan paydo bo‘lib qolgan muammolar emas, albatta. Tabiatda yuz berayotgan aksariyat falokatlar, o‘zgarishlar zamirida insoniyat tomonidan yo‘l qo‘yilgan fojiali xatolar, tabiatga shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lishning og‘ir asoratlari yotibdi.



Ekologik muammolar tabiat ilmini bilmasdan, uning qonuniyatlariga zo‘ravonlik bilan aralashish oqibatida kelib chiqadi.

Faqat foyda ketidan quvishga o‘rganib qolgan yirik sanoat korxonalari, ularning ishlashi uchun xomashyo tayyorlaydigan katta-kichik zavod-fabrikalar, tayyor mahsulotlarni dunyoning turli chekkasiga yetkazishga shoshayotgan barcha turdagi transport vositalaridan atmosferaga chiqayotgan zaharli gazlar, bug‘lar, turli-tuman chiqindilar atrof-muhitning katta ko‘lamda ifloslanishiga, havoning, suvning, yerning tabiiy tarkibi keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Suvdek noyob tabiiy boylikdan tejimli foydalanish o‘rniga uni isrof qilish, kuchli zilzilalar bo‘ladigan seysmik hududlarda ulkan to‘g‘onlar, elektrostansiyalar qurishga zo‘r berish, daryo va soylarning o‘zanini boshqa tomonga burish singari puxta o‘ylanmasdan amalga oshiriladigan ishlar, albatta, tabiat muvozanatini buzib yuboradi. Eng xatarlisi,

yo‘l qo‘yilgan bu xatolarni tuzatish, izdan chiqqan muvozanatni qayta tiklash keyinchalik nihoyatda qiyin bo‘ladi.



Shuni bilishimiz kerakki, tabiat – mukammal tizim. Uni ekotizim deymiz. Ekotizimga yuksak aql-idrok asosida yondashish, uning muvozanatini hech qachon buzmaslik lozim.

Afsuski, bizga sobiq sho‘rolar davlatidan og‘ir ekologik muammolar ham meros bo‘lib qolgan. Yurtboshimiz mazkur masalaga o‘tgan asrning 90-yillaridayoq butun jahon ahlining e‘tiborini qaratgan edi:



«Ma‘naviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo‘lgan munosabatini ham o‘z ichiga olishi lozim...

Afsuski, oxirgi yuz yillikda aynan mintaqaning ekologik tizimiga juda katta zarar yetkazildi. Ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish sohasidagi an‘anaviy odob-axloq qoidalari unutilib yuborildi. Bu qoidalarga ko‘ra suv va yerni o‘ylamay-netmay bulg‘ash, isrof qilish gunohi azim hisoblanar edi»¹.

Mintaqamizdagi ekologik muammolardan eng kattasi, bilasiz-ki, Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq. O‘zbekiston bu masalaning ijobiy yechimini topish, muammoni yanada chuqurlashishining oldini olish, Orolbo‘yi hududida yashovchi aholini har jihatdan muhofaza qilish borasida ko‘plab chora-tadbirlarni ko‘rmoqda. Respublikamiz rahbariyati bu murakkab masalaga dunyo hamjamiyati e‘tiborini jalb etayotgani ham Orol muammosi birikki davlatning emas, butun Yer yuzining muammosiga aylanganini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 20-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisida so‘zlagan nutqi muhim ahamiyatga egadir:



«Orol fojiasi ekologiya muammolariga mas‘uliyatsiz munosabatda bo‘lishning yaqqol misolidir. Bir paytlar noyob va go‘zal dengizlardan biri bo‘lgan Orol bir avlod hayoti davomida deyarli qurib va yo‘qolib borayotgan suv havzasiga aylandi.

Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi

¹ **Islom Karimov.** Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. / O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. –T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 1998-yil, 131-bet.



esa o‘nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo‘qoldi...

Orol dengizining qurishi davom etayotgani va uning atrofiga gumanitar falokat sodir bo‘layotgani sababli Orolbo‘yi-

ning tabiiy biologik fondini asrab-avaylash, Orol inqirozining atrof-muhitga, eng muhimi, bu yerda istiqomat qilayotgan yuz minglab va millionlab odamlar hayotiga halokatli ta‘sirini kamaytirish bugungi kundagi eng muhim vazifa hisoblanadi»¹.

Shukrki, bizning mamlakatimizda mustaqillik yillarida yurtimiz tabiatini asrash, uni yanada boyitish borasida ulkan ishlar amalga oshirilyapti. Avvalo, tabiatni muhofaza qilishning qonuniy asoslarini mustahkamlashga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda davlatimizda «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida» (1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan), «Chiqindilar to‘g‘risida» (2002-yil 5-aprel), «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida», «Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlari to‘g‘risida», «Yerosti boyliklari to‘g‘risida» (barchasi 1993-yil 7-mayda qabul qilingan) va boshqa qonunlar, ko‘plab kodekslar qat‘iy amal qiladi. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlari zamon talabiga mos ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu muhim vazifalarni bajarishga nafaqat davlat tashkilotlari, balki ko‘plab jamoatchilik tashkilotlari ham faol jalb etilyapti.



Jumladan, O‘zbekiston Ekologik harakatiga Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida 15 ta deputatlik o‘r-nining ajratilishi mazkur jamoatchilik harakati olib borayotgan faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning amaldagi ko‘rinishi bo‘ldi.

Diyorimizda aholining diqqat-e‘tibori tabiatni asrash sohasiga qaratilib, fuqarolarning ekologik madaniyatini, bilim va saviyasini yuksaltirishga ustuvor ahamiyat berilyapti. Natijada mamlakati-

¹ «Ma‘rifat» gazetasi, 2010-yil, 22-sentabr soni.

mizning barcha viloyat va tumanlarida ko‘plab bog‘-rog‘lar, o‘rmonlar, yangi suv havzalari, qo‘riqxonalar tashkil etilyapti. Qishloq xo‘jaligida suvdan, yerdan samarali foydalanish, buning uchun esa tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash, zaharli kimyoviy o‘g‘itlarni ishlatishga chek qo‘yish, ularning o‘rniga tabiiy o‘g‘itlar solish hamda ekinlarni almashlab ekish yordamida yerning holatini yaxshilash masalalariga e‘tibor kuchaydi. Aholini suv bilan ta‘minlaydigan tabiiy chuchuk suv manbalari xavfsizligi va tozaligi muntazam nazorat qilinmoqda. Korxonalariga ekologik jihatdan zararsiz, zamonaviy asbob-uskunalar o‘rnatilyapti, chiqitsiz ishlaydigan texnologiyalardan foydalanish yo‘liga o‘tilyapti.



Bularning barchasi, albatta, nafaqat bugungi kunda hayot kechirayotgan odamlar manfaatlarini ko‘zlab, balki yaqin va uzoq kelajakda shu ona zaminda yashashi lozim bo‘lgan avlodlar baxt-u iqbolini ham o‘ylab amalga oshirilayotgan savobli ishlardir.



Savol va topshiriqlar:

1. Insonni nima uchun tabiat farzandi deb ataymiz?
2. Odamlarning tabiat bag‘riga talpinishi ularda qanday xususiyatlar borligini ko‘rsatadi?
3. Ekologik madaniyat qanday bilim va ko‘nikmalar evaziga hosil bo‘ladi?
4. Keyingi paytlarda ekologik muammolarning keskin ko‘payishiga nimalar sabab bo‘lyapti?
5. Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng dolzarb ekologik muammolar sifatida nimalarni ko‘rsatish mumkin?
6. Ushbu rasmlar asosida tabiat va uni asrash to‘g‘risida hikoya tuzing.





BIZGA TANISH VA NOTANISH TABIAT

(Amaliy mashg'ulot)

Bu amaliy mashg'ulotni tashkil etish uchun, avvalo, sinfdagi barcha o'quvchilar o'zlari yashaydigan hududdagi tabiat, o'simliklar, hayvonot olami namunalari to'g'risida ma'lumot tayyorlaydi. Ularning ayrim namunalarini (masalan, tuvakda parvarishlanayotgan turli gullar, daraxtlar bargi, mevasi, uyda saqlanayotgan qushlar, toshbaqa, zaharsiz hasharotlar, buloq suvi va shu kabi tabiat ne'matlarini) mashg'ulot joyiga olib kelish ham mumkin.

Har bir o'quvchi o'zi tanlagan narsa to'g'risida iloji boricha ko'proq ilmiy ma'lumot to'plab, sinfdoshlariga gapirib berishi lozim. Buning uchun maktab kutubxonasidagi «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», «Bolalar ensiklopediyasi», hayvonot va nabotot olamiga doir ko'plab adabiyotlardan foydalanish mumkin. Qolaversa, u yoki bu daraxt, o'simlik, gul, hayvon, hasharot yoki buloq suvi to'g'risida uydagi kattalardan so'rab-surishtirish, ularning o'ziga xos jihatlarini yaxshilab bilib olish imkoniyati bor.

Bunda quyidagi ma'lumotlarni aniqlashtirishga ahamiyat bering:

– Daraxt, o'simlik, gul yovvoyi holda o'sadimi yoki xonakilashtirilganmi?

– Ularni xonakilashtirish umuman mumkinmi-yo'qmi?

– Ular qachon gullaydi, qachon meva tugadi, qachon bargini to'kadi?

– Ularning yashash muddati qancha – bir yillikmi yoxud ko'p yillikmi?

– Keyingi paytlarda ular ko'payib boryaptimi yoki aksincha? Buning sababi nimada?

– Ular qanday ko'paytiriladi yoki tabiiy ravishda qanday ko'payadi?

- Ular qanday shifobaxsh xususiyatlarga ega?
- Hayvon, qush, hasharot yovvoyi holda yashaydimi yoki uyda yashaydimi?
- Ular nima yeb oziqlanadi, oziqni qayerdan topadi?
- Keyingi paytlarda ular ko‘payib boryaptimi yoki aksincha? Buning sababi nimada?
- Ularning parvarishida nimalarga ko‘proq e‘tibor berish lozim?
- Ularning yashash muddati qancha?
- O‘rganilayotgan jonzot yurtimiz ekologik tizimida qanday ahamiyatga ega va hokazo.

Bu va boshqa ko‘plab qiziqarli savollarga topilgan javoblar, o‘ylaymizki, sizning va sinfdoshlaringizning bir qarashda e‘tiborsiz o‘tib ketadiganimiz tabiat mo‘jizalari haqidagi bilim va tasavvurlaringizni boyitadi. Bu ma‘rifiy tajriba esa sizni va do‘stlaringizni har bir giyohga, mavjudotga e‘tiborli munosabatda bo‘lishga undaydi. Shu tariqa ona tabiatga muhabbat, unga mehrlil, shafqatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini egallaysiz.



VAQTNI QADRLASH – MA’NAVİYAT MEZONI

Hurmatli o‘quvchi, Yurtboshimiz siz-u bizga – yosh avlodga qarata aytgan g‘oyat ibratli fikrlar bilan, keling, suhbatimizni boshlaymiz:



«Har bir avlod tarixning o‘ziga tegishli sahifasini o‘zi yozishi kerak»¹.

Prezidentimizning bu chaqirig‘i zamirida nihoyatda katta, zalvorli ma’no-maqсад mujassam. Avvalgi darslarimizda ta’kidlaganimizdek, bizning o‘tmish mutafakkirlarimiz, ulug‘ allomalari-miz, buyuk sarkardalarimiz tarix o‘zlari uchun ajratgan sahifalarni oltin harflar bilan to‘ldirib, nafaqat bizga, balki butun insoniyatga asqotadigan buyuk kashfiyotlarni – ilmiy, madaniy, ma’naviy boyliklarni yaratishgan. Davlatchilikni tashkil etish va uni boshqarish bilan bog‘liq noyob tajribalarni ham qoldirishgan. Bu juda boy meros bilan har qancha faxrlansak, g‘urur-iftixor qilsak arziydi, albatta. Ayni vaqtda masalaning boshqa jihati ham bor. Bu borada Yurtboshimiz bugungi avlod, jumladan, o‘sib kelayotgan yoshlarimiz e’tiborini quyidagi muhim masalaga qaratadi:



«O‘tmish bilan faxrlanish kerak, iftixor qilish zarur, lekin biz faqat shu bilangina chegaralanib qolishimiz mumkin emas. Sababi – faqat o‘tmish obro‘si bilan yashab bo‘lmaydi»².

Demak, har bir avlod o‘lmas qadriyatlarni asrab-avaylash, ularga sodiq bo‘lish bilan birga, bu qadriyatlarni yanada boyitish, millat va mamlakat rivoji uchun zarur bo‘lgan ko‘pdan ko‘p yumushlarni bajarish yo‘lida jonbozlik, fidokorlik ko‘rsatishi talab etiladi. Chunki, bugungi taraqqiyot, tezkor zamon yosh avlodimiz

¹ **Islom Karimov.** Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. –T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2006-yil, 56-bet.

² O‘sha manba, 43-bet.

oldiga ham ko‘plab muammolarni, talablarni qo‘ymoqda. Mana shu talablarga mos harakat qilish, mamlakatimiz iqtisodini, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy sohalarini rivojlantirish mas‘uliyati vaqtdan, o‘tayotgan har bir kundan unumli foydalanishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» kitobining «Eng buyuk jasorat» deb nomlangan qismida Prezidentimiz ayni masalaga doir quyidagi muhim fikrni ilgari suradi:



«Menga buyursa, har kuni, har soatda fidoiy bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, deb aytgan bo‘lar edim»¹.

Akademik shoir G‘afur G‘ulom esa o‘zining «Vaqt» she‘rida:

*Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog‘idir umr daftarin, –*

deb yozgan edi. «Umr daftari» degan ibora juda katta ma‘noga ega.



Har bir avlod singari, har bir insonning ham umr daftari bo‘ladi. Ayni daftarni «shoh satrlar» – ezgu ishlar, yaxshiliklar bilan bezash o‘zimizning qo‘limizdadir. Bunda fursatni g‘animat bilmoq, vaqtni qadrlamoq nihoyatda muhim.

Xo‘sh, shoir nega vaqtga – fursatga bu qadar urg‘u beryapti, uni «aziz onlar» deya ta‘riflayapti?

Agar ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, hozircha siz umrning qadri va qimmatini to‘la anglab yetishingiz qiyin. Buning iloji ham yo‘q. Chunki, ayni pallada sizga umrning cheki-chegarasi be-poyondek, hali hamma narsa oldindadek tuyulishi tabiiy holdir. Shunday bo‘lsa-da, vaqt mezoni, umr lahzalarining nima ekani, undan qanday samarali foydalanish lozimligi to‘g‘risida fikrlashib olishimiz foydadan xoli bo‘lmaydi.

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 165–166-betlar.



Shuni aytish kerakki, ma'naviyat insonning muayyan tartib-qoidalar asosida yashashini talab qiladi. Chunki tartib-intizom bor joydagina ma'no-mazmun bo'ladi. Hayotni ma'lum tartib asosida tashkil etish zarurati insonni vaqt bilan hisoblashishga, uning qadriga yetishga undaydi.



Vaqtning qadriga yetish xalqimizning maqol va hikmatlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, «Vaqtning ketdi – naqding ketdi», «Fursat – oqar suv», «Vaqt – odil hakam» singari maqol va hikmatlar shular jumlasidandir.

Bir o'ylab ko'ring: nega xalq vaqtning besamar o'tishini insonning qo'lida, imkonida turgan naqdning qo'ldan boy berilishi bilan teng qo'yayapti? Axir, vaqtning cheki-chegarasi bo'lmasa, biror ish bugun emas, ertaga bitsa, osmon uzilib yerga tusharmidi?

Hamma gap shunda-da! Garchi vaqt chegarasiz, hech qachon tugamaydigandek tuyulsa-da, biroq inson umrining chegarasi – oxiri bor. Odamning orzulari esa cheksiz. Bu orzularning hammasiga yetishish qiyin bo'lsa-da, iloji boricha ko'prog'i amalga oshishi uchun ham vaqtni boy bermaslik lozim.

Siz yosh bola bilan kattalarning, ayniqsa, kekxa odamning harakatlarini o'zaro solishtirib ko'ring. Hali yelkasida burch, mas'uliyat tuyg'usi bo'lmagani, asosan o'z huzurini, vaqtini zavqli o'tkazishni o'ylagani tufayli bolalar boshqalar dardiga beparvo, o'yinqaroq bo'ladi. Odamning yoshi ulg'ayib borgani sayin esa u iloji boricha ko'proq foydali ish qilib qolishga shoshadi. Unga har doim vaqt kamlik qiladi, xalq iborasi bilan aytganda, «bosh qashishga ham qo'li tegmaydi».

Demak, vaqtning inson hayotiga, uning faoliyatiga, dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'siri g'oyatda kuchli. Binobarin, vaqtdan unumli foydalanish, vaqtga qarab, u bilan hisoblashib harakat qilish ma'naviy hayotning muhim omillaridan biridir.

Vaqtdan to'g'ri foydalanish deganda, uning har bir daqiqasini oqilona taqsimlash tushuniladi. Umuman, ixtiyorimizdagi vaqtni

ikki qismga ajratish mumkin: bandlik vaqti va bo'sh vaqt. Bandlik vaqtida inson o'zi, oilasi, jamiyat va xalq foydasiga biror-bir ish bilan mashg'ul bo'ladi.

Bo'sh vaqt esa insonning o'qish, ish, xizmat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vaqti. Bo'sh vaqtda inson dam oladi, jismoniy va aqliy quvvatini tiklash maqsadida jismoniy tetiklashtiruvchi, ko'ngilochar yoxud maroqli yumushlar bilan shug'ullanadi. Bunga farzandlar tarbiyasi, kitobxonlik, sport va san'at bilan, jamoat ishlari bilan shug'ullanish, teatr, kino, turli bayram tadbirlarida dam olish, sayr qilish kabi mashg'ulotlar kiradi. Bo'sh vaqtni ham kishi faol o'tkazishi mumkin. Mana shu tarzda foydalanilgan bo'sh vaqt odamni faqat jismonan dam oldiribgina qolmasdan, balki uning intellektual jihatdan yanada rivojlani-shiga omil bo'ladi. Masalan, yaxshi spektaklni tomosha qilgan kishi qandaydir ikki soat ichida juda katta ma'rifiy va ma'naviy quvvat olib chiqishi mumkin.

Shaxsning o'z qiziqishlari yoki oila a'zolarining istak va xohishlariga ko'ra tashkil etadigan ko'ngilochar mashg'ulotlari bo'sh vaqtni chuqur mazmun va mohiyat bilan to'ldiradi. Aksincha, faqat uyqu va bekorchilik bilan o'tkaziladigan bo'sh vaqtni esa umrni shamolga sovurish bilan qiyoslash mumkin.

Insonning kundalik hayoti qat'iy asosda tashkil etilgan taqdir-dagina bekorchilikka, zerikishga o'rin qolmaydi. Fransuz adibi Stendal «Bekorchilik — zerikishning onasidir», deya bekor-ga ta'kidlagan emas.



Bekorchilik va zerikish esa odamni loqayd, beparvo, vaqtni qadrlamaydigan, ichkilikbozlikka, kashandalikka ruju qo'yishga, ma'naviy nopok ishlarga qo'l urishga moyil qilib qo'yadi.

Demak, bo'sh vaqt kim uchundir oltindan qimmat ahamiyat kasb etib, uning ma'naviy takomiliga xizmat qilsa, boshqa biron uchun esa ixtiyorini qo'lidan olib, jarlik sari yetaklab ketuvchi falokatli onlarga aylanishi hech gap emas.



Shu ma'noda vaqtni behuda sovurish, biror yumush bilan band bo'lmasdan o'tkazish odam uchun jiddiy xavf tug'diradi. Gap shundaki, inson tafakkuri bo'shliqni, faoliyatsizlikni yoqtirmaydi.

Foydali mashg'ulot bilan band bo'lmagan kishi aql-u idrokiga turli bema'ni fikrlar, hatto buzg'unchilikka undovchi mayllar xuruj qiladi. Vaqtini mustaqil boshqarib, o'zi uchun foydali mashg'ulot topa olmaydigan odam boshqalarning ta'siriga tushib qolishi ham hech gap emas. Xuddi shunday yoshlar sekin-asta bezorilik, o'g'rilik yo'liga kirib qolganini sezishmaydi.

Bugina emas, ayrim ongi past, dunyoqarashi tor yoshlar turli ekstremistik guruhlar aldoviga uchib, ularning qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qolmoqda. Ular na Vatanni, na millatni, na ota-onani tan oladi. Ong-u shuurini jaholat egallagan bunday kimsalarning bosib o'tgan hayot yo'liga razm solsak, ko'ramizki, ular na maktabda, na boshqa biror o'quv yurtida yolchitib ta'lim-tarbiya olgan. O'qishga ketdim, deb uydan chiqib, turli hujralarga bosh egib kirgan, u yerda insonga nafrat, millatga dushmanlik «sabog'i»ni olgan. Ayrimlari esa xorijiy yurtlarda darbadar kezib, turli ekstremistik tashkilotlarning markazlarida qo'nim topgan. Bu joylarda ularga odam o'ldirish, obod shahar va qishloqlarni vayron qilish, tinch aholi ko'ngliga vahima-qo'rquv solish usullari o'rgatilgan. Mamlakatimiz poytaxti Toshkentda 1999-yilning 16-fevrali, 2004-yilning 28–29-mart va 1-aprel kunlari, shuningdek, 2005-yilning 12-may kuni Andijon shahrida sodir etilgan mud-hish terroristik xurujlar aynan mana shunday jirkanch kimsalarning kirdikori hisoblanadi.

Ko'ryapsizki, xalqimiz «Bekorchidan Xudo bezor» degan maqolni bejiz aytmagan.



Bekorchilik insonning ko'nglida, ongida, imonida bo'shliq hosil qiladi. Bunday qalbni nafaqat insonga hurmat, balki Yaratganga shukronalik, uning oldidagi mas'uliyat – javobgarlik tuyg'usi ham tark etadi. Qalbida imon-e'tiqod, Vatanga muhabbat hislari bo'lmagan kimsadan esa har qanday yovuzlikni kutish mumkin.

Bo'sh vaqtingizning katta qismi oilangiz davrasida o'tadi. Shu bois ota-onangiz xatti-harakatlaridan saboq olishingiz, ular bilgan kasb-hunar sirlaridan voqif bo'lishingiz zarur. Kelgusi hayotingizda asqatadigan zarur bilim va ko'nikmalarni egallash yo'lida mehnatdan qochmaslik, erinmaslik lozim.

Siz, bundan tashqari, ta'lim va madaniyat maskanlari, mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida tashkil etilgan hunar va

sport to'garaklariga muntazam qatnashish orqali bo'sh vaqtingizni mazmunli o'tkazish imkoniyatiga egasiz. Yoshingiz, qiziqishingizga mos film, spektakl, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, mazmunli radioeshittirishlarni tinglash esa sizning tasavvur doirangizni kengaytirib, didingiz va dunyoqarashingiz boyishiga yordam beradi.

Inson asrlar davomida badiiy asardan ma'naviy oziqlanib, o'zini qiziqtirgan savol va jumboqlarga javob topib keladi. Qolaversa, badiiy asar qayg'uli kunlarda ham, yolg'iz qolgan damlarda ham yaqin maslahatchi, sadoqatli hamroh hisoblanadi.

Kitob – bebaho boylik ekanini ko'p eshitgansiz. Afsuski, bu boylikdan bahramand bo'lishga shoshilmayotgan, unga e'tiborsiz qarayotgan do'stlarimiz ham oramizda ancha-muncha topilib turadi.



Holbuki, taniqli adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, kitob insoniyat yaratgan birinchi mo'jiza sanaladi.

E'tibor bering: olim kitobni dunyoning yetti mo'jizasidan ham yuqori qo'ymoqda. Buning sababi nimada?

Avvalo, hozirga qadar insoniyat qanday yangilik yaratgan, nimani kashf etgan, qanday ilmiy va hayotiy tajribani to'plagan bo'lsa, bularning bari kitoblar bag'rida jamuljamdir. Kitob mutolaasi odamdan ortiqcha jismoniy harakatni, moddiy boylik sarflashni ham talab qilmaydi. Mutolaaga qunt va ixlos bo'lsa yetarli.



Kitob mutolaasidan olish mumkin bo'lgan bilim, tajriba, zavq, ilhom, hayotga va insonga muhabbatni boshqa biror narsadan bu darajada olib bo'lmaydi.

Birorta san'at turini, televideniye va radio, zamonaviy kompyuterlar imkoniyati va afzalliklarini inkor qilmagan holda aytish mumkinki, bularning birortasi kitob mutolaasi o'rnini bosa olmaydi, bosishi mumkin ham emas. Chunki mutolaa jarayonida inson tafakkuri, ong-u shuuri, tasavvurida yuz beradigan o'zgarishlar ko'lamini boshqa biror mashg'ulot ta'minlab berolmaydi.



Yana bir narsaga e'tibor beringki, odamlar e'tiqod qiladigan dunyodagi asosiy dinlar insoniyatga aynan kitob shaklida taqdim etilgandir.

Demak, bo'sh vaqtlarda iloji boricha ko'proq kitob o'qishga harakat qilgan odamni har qancha qutlasa arziydi. Ayniqsa, badiiy kitoblar sizning insoniy fazilatlariniz kuchayishida, odamlarni tushunish ko'nikmasiga ega bo'lishingizda beqiyos ahamiyatga egadir. Mashhur rus adibi M. Gorkiy «O'zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitoblardan minnatdorman» deganida mutlaqo mubolag'a qilmagan. Yoki taniqli gurji adibi Nodar Dumbadzega bir ayol quyidagi mazmunda maktub bitgan edi:

«Men kasalxonada og'ir xasta bo'lib yotganimda do'xtirlarning muolajalaridan ko'ra, sizning kitoblaringizni o'qiganim tuzalib ketishimga ko'proq yordam berdi...»



Qolaversa, mutolaa zavqini bilmaydigan, kitob o'qish malakasini o'zlashtirmagan bugungi zamondoshimizni yuksak ma'naviyatli inson, deb hisoblash juda qiyin.

Xalqimizning «Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra» degan gapi bor. Yurtning bor go'zalligini, kengligi va rang-barangligini bilish uchun ham odam bo'sh vaqtlarida safarga chiqmog'i darkor. Safarda kishi tabiat manzaralaridan ilhomlanadi, ko'rman joylarini ko'radi, bilmagan narsalarini bilib oladi, yaxshiyomon odamlar bilan hamsuhbat bo'ladi. «Birni ko'rib fikr qil, mingni ko'rib shukr qil» deganlaridek, har xil insonlar bilan uchrashib, zarur xulosalar chiqaradi, dunyoni taniydi. Inson safarda yuribgina o'z uyining, mahallasining, shahar va qishlog'ining, qolaversa, Vatanining sog'inchi qanday bo'lishini his qiladi. Borgan joylaridagi odamlar, odatlar, qadriyatlar bilan o'z yurtidagi shunday boyliklarni solishtirib, ko'p narsaning farqini anglaydi, ko'zi ochiladi. Bunga qo'shimcha ravishda safar chog'ida odamda insonparvarlik, mehr-oqibat, do'stlik fazilatlarini kuchliroq yuzaga chiqadi.

Chunki safar paytida do'stlar bilan doim birga bo'lishga, birga yotib-turish, ovqatlanish, yo'l bosishga to'g'ri keladi. Odamning yaxshi yoki yomon fe'l-atvori ayni shunday paytlarda oshkor bo'lib qoladi. Kishi qiyinchiliklarga chidamlimi yoki yo'qmi, u o'zi yaxshi ko'rgan narsani do'stiga ham ravo ko'radimi, xavf ostida qolgan hamrohiga yordam bera oladimi yoki tashlab qochadimi... bularning barini safarda sinaydilar. Demak, go'yo bo'sh vaqtni samarali o'tkazish uchun qilingan safar har bir kishiga bir sinov ham ekan.



Buyuk faylasuf Aristotel «Poetika» asarida «Go‘zal-lik me’yordadir» degan g‘oyani bayon qiladi.

Mutafakkirning bu gapi faqat san‘at asarlarigagina tegishli emas. Hamma narsada – ta‘lim-tarbiyada ham, jismoniy yoki aqliy mehnatda ham, dam olish-u uyquda ham me‘yor bo‘lgani yaxshi. Qayerdagi me‘yor buzilsa, o‘sha yerda butun tizim ishdan chiqadi, boshboshdoqlik, tartibsizlik, oxir-oqibatda jismoniy yoxud ma‘naviy buzilish yuzaga keladi.

Shunday ekan, odam o‘z hayotini ongli, maqsadga moslab tashkil etishi umrning samarali kechishini ta‘minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Hech ish bilan shug‘ullanmasdan, umrining oltinga barobar damlarini bekorchilik yoki yomon ishlar bilan o‘tkazgan kishining uyqusida ham halovat bo‘lmaydi.



Umr daqiqalarini g‘animat biladigan, har kuni savob ishlar qilib, odamlarning og‘irini yengil qilishga odatlangan inson hayoti esa doimo go‘zal va farovon bo‘lishi shubhasizdir.



Savol va topshiriqlar:

1. Qanday odamlar vaqtni o‘ziga bo‘ysundira oladi?
2. «Vaqtning ketdi – naqding ketdi» maqoli zamirida qanday hayotiy haqiqat yashirin?
3. Bo‘sh vaqtni bo‘sh o‘tkazmaslikning qanday choralari bor?
4. Bekorchilik olib kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar to‘g‘risida hayotiy misollar yordamida gapirib bera olasizmi?
5. Quyidagi suratlar asosida vaqtdan unumli foydalanish qanday samaralar berishi haqida gapiring.



NAVRO‘Z – ENG QADIMIY, ASL MILLIY BAYRAM

Aziz o‘quvchi, 7-sinfdagi darslarimizda sobiq sho‘rolar davrida xalqimizning milliy qadriyatleri, jumladan, Navro‘z bayramini el-yurtimiz xotirasidan o‘chirib tashlash uchun ko‘p harakatlar qilingani to‘g‘risida qisman to‘xtalgan edik. Ayniqsa, sho‘ro tuzumi tanazzul yoqasiga kelib qolgan o‘tgan asrning 80-yillari davomida bu salbiy xurujlar nihoyatda avjiga chiqdi, Navro‘zga qarshi «urush e‘lon qilindi». Bu bayramga otilmagan tuhmat toshi qolmadi. Jumladan, uni diniy bayram deguvchilar ham, feodalizmning qoloq odatlarini ulug‘lovchi marosim, deb ataganlar ham, uning o‘rniga «Navbahor» nomli sho‘rocha bayram tashkil etishni taklif etganlar ham topildi. Odamlar bayramning tansiq taomi deb pishirayotgan sumalak to‘la qozonlarni, halimlarni sho‘ro hukumati vakillari yerga, xandaqlarga to‘ktirib tashlashdi.



Bu – millatning qalbini, ko‘nglini, tarixiy xotirasini oyoqosti qilishdan boshqa narsa emas edi. Bu – mustabid tuzum g‘oyalari ning insonga va insoniylikka naqadar yot-begona ekanining yana bir isboti edi.

Aslida Navro‘z siyosatga, mafkuraga, dinga aloqasi bo‘lmagan tabiat bayrami hisoblanib, u kun bilan tunning o‘zaro teng kelgan mahalini, yangi yil va bahorning boshlanishini nishonlash hisoblanadi.

21-martda aynan bir kecha-kunduzning roppa-rosa 12 soati yorug‘, 12 soati esa qorong‘i bo‘ladi. Bu hol bahorgi tengkunlik hisoblanib, kuzgi tengkunlik 21-sentabrga to‘g‘ri keladi.

1989-yilda O‘zbekistonning yangi rahbari etib saylangan Islom Karimov xalqqa va uning ma‘naviyatiga qarshi qaratilgan sho‘roviy xurujlarga dadil qarshi chiqib, Navro‘zni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash masalasini qat‘iy tarzda kun tartibiga qo‘yganidan keyingina bu ko‘hna bayramning ikkinchi umri boshlandi:



«Biz yaqinda bo'lajak Navro'z bayramini an'anaviy bayram sifatida nishonlash to'grisidagi masalani muhokama qildik. Har jihatdan diqqat-e'tibor bilan muhokama qildik, «qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarilgan», o'zboshimchalik bilan zararli, xalqqa begona qarorlar qabul qilingan, an'analarimiz, urf-odatlarimizning asriy negizlari oyoqosti qilingan o'tmish davr saboqlarini hisobga oldik»¹.

Mustaqillik yillarida esa Navro'z bayrami ilgari hech qachon ko'rilmagan ko'lam va shukuh-la madaniy hayotimizdan munosib joy oldi.

«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida Yurtboshimiz bu bayramning xalqimiz hayotida tutgan o'rnini bunday yuksak baholaydi:



«Yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi»².

Darhaqiqat, har qanday an'ana, urf-odat hamda rasm-rusumlar hayotiy zarurat tufayli paydo bo'ladi. Ular muayyan xalqning ruhiyati, ma'naviy dunyosi, orzu-istaklarining ifodasi bo'lib, kelgusi avlodlar ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga ham hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi. Aksariyat an'analar mazmun-mohiyatida xalqni, elatni ezgulikka, insonparvarlikka, yaxshilikka chorlashdek o'lmas g'oyalar yotadi. Ular davrlar talabi bilan ham shaklan, ham mazmunan yan-



¹Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2011-yil, 122-bet.

²Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 35-bet.

gilanib, boyib boradi. Shunday an'analar borki, ular o'zining ijobiy ta'siri, ko'pchilikning ruhiy ehtiyojlariga mos tushishiga ko'ra umrboqiylik kasb etib, xalqlarning ma'naviy qadriyati darajasiga ko'tariladi. Sharq xalqlarining ana shunday ma'naviy boyliklaridan biri Navro'zdir.

«Navro'z» forscha so'z bo'lib, «yangi kun» degan ma'noni anglatadi. U dehqonlar uchun ekin-tikin ishlarining boshlanish pallasiga to'g'ri keladi. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy bu kunni shunday ta'riflaydi:

*Vasl aro ko'rdum, teng emish bo'yi-yu sochi,
Tun-kun teng ekan, zohir o'lur bo'ldi chu Navro'z.*

Bu misralardan «Visolga erishgach, ko'rdimki, mahbubamning bo'yi (kundek oq vujudi) bilan uzun sochi (tundek qora sochi) Navro'zdagi kecha bilan kunduzdek teng ekan», degan ma'noni anglaymiz.

Navro'z juda qadimiy bayramdir. Bu holatni o'tmish allomalarimiz o'z asarlarida asoslab berganlar. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Umar Xayyomning «Navro'znoma», Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Xoja Ali Termiziyning «Navro'znoma», Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy» singari dostonlari Navro'z va uning paydo bo'lish tarixi, u bilan bog'liq urf-odatlar, rasm-rusumlar haqida muhim ma'lumotlarni beruvchi qimmatli manbalardir.



Alisher Navoiy bobomiz ta'biriga ko'ra, shoh Jamshid zamonida Navro'zni bayram qilish urfga aylangan. Manbalarning guvohlik berishicha, Navro'z bayramining paydo bo'lishi to'rt ming yillik tarixga ega.

Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining 12-bobida Navro'z munosabati bilan Majnun va Laylining yashirincha uchrashgani, unda Layli ishqining kuchidan Majnunning hushdan ketgani to'g'risida hikoya qilinadi.

Navro'zda uyg'ongan, gul-u chechaklarga burkangan sahrolar, bog'lar bag'ri odamlar bilan to'lgan. Ular orasida Majnun bilan Layli ham bor. Lekin odamlardan uyalganidan ular bir-birlariga yaqinlasholmasdan, sirlasholmasdan qiynalishadi. Layli bir chamanzor ichiga kirgach, odamlar ko'zidan ancha pinhon bo'ladi.

Bu chamanzor ichida esa Majnunga duch keladi. Shunda Layli ishq iztirobida kuygan Majnunni yupatar ekan, Navro‘z kuni inson bo‘stonlar bag‘riga chiqmog‘i, ko‘nglidagi chigillarni yozmog‘i, uning qalbi xuddi gul-u chechaklardek ochilmog‘i lozimligini bunday ifoda etadi:

*Bu damki esib nasimi Navro‘z, | Bog‘ o‘ldi bahordin gulafshon,
Gul atrini qildi majlisafro‘z. | Sunbul bu gul uzra kokulafshon.*

*Bu faslda azmi gulshan etgay,
Bo‘ston haramini maskan etgay.*

Hazrat Navoiy g‘azallarining birida:

*Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,
Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam, –*

degan go‘zal misralarni bitadi. Bu baytda shoir: «Mening sarvim (ya‘ni yorim) javlon urganida, chaman sarvi (ya‘ni Navro‘z) ham hayron qoldi, Navro‘zga faqat dehqonlar shaydo bo‘lgan bo‘lsa, bunga (ya‘ni yorimga) butun olam oshufta», – deydi.

Bizning ajdodlarimiz amal qilgan shamsiy yil hisobi bo‘yicha Hamal yilning birinchi oyi hisoblanadi. U aynan Navro‘zdan – 21-martdan boshlanadi. Shu tufayli ham xalqimiz: «Hamal kirdi – amal kirdi», – deydi. Demakki, shu kundan boshlab ona tabiatdagi jamiki mavjudotda – maxluqot va nabototda uyg‘onish, yangilanish, o‘shish-ulg‘ayish, ajib bir tabiiy – ichki ko‘tarilish yuz beradi. Mudrab yotgan urug‘lar, ildizlar, kurtaklar oftobning iliq nurlaridan kuch olib, harakatga – amalga oshiqadi. Kuni kecha qop-qorayib turgan bodom, o‘rik shoxlari birdan gulga burkanganini, ariq va soy bo‘ylari yam-yashil o‘t-o‘lanlar bilan qoplanib olganini sezmay qolasiz.



Tabiatdagi uyg‘onish inson qalbi, ruhiyatiga ham ta‘sir qilmasdan qolmaydi.

Qishning sovuq izg‘irinidan junjikkan, uzun tunlaridan toliqqan, biroz zerikkan odamlar yorug‘, tiniq osmonga, oftobning tanga xush yoqadigan nurlariga, tabiatdagi uyg‘onishga peshvoz chiqadilar. Ularning ruhiyatida ham ajib bir ko‘tarinkilik, xush kayfiyat paydo bo‘ladi.

Dehqonlar uchun esa Navro‘z yilning o‘ziga xos belgi – chegarasi, sarhadi hisoblanadi. Shu kundan boshlab dehqon yerga



bexavotir urug' qadashi, uning bexato o'sib chiqishidan ko'ngli xotirjam bo'lishi mumkin. Yil – o'n ikki oylik rizq-ro'z uchun eshik ochuvchi bu kunni bayram qilmaslik mumkinmi?

Demak, Sharq xalqlari qariyb to'rt ming yildan beri nishonlab keladigan Navro'z tabiat va inson hayoti uyg'unligining, ular o'rtasidagi azaliy taqdir-doshlikning ham e'tirofi, tantanasidir, desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Yuqorida aytganimizdek, Navro'z mehnat va bunyodkorlik bayramidir. Bu kun, xuddi tabiat singari, inson ham endi qishning kuchi va qahri ketganini, bundan buyon kunlar tobora ilib borishini, orqaga yo'l yo'q ekanini his qiladi. Dehqon qor ostida yetilgan, qor ketib, yuzi ochilgan yerni shudgorlab, egatlar olib, dastlabki urug'ni – rizq urug'ini qadaydi.



Navro'z tabiat va odamlararo diydor, mehr-oqibat, insonsevarlik bayramidir.

Bu kun qabristonlarda obodonchilik ishlari olib boriladi, ulug'lar yotgan joylar ziyorat qilinadi, kekxa, nogiron, yolg'iz odamlar, ota-onalar yo'qlanadi, tansiq dasturxon yozilib, mehmon kutiladi, kishilar suyuqli insonlariga sovg'a-salomlar ulashib, bolalarga shirinliklar hadya etadilar.



Navro'z do'stlik, birodarlik tantanasidir.

U nafaqat Sharq xalqlari bayrami, balki millati, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, shu yurtlarda yashaydigan barcha millatlar undan bahra oladilar, bir-birlarini yaxshiroq tanib, ko'ngillariga yo'l topadilar.

Jumladan, o'zbek xalqi qadimdan tinchliksevar xalq ekanini amalda isbotlab keladi. Xalqimiz barcha davrlarda ellarning, millatlarning o'zaro tinch-totuv, osoyishta, do'st-birodar bo'lib yashashining tarafdori bo'lib kelgan. Navro'zni nishonlash tartibi, uning tub mohiyatida ayni shu g'oyalar, maqsad-muddaolar ham mujassam.



Navro‘z — tansihatlik bayrami.

Yilning bu pallasida tayyorlanadigan tabiiy va to‘yimli taomlar qishning uzoq va ilikuzdi tunlaridan eson-omon chiqib olgan inson vujudi uchun koni shifodir. Xalqimizning uzoq yillik pazandalik madaniyati yilning ayni shu davri uchun darmondorilarga mo‘l shunday taomlar ixtiro qilgani bilan ham ardoqlidir. Sumalak, halim, ko‘k somsa va ko‘k chuchvara mana shunday tansiq taomlar sirasiga kiradi. Navro‘z dasturxoniga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlagani bois sumalak va halim pishirish alohida tayyorgarlik asosida uyushtiriladi.

Agar halim tayyorlash bilan ko‘proq erkaklar band bo‘lishsa, sumalak pishirish, asosan, ayollar bazmi hisoblanadi. Doshqozonlar atrofida xotin-qizlar, bolalar o‘yin-kulgi qilib, lapar, rivoyat, ertak, latifa, topishmoq va xalq hikoyalaridan aytishadi, childirma chalib, raqsga tushishadi. Sayilga kelgan har bir inson yaxshi niyat bilan qozon kavlaydi. Sumalak bir kecha-kunduz davomida qaynatilgach, har bir oilaga taqsimlanadi. Sayilga qatnasha olmagan bemorlar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar sumalak bilan siylanadi. Sumalakni farzandi uzoq safarlardan omon qaytgan, yangi farzand yoki nevara ko‘rgan, hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishgan, bemorlikdan sog‘aygan kishilar oldindan niyat qilib tayyorlaydilar. Sumalak bir oilada pishirilganida ham uni tayyorlash jarayoniga butun qishloq yoki mahalla ahli, qarindosh-urug‘lar hamjihatlik bilan ishtirok etishga chorlanadi. Aytishlaricha, bir qozondan taom yeganlar bir-biriga qarindoshdek yaqin bo‘lib qolishar ekan.



Navro‘z ezgu umidlar, ertangi yorug‘ kunlar xabarini beradigan bayramdir.

Bu kun odamlar bir-birlariga baxt-saodat, sog‘liq-omonlik, oilalarga fayz-u baraka, el-yurtga tinchlik, osoyishtalik tilaydilar. Keyingi Navro‘zgacha barchaning sog‘-salomat yetib borishini, boshlanayotgan yangi yilning qutli-barakali kelishi, to‘y-tomoshalarga boy bo‘lishini niyat qiladilar va shunga intilib yashaydilar.



Navro‘z — butun mazmun-mohiyati bilan ibratli odobnomadir.

Navro‘z bayrami bir kundan bir oygacha nishonlanib, uni tantana qilish bilan bog‘liq turli urf-odatlar, udumlar, rasm-rusumlar avloddan avlodga o‘tib kelmoqda.

Qadimdan karnay-surnaylarning yurakni to‘lqinlantiradigan sadolari bilan boshlanadigan bu bayramda dorbozlar, mas-xarabozlar, polvonlar, qo‘shiqchilar, chanqovuzchilar, sozandayu raqqosalar, baxshilar o‘z san‘atlarini namoyish etishgan. Tantana ishtirokchilari turli xalq o‘yinlarini, ko‘pkari, kurash, ot poygasi musobaqalarini tomosha qilganlar. Tantanalar o‘tkaziladigan joylarda kosiblik, zargarlik, duradgorlik, ganchkorlik, sangtaroshlik, kulolchilik singari xalq amaliy san‘ati namunalari ko‘rgazma-savdoga qo‘yilgan. Bularning hammasi bayram mazmun-mohiyatini yanada boyitgan, uni kundalik hayot mazmuni bilan bog‘lagan.



Navro‘z yoshlarning o‘z xalqini yanada yaqinroq bilishi, uning ruhiyatini tushunishi, shu xalqqa chambarchas bog‘lanib ketishi omili hamdir.

Odamlarning tinch, erkin va obod hayot nashidasini chuqur his etishi ayni shunday kunlarga to‘g‘ri keladi. Siz ham, o‘zingizni shu xalq, shu mamlakat farzandi deb bilar ekansiz, elning to‘yida ham, azasida ham oyoqqa qalqmog‘ingiz, shu xalqqa yelkadosh bo‘lmog‘ingiz lozim. Chunki bayram faqat shodiyona, xursandchilik uchun emas. U xalq ruhiyatidagi o‘lmas tuyg‘ularni avlodlararo yetkazuvchi noyob robita – vosita hamdir.

Navro‘z bayrami bolalar va o‘spirinlar uchun olam-olam quvonch, shodlik keltiruvchi tantanadir. Unga yosh bolalar ham, o‘smir yigit-qizlar ham alohida tadorik bilan keladilar. Ular Navro‘z kunlari kurash, chillak (zuvillatar), ot o‘yini, poyga, uzoqqa koptok otish, bekinmachoq, varrak uchirish, quloq cho‘zma, hakkalama-dukkalama, tez aytish, mehmon-mehmon, qo‘rg‘on qurish (tuproq yoki tosh bilan), to‘ptosh, qo‘g‘irchoq o‘yini, danak o‘yini, eshak mindi, oq terakmi-ko‘k terak kabi o‘yinlarda yayrab charchamaydilar.

Shuningdek, bu bayramda xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarini (maqol, lapar, she‘r, matal, latifa, ertak, doston va boshqalarni) ko‘p aytish bo‘yicha tanlov-musobaqalar uyushtiriladi.

Yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan bu singari tadbirlar ularda milliy ong va tafakkur shakllanishi, toblanishida muhim vosita

hisoblanib, yoshlarning jismonan sog‘lom, ma‘nan barkamol bo‘lib voyaga yetishida alohida ahamiyatga egadir.

Navro‘z ayyomida kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarga davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan homiylik yordami ko‘rsatilishi savobli tadbirga aylanib qoldi. Moddiy jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan davlat va jamoat tashkilotlari, alohida shaxslarning yurtimizdagi «Saxovat» va «Muruvvat», «Mehribonlik» uylariga, maxsus internatlarga homiylik yordami ko‘rsatishi bayram kunlari, ayniqsa, kuchayadi. Bularning bari xalqimizning «Qo‘li ochiqning yo‘li ochiq», «Birni berganga mingni beradi» kabi ezgu maqollari hayotda, amalda o‘z tasdig‘ini topayotganining dalilidir.



Darsimiz boshida bo‘lgani singari yakunida ham hayotni, tabiat va inson go‘zalligini shoh misralarga jo qilgan Navoiy bobomizning quyidagi orzulari barchamizga doimo yor bo‘lishini tilaymiz:

*Har tuning qadr o‘lubon,
Har kuning o‘lsun Navro‘z...*



Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik yillarida qayta tiklangan qanday xalq bayramlarini bilasiz?
2. Navro‘z bayramining xosiyati nimalarda ko‘rinadi?
3. Bahor ne‘matlaridan yana qaysilarini bilasiz?
4. Bolalar o‘yinlaridan qaysisi sizga ko‘proq yoqadi? Siz yashaydigan joyda yana qanday o‘yinlar bor?
5. Sumalak va halimning inson salomatligini mustahkamlashdagi ahamiyati nimada?
6. Navro‘zning kishiga ruhiy, jismoniy, tarbiyaviy jihatdan keltiradigan foydalarini izohlab bera olasizmi?
7. Navro‘z va tabiat in‘omlariga bag‘ishlangan devoriy gazeta chiqaring.
8. O‘tilgan darsni mustahkamlashda quyidagi adabiyotlardan foydalaning: Sultonmurod Olim. Bayramlarimiz. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2008-yil, 20–36-betlar; Navro‘z. Navro‘z bilan bog‘liq qo‘shiqlar, afsonalar, odatlar va irimlar. (Tuzuvchilar: To‘ra Mirzayev, Mamatqul Jo‘rayev). –T.: «Fan» nashriyoti, 1992-yil.

XOTIRA – ULUG‘ QADRIYAT

Odamzotni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan muhim jihatlardan biri uning xotiraga ega ekani hamdir. Xotirasini yo‘qotgan kishi manqurtga aylanib qolishi to‘g‘risida adabiyot darslarida ko‘p eshitgansiz. Chunki insonni inson qilib turadigan, unga «men»lik, ya‘ni o‘ziga xos ichki qiyofa ato etadigan narsa xotira sanaladi.



O‘z ajdodlarini – yetti pushtini, oilasi, mahallasi, shahri yoki qishlog‘i o‘tmishini, Vatani tarixini bilmaydigan odamni ildizidan ajralgan daraxtga qiyoslash mumkin. Ildizsiz daraxt o‘tib-unnagani, albatta qurib bitishi tayin bo‘lgani singari, tarixiy xotiradan judo bo‘lgan odamning kelajagi ham samarasizdir.

Xotira – millat tarixini, uning qadriyatlarini, madaniyati va ma‘naviyatini, bir so‘z bilan aytganda, millatning o‘zligini mujassam etadigan buyuk qadriyat.

Afsuski, sobiq sho‘ro davlati o‘z tarkibiga qo‘shib olgan barcha xalqlar qatori Turkiston o‘lkasida yashaydigan millatlarni ham tarixiy xotiradan ayirish yo‘lida ne-ne kirdikorlarni amalga oshirmadi. Jumladan, o‘zbek xalqi ming yillardan beri e‘tiqod qilib kelgan islom dini o‘rniga ateizm – xudosizlik g‘oyasi xalqning barcha qatlamlari orasida tinimsiz targ‘ib etildi. Yuzlab masjid-madrasalar buzib tashlandi, odamlarning emin-erkin diniy amallarni o‘tashlari taqiqlandi. Hatto o‘tganlarga janoza o‘qish, ularni qabristonga kuzatish ham mafkuraviy jihatdan xavfli ish sifatida baholanib, davlat idoralarida ishlaydigan mahalliy kadrlar quvg‘in ostiga olindi. Dunyo fani, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalar merosi to‘g‘risida og‘iz ochmaslik, Amir Temurdek, Jaloliddin Manguberdidek ma‘rifatparvar, vatanparvar bobolarimizni o‘z avlodlariga yomonotliq qilib tanishtirish oddiy holga aylantirildi.



O‘zbek xalqini butun tarixi davomida yorug‘ kun ko‘rmagan, faqat jaholatda yashagan xalq sifatida ko‘rsatish, shu orqali sho‘ro hukumatiga hurmat uyg‘otish sovet mafkurasining bosh maqsadi sanalardi.

XX asrning birinchi yarmida millat erkinligini kuylagan, o‘z xalqini ozod ko‘rmoqni orzu qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari yuzlab fidoyi ziyolilar peshonasiga turli aybnomalar qo‘yilib, aksariyatining umri xazon etildi. Bunday mafkuraviy yovuzliklar sho‘ro davlatining xalqlar va millatlar taqdiriga qanchalar bepisand munosabatda bo‘lganining yaqqol isbotidir.

Respublikamiz rahbari Islom Karimov bunday bedodliklarga uzil-kesil chek qo‘yish lozimligini ta’kidlab, 1989-yil 28-noyabrdayoq olimlar oldiga quyidagi aniq vazifalarni qo‘ygan edi:



«Jamiyatshunoslar O‘zbekiston tarixining ko‘pgina sahifalarini qayta bitishlari, chunonchi, chorizm yillarida O‘rta Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakati, 1920–1930-yillardagi adabiy-g‘oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa hodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerak. Behbudiy, Usmon Nosir, Cho‘lpon, Fitrat va boshqalarning ijodi va dunyoqarashini ham teran va xolis tadqiq etish zarur bo‘ladi»¹.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi va bevosita rahbarligi bilan xalqimiz xotirasini tiklash, u bosib o‘tgan necha ming yillik tarixni xolis va chuqur o‘rganish, unutilayozgan milliy-madaniy qadriyatlarni xalq hayoti va xotirasiga qaytarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Sho‘ro hukmronligi davrida tashlandiq joylarga, hatto vayronalarga aylantirilgan yuzlab muqaddas qadamjolarimiz – masjid-madrasalar, madaniy yodgorliklarning qayta tiklanishi, «xalq dushmani» sifatida qatl etilgan millatparvar shoir-yozuvchilar, olim-ulamolarning ilmiy-ijodiy merosi namunalarning ko‘plab nusxalarda nashr etilishi xalq xotirasining uyg‘onishida, istiqloq fidoyilarining qadrlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Chunki, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek:

¹ **Islom Karimov.** O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2011-yil, 91-bet.



**«Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-mud-
daolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari
asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga
intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida
ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli
ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha
muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch
va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan
taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi»¹.**

Ayni tamoyil asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-maydagi farmoyishiga binoan, yurtimizda 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida»gi qarori e‘lon qilindi. Endilikda o‘tgan ajdodlarimizni xotirlash va mo‘tabar zamon-doshlarimiz hurmatini joyiga qo‘yishda Xotira va qadrlash kunining nishonlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xotira va qadrlash kuni o‘z mohiyati bilan boshqa bayram va an’analarimizdan farq qiladi. U olamdan o‘tgan ajdodlarni eslashgina emas, Vatan uchun kurashda halok bo‘lgan, sobiq mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan, xalq farovonligi va mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan kishilarning xotirasini hurmatlash hamdir.



**Yurtimizda Xotira va qadrlash kunini belgilash bevo-
sita Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan amalga
oshdi.**

Gap shundaki, mustaqillikka qadar barcha viloyat va tuman markazlarida «Noma’lum soldat qabri» degan sun’iy nom ostidagi monumentlar barpo qilingan, odamlar shu joylarga o‘zlari bilib-bilmasdan sig‘inishar edi. Holbuki, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, urushga ketgan birorta odamning noma’lum bo‘lishi, uning ismi sharifi, u to‘g‘risidagi xotiralar yo‘qolib ketishi aslida mumkin emas. Qolaversa, mustaqillik yillari olib borilgan jiddiy izlanishlar

¹**Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 97-bet.

tufayli avval «bedarak yo‘qolgan» deb hisoblangan minglab nafar marhum yurtdoshlarimiz taqdiri aniqlandi – ular qaysi jangda va qachon halok bo‘lgani to‘g‘risidagi hujjatlar topildi.



«Ular haqidagi ma‘lumotlar jamlangan 35 jilddan iborat «Xotira» kitobi chop etilgani, aytish mumkinki, mamlakatimiz tarixida ibratli ma‘naviy voqea bo‘ldi»¹.

Bir so‘z bilan aytganda, inson bolasi izsiz yo‘q bo‘lib ketishi, «noma‘lum soldat»ga aylanishi mumkin emasligi isbotlandi. Natijada Toshkent shahrida, barcha viloyatlar va tumanlar markazlarida Xotira maydonlari, poytaxtimizdagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida esa Shahidlar xotirasi xiyoboni bunyod etildi.

Yurtboshimiz «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» kitobida 1937–1953-yillarda sobiq SSSR hududida amalga oshirilgan ommaviy qatag‘onlarning mudhish oqibatlariga alohida to‘xtalgan. Mazkur kitobdan o‘qiymiz:



«Uning salbiy oqibatlarini o‘zimizga tasavvur etish uchun birgina O‘zbekiston bo‘yicha qariyb 100 ming kishi qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr-qimmatini toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat arbob va ziyolilar, balki yuzlab oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarning vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o‘z oilasidan judo bo‘lgani, ayollar bevalikka, go‘daklar yetimlikka mahkum etilganini, minglab mirishkor dehqonlarning quloq sifatida olis o‘lkalarga surgun qilinganini inobatga olsak, xalqimiz boshiga tushgan bu fojining dahshati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi»².

Aziz o‘quvchi, bir narsani yaxshi bilingki, sho‘ro davlatining yetmish to‘rt yillik tarixini cheksiz zo‘ravonliklar, oshkora yoxud pinhona qatag‘onlar tarixi, deb ham bemalol atash mumkin. Chunki 1917-yilning oktabr oyida amalga oshirilgan davlat to‘ntarishidan boshlangan xunrezliklar keyin ham u yoki bu shakllarda muntazam davom etgan. Xalq ustidan yagona partiya

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 100-bet.

² O‘sha manba, 98-bet.



hukmronligini oʻrnatgan bu davlat oʻtgan asrning 30-yillarida ham, 40–50-yillarida ham, nihoyat 80-yillarida ham turli koʻrinishdagi qatagʻonlarni amalga oshirgan. Agar Ikkinchi jahon urushidan keyingi – 1948–1953-yillarda chop etilgan gazetalarni varaqlasak, Oʻzbekistonda 5–10 kilogramm paxta nobud boʻlgani, yarim gektar paxta maydonini suv yoki oʻt bosgani uchun ham odamlar qamoqqa tashlanganining, ularning aksariyati

oilasiga boshqa qaytib kelmaganining guvohi boʻlamiz.

Qolaversa, Oʻzbekistonda oʻtgan asrning 80-yillarida «paxta ishi», «oʻzbeklar ishi» degan uydirma gaplar, tuhmatlar ostida oʻtkazilgan soʻnggi qatagʻonlar paytida ham oʻn minglab qishloq xoʻjaligi xodimlari nohaq ayblandi, ularning insoniy qadr-qimmatini toptaldi, hayoti poymol etildi.

Shukrki, Yurtboshimiz rahbarligida mamlakatimiz istiqloлга erishgach, bu adolatsizliklarga, xoʻrlolarga ham qatʻiy chek qoʻyildi. Beayb jazolangan kishilar oʻz oilasi bagʻriga qaytarildi, ularning pok nomlari oqlandi. Begunoh qurbon boʻlgan insonlar xotirasini abadiylashtirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirildi.



«Ana shu insoniy burchimizni ado etish maqsadida 2000-yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatagʻon yillarida xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib, nom-nishonsiz koʻmib tashlangan, necha yillar davomida qarovsiz qolib kelgan Boʻzsuv kanali sohilidagi Alvastikoʻprik deb nom olgan jarlik oʻrnida Shahidlar xotirasi xiyoboni va keyinchalik shu nomda muzey va jamgʻarma tashkil qilindi. 2001-yildan eʼtiboran 31-avgust yurtimizda Qatagʻon qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan boʻldi»¹.

¹Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. –T.: «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2013-yil, 98–99-betlar.

So‘nggi yillarda bu joy yanada obodonlashtirilib, muzeyning qo‘shimcha binosi qurilishi barobarida uning zallari tarixiy xotiralmizni boyitishga xizmat qiladigan hujjatlar, ashyolar, eksponatlar bilan jihozlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizning bosh maydoni – Mustaqillik maydoni Prezidentimiz rahnamoligida tanib bo‘lmas qiyofa kasb etdi. O‘tgan tuzumning balandparvoz, hissiz, agressiv, insoniylikdan yiroq mohiyatini o‘zida mujassam etgan qo‘pol beton va asfaltlar qo‘porib tashlanib, ular o‘rnini hayot va tiriklik ramzi bo‘lmish yam-yashil maysalar, rang-barang gullar va go‘zal daraxtlar egalladi. Maydonning shimol tomonida joylashgan, o‘zbekona naqshinkor ayvonlar bilan o‘ralgan Xotira maydoni doimiy sukunat og‘ushida. Maydon to‘rida jigargo‘shasini kutib, uning xotirasi qarshisida bosh egib o‘tirgan Motamsaro ona siymosi. O‘zbek onasining yorqin ramzi bo‘lmish bu haykal ko‘ngil ko‘zi ochiq biror ziyoratchini befarq qoldirmaydi. Ona poyidan gul-u gulchambarlar arimaydi.

Muazzam ustunli ayvonlar ostida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarimizdan, poytaxt Toshkent shahridan Ikkinchi jahon urushiga ketib, qaytib kelmagan vatandoshlarimizning ismi shariflari bitilgan zarhal sahifalar joylashgan. Bir paytlar «noma‘lum soldat»dek sun‘iy nom bilan atalgan barcha marhumlarning aziz nomlarini shu sahifalardan, albatta, topasiz. Ularning quoldosh do‘stlari, qarindosh-urug‘lari shu yerga qo‘yilgan kursilarda o‘tirib, cheksiz xotiralarga beriladilar, o‘tganlar ruhiga duoyi fotiha o‘qiydilar. Aslida, ajdod va avlodlarni bir-biriga bog‘laydigan, ular o‘rtasidagi azaliy qonqardoshlik hislarini kuchaytiradigan, inson xotirasini qadrlashdek ma‘naviy burchni yoshlar ko‘nglida kamol toptiradigan ezgu holat shu emasmi?!



Darhaqiqat, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qolgan Xotira va qadrlash kuni yurtdoshlarimizda mehrshafqat, muruvvat, o‘zligini anglash, hayotning qadriga yetish hissini kamol toptirishda bundan keyin ham muhim ahamiyat kasb etaveradi.

Aziz o‘quvchi, bilingki, har bir xonadon, mahalla, tuman, viloyatda hurmat-e‘zozga munosib kishilar ko‘plab o‘tgan.

Shuningdek, mash'um urushda halok bo'lgan bobolarimiz va otalarimiz, qarindoshlarimiz, mahalladoshlarimizni eslash, urushdan omon qaytgan va kundan kunga safi siyraklashib borayotgan faxriylarning, mamlakat ichkarisida mehnat qilgan tabarruk qariyalarimizning holidan xabar olib turish siz bilan bizning zimmamizdagi muqaddas farz va qarz hisoblanadi. Bu o'rinda Yurtboshimizning quyidagi so'zlarini keltirish, ana shu tushunchani hayotiy e'tiqodimiz qilib olish nihoyatda muhimdir:



«Mening komil ishonchim shuki, savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak»¹.



Savol va topshiriqlar:


1. Tarix darslaridan sho'ro davrida amalga oshirilgan qanday qatag'onlar to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ldingiz?
2. Sobiq sho'rolar davrida xalqimizning tarixiy xotirasini toptash va ma'naviy qadriyatlarini qadrsizlantirish bo'yicha qanday kirdikorlar sodir etilgan?
3. O'tganlarni xotirlash – ularni eslash, yaxshi fazilatlarini yodga olish bilan chegaralanadimi? Tiriklardan yana nimalar talab etiladi, deb o'ylaysiz?
4. Mahallangizda, qishlog'ingizda Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan qariyalar bormi? Ulardan qanday hikoyalar eshitgansiz?
5. Insonning avlodlar xotirasida abadiy qolishi nimalarga bog'liq ekani to'g'risidagi fikringiz bilan o'ртоqlashing.
6. Quyidagi rasmlarda xalqimizning qanday ezgu fazilatlarini mujassam etilganini izohlang.



A)



B)



C)

¹ **Islom Karimov.** Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2006-yil, 67-bet.

NAZORAT ISHI

T o p s h i r i q: «*Umumxalq bayramlari*» mavzusida referat tayyorlang. Uni yozishda quyidagi masalalarni yoritishga alohida e'tibor bering:

– xalqlar, millat va elatlar hayotida bayramlarning paydo bo'lish sabablari;

– bayramlarning har bir xalq mentaliteti, yurt tabiati, ijtimoiy hayoti, uning taqdiridagi muhim voqealar bilan bog'liqligi;

– darslikda «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobidan keltirilgan fikr-mulohazalar;

– mustaqillik yillarida xalqimiz urf-odatlari, bayramlarini qayta tiklash, mazmunan va shaklan yanada boyitish borasida amalga oshirilgan ishlar;

– istiqlol yillarida asos solingan umumxalq bayramlarining mazmun-mohiyati;

– O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan quyidagi umumxalq bayramlarining har biri to'g'risida qisqacha tushuncha:

1-yanvar – Yangi yil;

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni;

21-mart – Navro'z bayrami;

9-may – Xotira va qadrlash kuni;

1-sentabr – Mustaqillik kuni;

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni;

8-dekabr – Konstitutsiya kuni;

Ramazon hayiti (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni;

Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni;

– umumxalq bayramlarining mamlakatimizda yashovchi turli millat va elat vakillarining o'zaro hamjihatligini mustahkamlashdagi ahamiyati;

– bu bayramlarning xalqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rni.

Referatni tayyorlashda foydalaniladigan adabiyotlar:

1. *Islom Karimov*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 29–35-betlar.

2. *Sultonmurod Olim*. Bayramlarimiz. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2008-yil.

YAKUNIY VA UMUMLASHTIRUVCHI DARS

Aziz o‘quvchi, mana, bu o‘quv yili davomida «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari» fani bo‘yicha mashg‘ulotlarimiz ham nihoyasiga yetmoqda. Shu davr mobaynida sizning yoshingizga yosh, bilimingizga yangi bilimlar qo‘shildi, tasavvurlaringiz kengaydi. Jumladan, mamlakatimiz va xalqimizni istiqloлга olib chiqqan, yurtimizni ozod va obod o‘lkaga aylantirishda, erkin va farovon hayot barpo etishda muhim omil bo‘lgan milliy g‘oyamizning mazmun-mohiyatiga yanada chuqurroq kirib bordingiz.

Milliy g‘oya va ma‘naviyatning qadimiy ildizlarga ega ekani, bu tushunchalar shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning oliyanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini o‘zida mujassam etganini yaqindan his qildingiz.



Milliy g‘oyaning negizini tashkil qiladigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, dinlararo bag‘rikenglik, milliy o‘zlikni, insonni anglash singari tushunchalar mamlakatimizda tinchlik va xotirjamlikni saqlash, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash, respublikamizni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma‘naviy jihatdan yuksaltirishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishini tushunib, anglab bormoqdasiz.

Darslar davomida yuksak ma‘naviyat jamiyat va millat ravnaqining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilishiga doir bilimlaringiz, tasavvurlaringiz ham birmuncha boyidi. Jumladan, qonunga itoat qilish, inson huquq va erkinliklariga hurmat ko‘rsatish biz barpo etayotgan, erkin demokratik jamiyatning ajralmas xususiyati ekaniga iqror bo‘ldingiz.



Mazkur qadriyatlar hayotimizning, dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylanishida Prezidentimiz Islom Karimov

faoliyati qanchalar muhim ahamiyatga ega bo'lganini siz «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobidan bilib oldingiz.

Inson ma'naviyatining muhim belgisi hisoblangan Vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat, do'stlik, vafodorlik tushunchalari, ona tabiatni asrash madaniyati, vaqtning qadriga yetish singari ma'naviy omillar hayotimizni to'g'ri tashkil etish va mazmunli o'tkazishda naqadar muhim ahamiyat kasb etishini chuqur angladingiz.

Guvohi bo'lganingizdek, Yurtboshimizning tashabbusi, uzoqni ko'zlab olib borgan keng ko'lamlı ishlari tufayli xalqimizning sho'ro davrida poymol etilgan tarixiy xotirasini tiklash, unutilayozgan noyob qadriyatlarini hayotga qaytarish, milliy va diniy bayramlarimizni emin-erkin nishonlashga doir tom ma'noda tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida quyidagi muhim masalaga ham siz-u bizning e'tiborimizni jalb qiladi:



«Ma'naviy yuksalishga erishish — bu bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas. Xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi»¹.

Shunday ekan, aziz o'quvchi, siz bilan biz milliy g'oya to'g'risidagi tushunchalarimizni shu tezkor zamonga mos tarzda boyitib, kengaytirib bormog'imiz, ma'naviy olamimizni esa obod etish, uni turli tahdidlardan mustahkam himoya qilish yo'lida muntazam izlanmog'imiz talab etiladi. Bu ezgu niyatlar yo'lida sizga kuch-quvvat, intilish va azm-u shijoat doimo hamroh bo'lsin!

¹ **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 171-bet.

MUNDARIJA

I bob. Milliy g'oya – ezgu orzu-intilishlar ifodasi

Bunyodkor xalq	3
Milliy g'oyamiz	8
Yurt tinchligi	13
Vatan ravnaqi	18
Xalq farovonligi	23
Obodlik ko'ngildan boshlanadi (<i>Amaliy mashg'ulot</i>)	27
Nazorat ishi	29

II bob. Milliy g'oya va ma'naviy hayot uyg'unligi

Komil inson	30
Ijtimoiy hamkorlik	36
Millatlararo hamjihatlik	41
Dinlararo bag'rikenglik	45

III bob. Ma'naviyatning muhim shartlari

Jamoa tuyg'usi	50
Insonni anglash	55
Qonun ustuvorligi	59
Internetdan foydalanish madaniyati (<i>Amaliy mashg'ulot</i>)	67
Nazorat ishi	68

IV bob. Ma'naviyat – jamiyat va millat ravnaqining bosh omili

Ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi	69
Do'stlik – yuksak ma'naviy tushuncha	78
Ekologik madaniyat	87
Bizga tanish va notanish tabiat (<i>Amaliy mashg'ulot</i>)	98
Vaqtни qadrlash – ma'naviyat mezonі	100
Navro'z – eng qadimiy, asl milliy bayram	108
Xotira – ulug' qadriyat	116
Nazorat ishi	123
Yakuniy va umumlashtiruvchi dars	124

RAHMON QO‘CHQOROV, SANOBAR NISHONOVA,
OYNISA MUSURMONOVA, MURTAZO QARSHIBOYEV

**MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA
MA‘NAVIYAT ASOSLARI**

**Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining
8-sinflari uchun darslik**

To‘ldirilgan va qayta ishlangan 7-nashri

Toshkent «Ma‘naviyat» 2015

Muharrir *B. Umarov*
Rassom *S. Soin*
Texn. muharrir *S. Shuhrat*
Musahhihlar *O. Pardayev, Sh. Hakimova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Litsenziya AI №189, 2011-yil 10-mayda berilgan.
Bosishga 11.05.2015-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60×90¹/₁₆. Tayms garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 8,0. Nashr tabog‘i 7,64.
Adadi 366182 nusxa. Buyurtma №15-314.

«Ma‘naviyat» nashriyoti. Toshkent, Taraqqiyot 2-berkko‘cha, 2-uy.
Shartnoma № 47–15.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi. 100129. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy, 2015.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgani varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.